

X.S. Muxitdinova, G.Z. Muxamedjanova,
F.S. Talipova, R.B. Eshbayeva

O‘zbek tili

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik

1-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

«DAVR NASHRIYOTI»

Toshkent – 2017

Aziz o‘quvchilar!

O‘zbek tilida egallagan bilimlaringizni og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llashga, ko‘nikmalingizni yanada oshirishga intilyapsiz. 10-sinfda o‘zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarga o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotga muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish layoqatlarini o‘zlashtirasiz.

Og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalingizni o‘stirish maqsadida yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalarni egallaysiz.

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiborli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishni o‘rganasiz.

Nutqiy mavzuni izchil va oson o‘zlashtirishingizni ko‘zda tutib, mavzularni 1-3 darsga ajratilgan holda tavsiya etdik. 1- va 2-darslarda nutqiy hamda grammatik mavzular berilgan bo‘lsa, 3-darsda “Adabiy o‘qish” ruknida yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodiga oid materiallar berildi.

Mavzu doirasida unga xos nutqiy qolipni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, grammatik mashqlar va uy vazifasini bajarish tavsiya etildi.

O‘quvchilar, nutqingizni yuqori darajada o‘stirish, avvalo, o‘zingizga bog‘liq ekanligini aslo unutmang. Darsda faol bo‘lishga intiling.









Taqrizchilar:

- O‘. Lafasov** – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
M. Qoraxo‘jayeva – Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
D. Bobakalonova – Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 54-maktab o‘qituvchisi.
D. Izbosarova – Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 104-maktab o‘qituvchisi.
Z. Ganieva – Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 71-maktab o‘qituvchisi.

O‘ 16 **O‘zbek tili** : ta‘lim rus tilida olib boriladigan o‘rta ta‘lim muassasalarining 10 sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik / X.S. Muxitdinova [va boshq.]. – Toshkent : DAVR NASHRI-YOTI, 2017. – 192 b.

UO‘K: 811,512.133(075.3)=161.1
KBK 81.2O‘zb-922

Shartli belgilar

	Bilib oling!		Uyga vazifa
	Topshiriq		Adabiy o‘qish
	Mashq		Lug‘at
	Suhbat		Amaliy ish

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

1-mavzu. O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka

(O‘tilganlarni takrorlash. O‘zbek tilining orfoepik va orfografik me‘yorlari)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Berilgan rasmlar asosida respublikamizda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida suhbatlashing. Mustaqillik yillarida siz yashab turgan viloyat, shahar, tumandagi o‘zgarishlar, voqealar haqida so‘zlab bering.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nosini tushuntiring.

Vatan ona kabi azizdir. Shuning uchun ham uni – ona Vatan deymiz. Inson ***o‘z vatanida kamol topadi***, qadrlanadi, baxt-saodatga erishadi.

Vatanni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Mustaqillik tufayli ***xalqimizning asriy orzulari*** amalga oshdi. Yurtimiz O‘zbekiston butun dunyoga tanildi. Turli mamlakatlar bilan barcha sohalarda ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar o‘rnatildi. O‘zbekiston oltin, mis, neft, gaz kabi foydali qazilmalari va shirin mevalari, paxta ipaklari bilan jahon bozorida o‘z o‘rnini topdi.

Qadimiy va navqiron shaharlarni ko‘rgani kelgan sayyohlar ***jannatmakon o‘lkamizda xalqimizning mehmondo‘stligidan*** bahramand bo‘lmoqdalar.

O‘zbek xalqi ***vatan qadrini*** hamisha yuksak tutgan. Vatanni xuddi ota-onani sevgan kabi sevish, uning tinchligi, taraqqiyoti uchun kurashish kerak. Shu bois Jannatmakon o‘lkamizning kelajagi sizning qo‘lingizda. Vatanni har jihatdan yuksaltirishingiz, ***ko‘z qorachig‘iday avaylab, asrashingiz kerak***.



Lug‘at

tuyg‘u – чувство

burch – обязанность, долг

asriy orzu – вековая мечта

qadrlamoq – ценить

yuksaltirmoq – возвышать, поднимать

beg‘ubor – чистый, с открытой душой

ko‘z qorachig‘iday asramoq – беречь как зеницу ока

talqin etmoq – истолкование

kamol topmoq – совершенствовать

mehmondo‘st – гостеприимный

◆ Bilib oling!

Talaffuz jarayonida so‘z tarkibidagi tovushlar turli o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu fonetik **tovush o‘zgarishlari** deb atalib, ularga tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashinishi hodisalari kiradi.


Masalan:

singil + im = singlim (2-bo‘g‘indagi **i** unlisi tushgan)


o‘rtoq + im = o‘rtog‘im (**q** undoshi **g** ga almashyapti)

xursand – xursan (*d* undoshi tushyapti)
 u + ga = unga (*n* undoshi orttirilyapti)
 bilak + ga = bilakka (*g* tovushi *k* ga almashyapti)
 chiroq + ga = chiroqqa (*g* tovushi *q* ga almashyapti)


Tovush o'zgarishi	Tovush tushishi	Tovush almashinishi
<i>Terak, qishloq, bolalik</i> singari ikki va ko'p bo'g'nli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismining oxirgi <i>k, q</i> tovushi <i>g</i> va <i>g'</i> tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: <i>teragi, qishlog'i, bolaligi</i>	<i>Qorin, o'g'il, shahar</i> kabi ikkinchi bo'g'inida <i>i</i> unlishi ishtiroq etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi <i>i</i> yoki <i>a</i> unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi: <i>qorni, shahri</i>	<i>Chiroq, qirq, kurak, bilak</i> kabi oxiri <i>k</i> tovushi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi <i>-ka</i> shaklida, <i>q</i> tovushi bilan tugagan so'zlarga <i>-qa</i> shaklida qo'shiladi va shunday yoziladi.

 **1-mashq.** Berilgan so'zlarga *-ga, -ka, -qa* qo'shimchalaridan mosini qo'shing, so'ng ushbu so'zlarning qanday aytilishi va yozilishini tushuntiring.

Bog', chiroq, etak, chek, o'rtoq, barg, qirq, soliq, kiyik, chelak, kurak, quloq.

 **2-mashq.** Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib yozing. Qanday tovush o'zgarishi yuz berganini ayting.

1. U otgan koptok chiroq... (-qa, -ga) tegdi.
2. Sayohatchilar qaynar buloq... (-qa, -ga) borishdi.
3. Sardorning dadasi bilak... (-ga, -ka) taqiladigan soat olib berdi.
4. Sardor juda xursan... (-d, -t) bo'ldi.
5. U o'rto...lariga (-q, -g') soatini ko'rsatdi.
6. Sing...lim maktabda a'lo baholarga o'qiydi.

 **3-mashq.** Matnni nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib yozing.

Men ... xalqining farzandiman. Mening xalqim ... va ... biladi. O'z o'g'il-qizlarini ... bilan tarbiya qiladi. Mening xalqim ... , ... yaxshi ko'radi. Ona o'z ... uchun parvona bo'ladi, ota o'z bolalarini doim o'z ... olib yuradi. Mening xalqim ..., ... qadrini biladi (*Hamid Olimjon*).

Foydalanish uchun so'zlar: o'zbek, or, nomusni, nomus va hayo, birlik, ahillikni, hamjixatlikni, farzandlari, qanoti ostiga, do'stlik, birodarlikning.

◆ 3-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing va mazmunini tushuntiring.

Vatan faxri

Osmonlarda parvoz etgan sor burgut
Qaytib qoʻnar oʻzi uchgan togʻiga
Alp yigitlar, Barchin qizlar el-u yurt
Nomin yoyar dunyoning har yogʻiga
Ruhi sogʻlom, fikri teran, jurʼatli
Farzandi bor el koʻkragi togʻ boʻlur.
Oʻgʻlonlari sogʻlom vatan qudratli,
Qudratli yurt farzandlari sogʻ boʻlur
Sharafloydi Vatanini har qachon
Mard yurtboshi, oqil baxshi, chin oʻgʻlon
Xizmatigda asl oʻgʻil – qizlaring,
Yashna, yuksal Oʻzbekiston – onajon.
Koʻrkam qizlar, bobur, botir yigitlar
Vatan faxri, millat yoqqan chirogʻi
Yangra, diyor madhi jahon elida,
Porla, gʻolib vatanimning bayrogʻi!

Saʼdulla Hakim

Lugʻat

burgut – орёл

dunyo – вселенная, земной шар

jurʼat – смелость, решимость

vatan faxri – гордость отечества

porlamoq – блестять, сиять

qudratli – мощный



Uyga vazifa. Sheʼrni yod oling.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga boʻlib oʻqing va davom ettiring.

Sayyoh: Assalomu alaykum, bu sayyohlik agentligimi?

Xodim: Vaalaykum assalom, ha, sayyohlik agentligi. Sizni eshitaman.

Sayyoh: Men O‘zbekistonning qadimiy shaharlariga sayohat qilmoqchiman. Qaysi shaharlarni tavsiya qilasiz?

Xodim: Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent qadimiy shaharlar hisoblanadi.

Sayyoh: Bu shaharlarga qanday transportlarda borish mumkin?

Xodim: Bu shaharlarga hamma transportda borsa bo‘ladi. Men sizga «Afrosiyob» tezyurar poezdida borishni tavsiya qilaman.

Sayyoh: Rahmat, yana bir necha savol. Bu shaharlarda mehmonxonalarda tirbandlik bo‘lmaydimi? Qadimiy obidalar mehmonxonaga yaqinmi? Bozorlarga qanday chiqsa bo‘ladi?

Xodim: Bizda servis xizmati yuqori darajada tashkil etilgan. Hamma sharoitlar bor. Siz ham dam olasiz, ham sayohat qilasiz.

Sayyoh: Tashakkur.

Xodim: Sizga yordamim tekkanidan juda mamnunman. Xayr, salomat bo‘ling.

Lug‘at	sharoit – условия, обстановка
tezyurar – скоростной	tirbandlik – затор, давка
tashakkur – благодарность	mamnun – довольный

◆► **5-topshiriq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Vatanparvarlik nima?

Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uning ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishdir. Haqiqiy vatanparvar insonlar har qanday vaziyatda ham xalqiga, vataniga xiyonat qilmaydi, vatanini sotmaydi. Vatani qiynalgan vaqtida, uni tashlab o‘zga yurtlardan rohat-farog‘at qidirgan insonlar bir kun kelib yurtining bir siqim tuprog‘iga zor bo‘ladilar. Aksincha, vatanini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shganlar, o‘z xalqini, milliy qadriyatlarini e‘zozlagan insonlar vatanda obro‘-e‘tibor topadilar, sharaflanadilar.



Demak, vatanparvarlik bu jonkuyarlikdir. Vatanparvar inson o‘z xalqi oldidagi mas‘uliyati, millatining manfaati bilan yashaydi. Ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni asrab-avaylab, xalqiga foyda keltirgan, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilgan inson haqiqiy vatanparvar hisoblanadi.

Lug‘at

vatanparvarlik – патриотизм

xiyonat – измена, предательство

rivojlanmoq – развиваться

tuproq – земля, глина (сухая)

obro‘-e‘tibor – авторитет, уважение

mas‘uliyat – ответственность

manfaat – выгода

foyda keltirmoq – принести пользу

halollik – честность


Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko‘chiring.

1. Vatanimizning har bir qarich yeri biz uchun qadrlı va qimmatlidir. 2. Vatanimizning qudrati yil sayin oshib bormoqda. 3. Vatanimizda yoshlarning bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. 4. Kim o‘z Vatanga dahldor bo‘lmasa, u insoniyatga ham dahldor emas. 5. O‘zbekistonning kelajagi yoshlarga bog‘liq.

◆ Bilib oling!

To‘g‘ri yozish qoidalari *orfografiya* bo‘limida, to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalari esa *orfoepiya* bo‘limida o‘rganiladi. Bu qoidalar bilan tanish bo‘lish so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri yozishni o‘rgatadi. *Masalan:*

To‘g‘ri talaffuz	To‘g‘ri yozish
ketti	ketdi
Toshkenttan	Toshkentdan
xursan	xursand

 **4-mashq.** Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib yozing.

1. Alisher ertalab qishlo...iga (-q, -g‘) kirib keldi. 2. Bolali...im (-g, -k) shu qishloqda o‘tgan. 3. Uning ekan tera...i (-k, -g) baland bo‘lib ketgan. 4. Men javondan toza ko‘yla...imni (-k, -g) oldim. 5. Kundali...imga (-g, -k) olgan baholarimni qo‘ydirdim.

 **5-mashq.** Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

1. Tushlikka yaqin u shaharga ... (ketti, ketdi). 2. (Toshkentdan, Toshkenttan) ... chiqqanimizda havo issiq edi. 3. Salima ... (bo‘yoq, bo‘yo) larni olib tabiatning rasmini chiza boshladi. 4. ... (burnim, burunum) sovuqdan qizarib ketgan edi. 5. ... (sinif, sinf) ga o‘quvchilar kirib kelishdi.

◆◆ **6-topshiriq.** Berilgan matn mazmuni asosida bahs-munozara o‘tkazing.



Qadim o‘zbek o‘g‘lonlari uzoq safarga ketganda bir hovuch vatan tuprog‘ini doim yonlarida olib yurganlar. Chunki bu tuproq ularga o‘z tug‘ilgan yerlarini eslatib turgan, xalq oldida bergan va’dasini yodga solgan. Vataniga bo‘lgan muhabbatini bir nafas ham unuttirmagan. Bu bir hovuch tuproq ularga o‘z ota-onasini, qarindoshlarini, xalqini eslatgan va uzoq o‘lkalarda bo‘lsalar ham o‘z xalqi sha’niga isnod keltirmaslikka o‘z xalqining sodiq o‘g‘lonlari bo‘lishga chaqirgan.

🏠 **Uyga vazifa.** Vatanparvarlik haqidagi maqollardan yozing va ma’nosini izohlang.

3-dars _____

◆◆ **7-topshiriq.** Quyida keltirilgan maqollarni o‘qing. Ularning ma’nosini tushuntirib bering.

1. Vatanning tinch – sen tinch.
2. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l.
3. Otang – el, onag – el.
4. Vatan sajdagoh kabi muqaddas.

◆◆ **8-topshiriq.** Matni o‘qing. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Shiroq

(afsonadan parcha)

Qadim zamonlarda Eron shohi Doro Turon hududlariga hujum qilibdi. Bu yerda massaget, sak va so‘g‘d qabilalari yashar edi. Qabila boshliqlari dushmanni yengish to‘g‘risida maslahatga to‘planishibdi. Shunda ularning huzuriga oddiy cho‘pon Shiroq kelibdi va maqsadini aytibdi. U Eron shohining lashkarlari ko‘pligi, ularni jangda yengib bo‘lmasligini, ulardan faqat hiyla bilan qutulish mumkin debdi.



Shiroq xanjari bilan o‘z quloqlarini, burnini kesibdi va dushman tomonga yo‘l olibdi.

– Shohim, men qulingiz Shiroq bo‘laman. Qabila yig‘ilishida sizga taslim bo‘lishni aytgan edim, quloq-burnimni kesib, shu ahvolga solishdi. Ulardan o‘chimni olmoqchiman.

– Ularni qayerdaligini bilasanmi?

– Ha, albatta.

– Bizni o‘sha yerga boshlab bora olasanmi?

– Jonim bilan. Sizlarni faqat podachilar biladigan so‘qmoqlar bilan olib boraman. Yetti kunlik oziq-ovqat, suv g‘amlang.

Doro Shiroqning so‘zlariga ishonibdi va uni o‘z qo‘shiniga yo‘lboshlovchi qilib tayinlabdi.

Cho‘pon yigit ularni sahroga boshlab boribdi. Eron lashkarlari yo‘lboshlovchining maslahati bilan yetti kunga g‘amlagan suv, oziq-ovqat, yem-xashaklari tugabdi. Sakkizinchi kun ochlik, to‘qqizinchi kuni tashnalik boshlanibdi. Shunda Doro aldanganini tushunibdi.

– Bizni qayerga olib kelding? Qani saklar? – so‘rabdi u Shiroqdan.

– Men yengdim. Doroning qo‘shinini bir o‘zim yengdim! – deb javob beradi cho‘pon.

– Sizlarni aldab sahroning qoq o‘rtasiga olib keldim.

Shiroq qo‘li bilan kun chiqish va kun botish tomonini ko‘rsatib yana shunday debdi:

– Bu yog‘i ham yetti kunlik yo‘l, u yog‘i ham. Istagan tomonga boravering! Baribir barchangiz halok bo‘lasiz.

Ilojsiz qolgan dushman:

– Agar sen sahro quduqlari va chashmalarni bizga ko‘rsatsang gunohingdan kechib, So‘g‘diyona istagan qishloqlaringdan birini senga in‘om qilar edik, – debdi.



– O‘z elimning dushmanlariga yordam uchun cho‘zadigan qo‘limni kesib tashlaganim ma’qul, – deb javob beradi Shiroq.

Halokat yoqasida qolgan eroniylar chiday olmay, fidoyi cho‘ponni azoblab o‘ldirdilar va o‘zlari ham suvsizlikdan halok bo‘ldilar.

Oddiy cho‘pon Shiroqning o‘z elini qullikdan qutqarib qolish uchun o‘z jonidan kechgani, ming turli azob-uqubatni bo‘yniga olgani yuksak vatanparvarlik timsoli edi.

Lug‘at

kulfat – несчастье, горе

qabila – племя

halol (odam) – честный

o‘tov – юрта

sodiq – преданный

tashnalik – жажда

hiyla – хитрость

lashkar – войско

sarkarda – полководец

jarohat – рана

azob-uqubat – мучение, мука

timsol – знак, символ

qo‘shin tortib kelish – наступать с войском

maslahat – совет

maqсад – цель

yo‘lboshlovchi – путеводитель

ochlik – голод

sUvsizlik – безводье

qilich – сабля

xanjar – кинжал

taslim bo‘lmoq – сдаваться

saqlab qolmoq – спасти

halok bo‘lmoq – погибнуть

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Sak qabilasining boshiga qanday kulfat tushdi?
2. Shiroq qanday hiyla ishlatganini aytib bering.
3. Shiroq o‘limi oldidan o‘zini qanday tutdi va nimalar dedi?
4. Siz Shiroqning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?
6. Afsonadan chiqargan xulosangizni ayting.



Uyga vazifa. Shiroq kabi vatanparvar qahramonlardan yana kimlarni bilasiz? Ular haqida so‘zlab bering.

2-mavzu. Oilam tayanchim, faxrim

(O‘zbek tilida so‘z tarkibi va qo‘shimchalarning asosga qo‘shilish tartibi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib rasm asosida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: mening oilam, oilamiz an’analri, ahil-mehribon, ota-onaga hurmat, oila ahilligi, faxrlanmoq, eng sevimli insonim, g’amxo‘r va mehrbon.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Oilam – tayanchim va faxrim

Men O‘zbekistonda tug‘ilganman. O‘zbekistonda turli millat vakillari bir oila bo‘lib yashaydilar. Aytishilaricha, qaldirg‘ochlar xosiyatli xonadonlarga in qurar ekan. Osoyishta, fayzli xonadonni qushlar ham sevadi, unga talpinadi, deydi xalqimiz. Oilaning fayzli va farovon bo‘lishi esa, albatta, unda yashaydigan kishi-



lar, oila a'zolariga bog'liq. Ular o'zaro hamjihat bo'lib yashasalar, bir maqsadni ko'zlasalar, bu xonadon obod bo'ladi.

O'zbekistonda oilaga e'tibor katta. O'zbek oilalarida ota-ona, bobobuvilarni e'zozlash, farzandlarga g'amxo'rlik qilish asosiy burch hisoblanadi. Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiy-

ligini ta'minlaydi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va xotirjamlikka erishiladi. Mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik, rivojlanish bo'ladi. Eng qimmatli ahloqiy fazilatlar: halollik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik avvalo oilada shakllanadi.

Lug'at

qaldirg'och – ласточка

xosiyatli – приносящий счастье

osoyishta – спокойный

muqaddas – священный

mustahkam – прочный, крепкий

xotirjamlik – душевный покой

mehr-muruvvati – доброта и великодушие

g'amxo'rlik – заботливость

◆ **3-topshiriq.** «Oilam – tayanchim va faxrim» matni asosida savollarga javob bering.

– Qaldirg'ochlar qanday xonadonlarga in qurishadi?

– _____: _____ _____:

– Oilaning fayzli va farovon bo'lishi kimlarga bog'liq?

– _____: _____ _____:

– Sharqda qadim-qadimdan oilaga qanday munosabatda bo'lishgan?

– _____: _____ _____:

– Qachon mahallada tinchlik va xotirjamlikka erishiladi?

– _____: _____ _____:

– Qanday fazilatlar oilada shakllanadi?


– _____: _____ _____:

» Bilib oling!

Soʻzlar asos va qoʻshimchalardan tuziladi. Soʻzning asosiy maʼnosini ifodalab, mustaqil qoʻllana oladigan qismi asos deb ataladi. Mustaqil qoʻllana olmaydigan, asosga qoʻshilib, unga yangi yoki qoʻshimcha maʼno yuklaydigan, soʻzlarni bogʻlashga xizmat qiladigan qismi esa qoʻshimcha deb ataladi.

Masalan: **tilshunos** – (**til** – asos, **-shunos** qoʻshimcha); **guldun** – (**gul** – asos, **-don** – qoʻshimcha)

Asos	Qoʻshimchalar
Soʻzning asosiy maʼnosini ifodalab, mustaqil qoʻllana oladigan qismi: <i>bino, soz, bil, ol, tin</i>	Mustaqil qoʻllana olmaydigan, asosga qoʻshilib, unga yangi yoki qoʻshimcha maʼno yuklaydigan va soʻzlarni bogʻlashga xizmat qiladigan qismi: <i>-chi, -lik, -a, -gi</i>


 **1-mashq.** Gaplarni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajratib yozing.

Namuna: **mehribon** – **mehr** + **i** + **bon**

1. Farzand oʻz ota-onasiga **mehribon** boʻlishi kerak. 2. Dilshodning dadasi **dehqonchilik** bilan shugʻullanadi. 3. Maktabimizda oʻtkaziladigan hasharga **yordamchilar** keldi. 4. Bobomning bogʻida pishgan olmalar **suvli** va shirin. 5. Bugun sinfdoshlarim bilan birga imtihonga tayyorlandik. 6. Umida **gullarni** parvarishlaydi.

 **4-topshiriq.** Chap ustunda berilgan maqollarning davomini oʻng ustundan topib oʻqing va mazmunini izohlang.

Oilada hamjihatlik boʻlmasa, Sharaf tojini izlama, Ota dongʻi bilan oʻgʻil oʻtadi, Aqlli kishisi boʻlmagan uy	quyoshsiz osmonga oʻxshaydi. ona dongʻi bilan – qiz ona rizoligini izla uni baxt tark etadi
--	--


 **2-mashq.** Berilgan soʻzlarga mos qoʻshimchalar qoʻshib yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bil - bilim - bilimdon - bilimli. Bilimli oʻquchilar maktabimizning faxri sanaladi.
Bil ..., etik ..., gʻam ..., ish ..., gul ..., osh ..., sinf ..., doʻst...

Foydalanish uchun qoʻshimchalar: -im, -don, -doʻz, -xoʻr, -chan, -li, -paz, -dosh, -ona.

 **3-mashq.** Gapnlarni o‘qing. So‘zlardagi asos va qo‘shimchalarni aniqlang.


1. Bizning qarindoshlarimiz O‘zbekistonda yashaydilar. 2. Soy bo‘yiga otlar suv ichgani kelishdi. 3. Munira mehmonxonaga yugurib kirdi. 4. Sayohatchilar shahardan chiqib ketishdi. 5. O‘quvchilar darsdan so‘ng uylariga ketishdi. 6. Sinfxonalar toza, yorug‘ va shinam edi. 7. Sinfxona devorlarida buyuk allomalarimizning rasmlari osilgan. 8. Uning gaplari Akmalning qulog‘iga kirmas edi.

 **Uyga vazifa.**

2-topshiriqdagi matndan yasama so‘zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: O‘zbekiston – O‘zbek+iston. O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka.

2-dars ---

 **5-topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Madaniyatli oilada o‘sgan bola yaxshi fazilatlarga ega bo‘ladi. Bunga bir misol.

Bir kuni Bog‘dod shahri ko‘chalarining birida bolalar o‘yin bilan mashg‘ul edilar. Tasodifan, xalq orasida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan bir kekxa odam otga minib o‘sha ko‘chadan o‘ta boshladi. O‘ynab turgan bolalardan biri cholning kelayotganini ko‘rib, chetroq joyga chiqib turdi. Mo‘ysafid kishi yetib kelgach, qo‘l qovushtirib, salom berdi. Boshqa bolalar esa cholga e‘tibor bermay o‘yinga mashg‘ul bo‘ldilar.

Chol bu bolaning oqilona harakatidan zavqlandi. U bolalarning odobini sinash uchun bolalar yoniga kelib, qo‘lidagi uzukni ularning o‘rtasiga tashlab:

– Qaysi biringiz uzugimni qo‘limga olib bersangiz kitob olish uchun pul beraman, – dedi. Bolalar bir-birlari bilan urishib, uzukka yopirildilar. Nihoyat bir bola chaqqonlik bilan uzukni olib cholning qo‘liga berdi. Salom bergan bola esa uzukni olish uchun qilingan harakatlarga qo‘shilmay joyida turardi. Chol u bolaning holiga diqqat qilib turardi. Shu payt



uzukni uning yoniga tashladi. Bola darhol uzukni yerdan olib artdi. Cholga ta'zim qilib, uning qo'liga berdi. Chol u bolaning odobidan xursand bo'lib, otdan tushib, uning ota-onasiga rahmatlar aytdi. Hamma bolalarni yig'ib, ularga ahloqli, tarbiyali bo'lish haqida nasihat qildi. Keyin yonidan pul chiqarib bolalarga:

– Xayr, bolalarim, endi men ketaman, mana bu pulga kitob oling, – deb pulni haligi odobli bolaning qo'liga berdi.

«Donishmandlar odob-axloq to'g'risida» kitobdan

Lug'at

tasodifan – случайно

qo'l qovushtirib – сложа руки

e'tibor bermoq – не обращая
внимания

tarbiyali – воспитанный

darhol – немедленно

o'yinga mashg'ul bo'lmoq – быть
вовлеченным в игру

sinamoq – испытывать

zavqlanmoq – восторгаться

diqqat – внимание

nasihat – наставление

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnga sarlavha toping.
2. Shu bolalar qatorida bo'lib qolsangiz nima qilgan bo'lar edingiz?
3. Chol nima uchun kitob olishni maslahat berdi?


◆ Bilib oling!

Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ikki turga: *so'z yasovchi, shakl yasovchi* qo'shimchalarga bo'linadi. So'z yasovchi qo'shimchalar. **-dosh, -kor, -li, -lik, -zor, -la** yangi ma'no hosil qiladi. Ular ot, sifat, ravish, fe'l turkumlarini hosil qiladi. *Masalan:* sinfdosh, paxtakor, tuzli, ishla, tezkor, do'stlik.


Shakl yasovchi qo'shimchalar lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarga bo'linadi. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar, **-xon, -bek, -lar**. yangi so'z yasamaydi, qo'shimcha ma'no beradi: Nozima + xon; Nodir + bek; kitob + lar.

Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi. So'zning ma'nosini o'zgartirmaydi. Ularga egalik, kelishik va fe'llardagi shaxson qo'shimchalari kiradi. *Masalan:* Maktabim, onang, hovlingiz, tashkilotda.

Egalik qo‘shimchalari	undosh tovush bilan tugagan so‘zlarga -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari ; unli tovush bilan tugagan so‘zlarga -m, -ng, -si, -miz, -ingiz, -lari .
Kelishik qo‘shimchalari	-ning, -ni, -ga, -da, -dan
Shaxs - son qo‘shimchalari	-m, -man, -k, -miz, -ng, -san, -ingiz, -siz, -di, -dilar.

 **4-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda qanday qo‘shimchalar qo‘llanganligini aniqlang va yozing.

1. **Buvamlar gulchilik** bilan shug‘ullanganlar.
2. Hozir **mening oilam Guliston** shahrida yashaydi.
3. Men **onamga** uy **ishlarida** yordam beraman.
4. Har bir **mahallada** gulzor barpo etilgan.
5. Biz oilamiz bilan tez-tez **dam olishga** chiqamiz.
6. **Mahallamizda bobomlarni** hamma hurmat qiladi.

 **5-mashq.** Matnlarni o‘qing. Har bir so‘zni asos va qo‘shimchalarga, qo‘shimchalarni esa turlarga ajratib jadvalni to‘ldiring.


Kuz keldi. Dalalarda paxtalar ochildi. Bog‘ va polizlarda mevalar va sabzavotlar pishdi. Paxtakorlar paxta terimini boshladilar. Bog‘bon va dehqonlar pishgan hosilni yig‘a boshladilar.

Bilim baxt keltirar. Bilimli kishi o‘zar, bilimsiz kishi to‘zar. Bilimli insonlarning maslahat, nasihatlaridan foydalaning .

Asos	So‘z yasovchi qo‘shimcha	Shakl hosil qiluvchi qo‘shimcha

Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko‘chiring.

1. Ko‘p tingla, oz so‘zla.
2. Oltin o‘t bilan, odam esa mehnat bilan tarbiyalanadi.
3. To‘g‘ri so‘zlagin, to‘g‘ri ishlagin va qo‘lingdan kelganicha har kimga yaxshilik qilgin.
4. Bilsang gapir, bilmasang eshit.
5. Ota-onasini hurmat qilmagan farzand boshqalarni ham hurmat qilmaydi.

 **6-mashq.** Berilgan gaplardan so‘z yashovchi qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘lgan so‘zlarni topib ko‘chiring.

1. Sinfdoşlar birga teatrğa bordilar.
2. Gulchi Karima xola gullardan guldasta

yasab, o'tgan ketganga berardi. 3. Guruhimizga «Bilimdonlar» deb nom berdik. 4. O'zim olib kelganimda bunday kamchiliklar bo'lmasdi. 5. 13-iyul butun dunyoda «Baliqchilar kuni» deb hisoblanadi.



6-topshiriq. Berilgan so'zlar yordamida partadoshingiz bilan suhbat matni-ni tuzing.

Iltimos _____ ayting.

Iltimos _____ takrorlang.

Iltimos _____ tushuntiring.

Iltimos _____ telefon qiling (qo'ng'iroq qiling).

Iltimos _____ eshikni oching.

Mumkinmi _____ so'rasak?



7-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari yordamida gaplar tuzing. Xizmatlarini bajarmoq, odob, ranjitmoq, olqish olmoq, faxrlanaman, amal qilmoq, baxtli bo'lmoq, nasihatlarini eshitmoq, omad o'zi keladi, oilamiz an'analari.



7-topshiriq. A. Navoiyning hikmatini o'qing va mazmunini tushuntiring.

Boshni fido qilg'il ota boshiga,

Jismni qil sadqa ona qoshig'a.

Tun kuningga aylagil nurfosh,


Birisin oy angla, birisin quyosh.



Uyga vazifa. Berilgan so'zlarni namuna asosida jadvalga joylashtiring: o'quvchinig, do'stligimizda, singlimning, onangizni, hovlingizga, ahilliklarida.

	Asos	So'z yasovchi qo'shimcha	Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha	Egalik qo'shimchasi	Kelishik qo'shimchasi
yurtimizni	yurt			imiz	ni
kitobxon- larimizdan	kitob	kitobxon	lar	imiz	dan

3-dars

 **8-topshiriq.** Suhbatni o‘qing. Do‘stingiz bilan oilangizning an‘analari, urf-odatlarini haqida suhbatlashing.

Namuna:

– Abror, oilangizda qanday an‘analarga amal qilasizlar?
– Yaxshi odatlarimiz ko‘p. Masalan, har oyning so‘nggi shanba kuni teatrga boramiz. Sizlar-chi?

– _____.

 **Adabiy o‘qish**


Hamid Olimjon (1909-1944)

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ilgan. Jizzaxdagi Narimonov nomidagi boshlang‘ich maktabni tugatib, Samarqand Pedagogika bilim yurtida, keyin pedagogika akademiyasida tahsil oldi. 1931-yilda Hamid Olimjon Pedakademiyaning tugatdi, Toshkentga ko‘chib keldi va yoshlar gazetasida ishlay boshladi. U shoira Zulfiya bilan turmush qurib baxtli hayot kechirdi. Adib ko‘pgina gazetalarda, Yozuvchilar uyushmasida, Til va adabiyot institutida ishladi. Ikkinchi jahon urushi arafasida O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasiga mas‘ul kotib bo‘ldi va umrining oxirigacha Respublika yozuvchilariga rahbarlik qildi.

U «Ko‘klam», «Baxt» she‘riy to‘plamlarini, «Oygul va Baxtiyor» dostonini, «Muqanna» pyesasini, «Tong shabadasi» hikoyasini yaratdi.

Shoir Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda bevaqt vafot etgan.



 **9-topshiriq.** She'rni ifodali o'qing. Ma'nosini so'zlab bering.

Xayolimda bo'lding uzun kun...

Xayolimda bo'lding uzun kun,
Seni izlab qirg'oqqa bordim.
Och to'lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.

Ishon bunda, seni doimo
Esga solar chiroyli tunlar,
Sho'x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.

Toleimning oshnosi sen,
Sen sevgimning ko'kargan bog'i.

Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafo tog'i.

Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyiladi.
Shunda qancha – qancha gaplarni
Esga solib oy ham to'ladi.

Kecha jimjit, yolg'iz to'lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hiylagar oy, sehragar dilbar,
Solib qo'yding yodimga kimni? ...

Lug'at

xayol – фантазия

qirg'oq – берег

pishqirmoq – *здесь*: пенистый,
кипучий

yolvormoq – умолять, упрашивать

sahar – раннее утро

tole – фортуна

vafo – верность

jimjit – совершенно (абсолютно)
тихий

yolg'iz – одинокий

to'lqin – волна



8-mashq. Nuqtalar o'rniga so'z yasovchi va egalik, kelishik qo'shimchalarini qo'yib yozing.

Yaqin... ona... kasal bo'lib qoldilar. Onam... tibbiy ko'rik... o'tkazdik. Shifo... lar tavsiyasiga ko'ra ularni davolanish uchun kasalxona... yotqizdik.

Mana bir hafta o'tdi. Hammamiz, ayniqsa, singlim va men onam... juda sog'indik. Onam... mehri... liklari, shirin ovqatlarini sog'indik. To'g'ri dadamlar ham biz... juda yaxshi ko'radilar. Ammo ishlari ko'p, otam... ortiqcha bezovta qilishni istamaymiz.

Foydalanish uchun berilgan qo'shimchalar: -da, -ni, -dan, -kor, -m, -ga, -ning, -bon.



Uyga vazifa. Hamid Olimjon haqida so'zlab bering. Uning yana qaysi she'rlarini bilasiz? Yoddan aytib bering.

3-mavzu. O‘zbekiston yoshlari (Gap. Gap bo‘laklari, ularning ifodalanishi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasm asosida berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, O‘zbekistonda yoshlar hayoti haqida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: yoshlik – oltin davr, kelajagimiz, yoshlar barkamol avlod, keng imkoniyatlar, tengdoshlarimizning yutuqlari.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini hikoya qiling va matn asosida savollar tuzing.

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasidagi ishlar bugun o‘z samarasini bermoqda. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma’naviy qadriyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda davr sadosi bo‘lgan ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta’sirini har sohada kuzatishimiz mumkin. Bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan.

Televideniye kunlik axborotga ega bo‘lishimizda asosiy manbalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘plab dasturlarda yoshlarga oid ko‘rsatuvlar va eshittirishlar uzatilyapti. Hamma sohada yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlar o‘z iqtidorlari bilan turli sohalarda faol ishtirok etmoqda. Yoshlik umrning

eng gʻanimat davri. Unda qoʻlga kiritilgan ilm va hunar umr davomida halol va baxtli yashash uchun xizmat qiladi. Hozir mamlakatimiz yoshlari internet va mobil vositalaridan keng foydalanmoqda. Ammo bu yoʻnalishda yolgʻon axborotga ishonib qolayotgan tengdoshlarimiz ham yoʻq emas. Tengdoshlarimizni bunday salbiy illatlar, ommaviy madaniyat taʼsiridan asrash uchun, ular koʻp kitob oʻqishlari lozim.



Lugʻat

yetuk – зрелый, полноценный

shaxs – личность

qadriyat – ценность

davr – эпоха

taʼsir – влияние

bejiz – неспроста, не зря

manba – источник

soha – отрасль

faol – активный

◆ Bilib oling!

Gap tugallangan fikrni ifodalaydi. Gap ohang jihatdan tugallangan boʻlishi kerak.

Masalan: Oltin kuz qanday chiroyli! Maktablarda darslar boshlandi.

Gap hosil qilish uchun soʻz va soʻz birikmalarini grammatik jihatdan bogʻlash kerak.


Masalan: Xatni qalam bilan yozdi. Gapida **-ni**, **bilan** bogʻlovchi vositalar hisoblanadi. Kuz. Hamma yoq oltin rangga kirgan. Bu gapdagi *kuz* soʻzi ham tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi.

▶ **1-mashq.** Gaplarni oʻqing. Gaplarda qoʻllanilgan bogʻlovchi vositalarni topib yozing.

Namuna: Mohidil**ning** ukasi dars qilish**ni** yaxshi koʻradi (**-ning**, **-si**, **-ni**).

1. Botirjon papkasidan kitoblarini chiqarib, joyiga oʻtirdi. 2. Nasiba oʻqituvchining savoliga javob berishga shoshar edi. 3. Shaxboz ishi koʻpligidan onasiga qaray olmaganiga xafa edi. 4. Sinfdozlar: Behzod, Saidkamol va Adhamlar

darsdan so‘ng kutubxonaga kirib kitob olishdi. 5. Men bugun darsga zarur kitobni olib keldim.

 **2-mashq.** Berilgan so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. Bog‘lovchi vositalarni ko‘rsating.

1. Yoshlar hayoti. 2. Yaratilgan imkoniyatlar. 3. Shaxmatchilar oilasi 4. Jahon chempioni. 5. Turli to‘garaklar.

 **3-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

Ibrohim: Behzod, darslarimiz tugadi. Yur, futbol o‘ynaymiz.

Behzod: Futbol o‘ynashni men ham yaxshi ko‘raman. Lekin men bugungi kunimni rejalashtirganman. Qo‘shnimiz bog‘bon boboning uyiga bormoqchiman.


Ibrohim: Bog‘bon bobonikida nima qilasan?

Behzod: Ular menga gul va mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish sirlarini o‘rgatadilar. Anor va uzumlarni sovuqdan qanday asrashni ham o‘rgatadilar.

Ibrohim: Bu zo‘r-ku! Menga ham o‘rgatarmikanlar?


Behzod: Bobom bundan xursand bo‘ladilar. Vaqting bo‘lsa yur. Bog‘da ish juda ko‘p. Ularga yordam beramiz.

Ibrohim: Albatta boraman. Bog‘dorchilik ishiga juda qiziqaman.

 **Uyga vazifa.** Berilgan so‘zlar yordamida gaplar tuzing.

1. O‘qi zehningni, va, tekshirish, tarbiyala, o‘zingni, bilan, aqlingni, 2. Bo‘l, hammaga, va g‘amxo‘r, mehribon, 3. Yaxshi, senga, bajar, jamiyat, topshirilgan, vazifani, tomonidan, 4. Bag‘ishla, kuchingni, qilma, dangasalik, bor, ilm, olishga.

2-dars ---

 **4-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va munosabatlaringizni bildiring.

Rivoyat qilishlaricha, Luqmoni Hakim ikki do‘stni o‘rtaga olib so‘radilar.

– Xo‘sh, siz umringiz mazmunini nimalar bilan boyitdingiz?

– Men yaxshi farzand o‘stirdim. Yetim va nochorlarga yordam berdim. Tinimsiz mehnat qildim.

Luqmoni Hakim uning sherigiga yuzlandilar:

– Bolam, siz umringizda qanday savob ishlarni qildingiz?

U odam yerga qarab:

– Mayxona, choyxonalarda umrimni bekor o‘tkazganman, – deb javob berdi.

Luqmoni Hakim boshini chayqab:

– Essiz umr! – dedilar.

– Darhaqiqat, umr mazmuni – foydali ishga sarflangan vaqt, yaxshi nom jasoratdan iborat.

– O‘tgan kuningga emas, bekorchi o‘tgan umringa achin, – deb bejiz aytishmagan.

– Inson gohida, o‘ziga shunday savol berib turishi zarur : «Men vatanimga, avlodlarimga nimalar qoldiryapman?»

◆◆ **5-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmuni yuzasidan suhbatlashing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Yosh fizik

Alisher Sanetullayev Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanida 1981-yilda tug‘ilgan. Maktabdan so‘ng Nukus Davlat universitetining fizika-matematika fakultetida ta‘lim oldi. ***O‘qishdagi muvaffaqiyatlari*** uchun Prezidentning maxsus sovg‘asi – kompyuter bilan mukofotlangan. 2000-yil qoraqalpoq yigiti ***fizika fani bo‘yicha*** o‘tkazilgan xalqaro olimpiadada ***uchta oltin medalga*** sazovar bo‘lgan. Alisher Sanetullayev ingliz, rus, turk tillarini ham ***mukammal biladi***.

Lug‘at

mukammal biladi –
знает в совершенстве
muvaffaqiyat – успех

maxsus sovg‘a – специальный
подарок

xalqaro olimpiada – международная
олимпиада

◆◆ Bilib oling!

Gap so‘zlardan tashkil topadi. Gap tarkibida so‘zlar 5 xil gap bo‘lagi: ega, kesim, to‘ldiruvchi, hol va aniqlovchi vazifalarini bajaradi. O‘zbek tilida gap

bo‘lamlari asosan quyidagi tartibda keladi: ega gapning boshida, kesim gapning oxirida keladi, hol va to‘ldiruvchilar esa kesimdan oldin joylashadi. Aniqlovchi qaysi bo‘lakni aniqlab kelayotgan bo‘lsa, o‘sha bo‘lakdan oldin turadi.


Masalan: Bilimdon yoshlar yurtimizni rivojlantirishga astoydil intilmoqdalar.

She’riy asarlarda, maqollarda gap bo‘laklarining tartibi o‘zgarishi mumkin.


Masalan: Ko‘p ertak eshitgandim, so‘ylab berardi buvim.

Gap bo‘lamlari qanday so‘roqlarga javob berishini eslab qoling.

Gap bo‘lamlari				
Bosh bo‘lamlar		Ikkinchi darajali bo‘lamlar		
Ega	Kesim	Aniqlovchi	Hol	To‘ldiruvchi
Kim?	Nima qildi?	Qanday?	Qayerda?	Kimni?
Nima?	Nima qilyapti?	Qanaqa?	Qayerdan?	Nimani?
Qayer?	Nima qiladi?	Qaysi?	Qachon?	Kimda?
		Kimning?	Nima uchun?	Nimada?
		Nimaning?	Qayerga?	Kimdan?
			Qanday?	Nimadan?

 **3-mashq.** Maqollarni o‘qing va mazmunini tushuntiring. Qaysi gaplarda gap bo‘lagi tartibi o‘zgarganligini aniqlang.


Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo‘lar chiroylik.
Hunar bo‘lsa qo‘lingda,
Non topilar yo‘lingda.
Tilingda bo‘lsa boling,
Kulib turar iqboling.

 **4-mashq.** Gap tarkibidagi bosh bo‘laklarni aniqlab, yig‘iq gap shaklida yozing.


Namuna: 1. Men o‘sha kitobni hamon saqlayman. Men saqlayman.

1. Men o‘sha kitobni hamon saqlayman. 2. Shu orada mashina to‘xtagan edi.
3. Daraxt barglari sarg‘ayib, go‘yo oltinga aylanib qolgan edi. 4. Akmal bugun

darsga vaqtida keldi. 5. Kuz yomg'irlari boshlandi. 6. Biz maktabimizdagi hasharda faol qatnashdik. 7. E'zoza uyga vazifani tez bajaradi. 8. Buvim gullarni yaxshi ko'radilar. 9. Biz Sardor bilan o'qish haqida ko'p o'yladik.

 **5-mashq.** Berilgan sodda yig'iq gaplarni ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaytiring.

1. Mehmonlar kelishdi. 2. Muxbir suhbatlashdi. 3. Yoshlar yig'ilishdi. 4. Feruza bo'ldi. 5. Botir ochdi. 6. O'quvchilar yig'ildilar. 7. Zumrad qatnashdi. 8. Noila opa yozdi. 9. Navoiyni o'qigan. 10. Akmal sug'ordi.

 **6-topshiriq.** Berilgan matnni o'qing va mazmuni yuzasidan bahs-munozara o'tkazing.


Ey, yoshlar! Qaysi fan bo'lmasin to uni mukammal egallamaguningizcha harakatni to'xtatmang! Bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqlingiz yo'l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab ketmang!

Sa'diy Sheroziy

Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko'chiring.

1. Yoshlikda mehnat qilmagan odam qariganda kulfatga uchraydi. 2. Bir yigitga yetmish hunar oz. 3. Odam muloyim, xushfe'l, ochiq chehrali, zakovatli, bilimli bo'lishi kerak. 4. Aqliy tarbiya odam zehni, aql idrokini kamolga yetkazishdir. 5. Yaxshi odamlarni o'zingga yaqin tut, yomondan yiroq bo'l, ziyoni tegadi.

Yoshlik – oltin fasl, biroq g'animat davr. Go'zallikka mahliyo bo'lganlar uni tezda yo'qotadilar, uning kuchidan foydalangan qudratli insonga aylanadilar. Vatanimiz kelajagi yoshlar qo'lida.

 **Uyga vazifa.**

Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanib, tengdoshlaringizning yutuqlari haqida matn tuzing.




*Asqad
Muxtor
(1920-1997)*



Asqad Muxtor shoir, dramaturg, tarjimon, jurnalist hamda adib sifatida o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan siymolardan biridir. Adib 1920 yil 23 dekabrda Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. 1936 yilda Toshkentga kelib jurnalistika kursida o‘qidi, gazetada ishladi. Samarqanddagi O‘zbekiston Davlat universitetiga o‘qishga kiradi. Talabalik yillaridan ijod qila boshlagan yosh adib markaziy gazetalarda so‘ngra «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnallarida bosh muharrir bo‘lib ishladi. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasiga asos soldi.

Asqad Muxtor badiiy ijodga she’riy asarlari bilan kirib keldi. Uning «Hamshahrlarim», «Rahmat mehribonlarim», «Chin yurakdan», «Karvon qo‘ng‘irog‘i», «Quyosh belanchagi», «Sizga aytar so‘zim» kabi she’riy to‘plamlari chop etilgan. Uning «Daryolar tutashgan joyda», nomli birinchi qissasi, so‘ngra «Qoraqalpoq qissasi», «Kumush tola» qissalari bosilib chiqdi. Adib «Opa-singillar», «Tug‘ilish», «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu» kabi romanlari bilan o‘zbek romanchiligiga katta hissa qo‘shdi. Uning ko‘plab asarlari jahonning qator tillariga, jumladan, rus, hind, xitoy, rumin, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Katta xizmatlari uchun Asqad Muxtorga «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan.

Asqad Muxtor 1997-yilning 17-aprelida vafot etdi.

 **7-topshiriq.** Sheʼrni ifodali oʻqing. Mazmunini soʻzlab bering.

Bir tup oʻrik

Yakka oʻsgan ekan:

Yolgʻiz tomoqmasmi – rosa unibdi.

Bodroq-bodroq boʻlib gullaganida

Koʻlankasi bilan doʻst tutinibdi.

Soya dam oʻngga-yu, dam chapga oʻtib,

Dam choʻzilib yotib,

Dam boʻlib tikka:

– Mendan ham sodiqroq doʻst topolmaysan,

Sensiz men ham yoʻqman,– derkan oʻrikka...

Bir kun qarasa –

Soya yoʻq emish.

(Bulut kuni uni izlash – kulgili).

Yomgʻir ham quyibdi – doʻsti hamon yoʻq...

Yerga yakson boʻpti oʻrikning guli.

Eh, oʻrik! Soya ham doʻst boʻladimi?

Laqqa tushibsanda lof ursa.

Doʻst boʻlsa, har qanday ob-havoda

Yoningda tursa...



Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Yana qanday mashhur yoshlarni bilasiz? Maʼlumot topib keling.
2. Topgan maʼlumotingizdan gapning bosh boʻlaklarini aniqlang.

4-mavzu. Do‘stlarim va qiziqishlarim

(Gap bo‘laklarining uyushib kelishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, do‘stlaringiz va qiziqishlaringiz haqida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: do‘stlarim, do‘stga sadoqat, g‘amxo‘r va samimiy, puxta bilim olish, qiziqqan sohalarimiz, tanlovda ishtrok etmoq, g‘oliblikka intilish.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va unga sarlavha qo‘ying. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar va birikmalar yordamida suhbatlashing.

***Haqiqiy insonlar** bir-birlariga do‘st va yo‘ldosh tutinganlar, **do‘stlik va hamji-hatlik** keng xalq ommasining buyuk fazilati bo‘lib, buni Alisher Navoiy hazratlari besh asr ilgari dostonlarida tarannum etganlar. Bu g‘oya dunyo xalqlari o‘rtasida **milliy nizolar** ko‘paygan hozirgi qiyin bir sharoitda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Do‘stlarning va tengdoshlarning bir-birlariga **shirin muomalada**, mehr-u muhabbatli bo‘lishlari **do‘stlikni mustahkamlaydi**.*



Bir odamning do'sti **go'zal xulqli** bo'lsa, u do'stidan ibrat olib, u ham go'zal xulqli bo'lishga kirishadi. Agar do'sti yomon xulqli bo'lsa, shunga qarab yomon xulqli bo'ladi. Bir donishmanddan:

– **Falon odam** haqida qanday fikrdasiz,—deb so'raganlar. Donishmand:

– Avval menga u odamning qanday odamlar bilan do'stlashib yurganini ayting, keyin u haqda fikrimni aytaman, – deb javob bergan.

– Kim bilan **do'st bo'lishni** istasangiz, avval uning xulqini yaxshilab o'rganing. Yaxshi xulqli,

odobli bo'lsa, u bilan do'st bo'ling, yomon xulqli bo'lsa, yoniga sira ham yaqinlashmang. Odobli, tarbiyali odamlar sizlarga **yaxshi yo'lni ko'rsatadi**.

haqiqiy – истинный, настоящий

hamjohatlik – согласие, солидарность

nizo – спор

tarbiya – воспитание

muomala – обращение, обхождение

mustahkamlamoq – закрепить

hulq – поведение

ibrat – назидание, пример

donishmand – мудрец

odobli – воспитанный, вежливый

◆ Bilib oling!

Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so'roqqa javob bo'luvchi, o'zaro teng aloqadagi bo'laklar **uyushiq bo'laklar** deyiladi. Gapning barcha bo'laklari uyushib kelishi mumkin. Uyushiq bo'laklar odatda bir xil so'z turkumi bilan ifodalanadi.


Masalan: Yurtimizning **farovonligi, tinchligi** va **iqboli** bizga bog'liq. Bu yer-ning **ob-havosi, iqlimi** va **sharoiti** yaxshi.

Uyushiq bo'laklarni bog'lovchi grammatik vositalarini bilib oling!

Biriktiruv bog'lovchilar	Zidlov bog'lovchilar	Ayiruv bog'lovchilar	Yuklamalar
va, ham, hamda, bilan	ammo, lekin, biroq	goh, ...goh, yo...yoki, ba'zan...ba'zan, dam	-u, -yu, -da

Uyushiq bo‘laklar bog‘lovchi so‘zlarsiz, faqat sanash ohangi bilan bog‘langanda, vergul bilan yoziladi.


Masalan: Maktabimiz bog‘iga **olma, gilos, o‘rik, anjir** daraxtlarini ekdik. **Zafar, Hamid, Diyorbek** qarddon do‘stlardir.

 **1-mashq.** Gaplarni o‘qing. Uyushib kelgan bo‘laklarni toping. Uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi vositalarni toping.

1. Maktabimizda rassomlik, duradgorlik va tikuvchilik to‘garaklari bor. Biz katta va yorug‘ sinflarda o‘qiyamiz. 3. Nargiza sinfga shoshilib kirdi-yu tezda chiqdi. 4. To‘lqinning, Ozodaning va Shoiraning ukalari bog‘chada tarbiyalanadilar. 5. Mashina sekinladi, lekin to‘xtamadi. 6. Kuzda gohida shamol bo‘ladi, gohida yomg‘ir yog‘adi. 7. Sinf rahbarimiz bizni ba‘zida muzeyga, ba‘zida teatrga olib boradilar.

 **2-mashq.** Matnni o‘qing. Uyushgan va uyushmagan bo‘laklarni aniqlang.

Bog‘da yoqimli shabada esadi. Bulbullarning va sa‘valarning sayrashi dilga zavq bag‘ishlaydi. Oq, qizil, sariq, nim pushti gullar chamandek ochilib yotibdi. Nafis gullarning, xushbo‘y rayhonlarning hidi anqiydi. Bog‘ o‘rtasidan o‘tgan ariqdan suv shildirab oqib turibdi. Sevra tiniq zilol suvda yuz-qo‘llarini yuvdi, so‘ngra turli gullardan va rayhonlardan katta guldasta yasadi.

 **3-topshiriq.** Misollarni qiyoslang. Qaysi bo‘laklar uyushib kelganini aniqlang.

Quyosh chiqqan, ammo qizdirmayapti. – Nima qilgan? Kesim uyushib kelgan, fe‘l bilan ifodalangan.

Uylar, ko‘chalar va maydonlar bayram libosiga burkangan. – Nimalar? Ega uyushib kelgan, ot bilan ifodalangan.

Yo‘l chetlarida oq, sariq, qizil va pushti rangli gullar ochilib yotibdi. – Qanday? aniqlovchi uyushib kelgan, sifat bilan ifodalangan.

Ukam daftar va kitoblarini olib maktabga ketdi. – Nimalarni? To‘ldiruvchi uyushib kelgan, tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan.

Uy peshtoqlariga, ko‘chalarga bayroqlar ilingan. – Qayerlarga? Hol uyushib kelgan, jo‘nalish kelishigidagi ot bilan ifodalangan.



Uyga vazifa. Chap ustunda berilgan gaplarning davomini o‘ng ustundan topib yozing. Uyushiq bo‘laklarni aniqlang va bog‘lanishini tushuntiring.

Xushyor, sezgirlikni sira ham
Izzat va obro‘li
U dam hazil qilardi,
Ibrohim bilan Mirzohid tez-tez
Sardor mashg‘ulot davomida

dam jiddiy so‘rardi
birga dars qila boshladilar.
o‘qidi, yozdi.
kishilar bilan do‘stlash
qo‘lingdan bermagin

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

Mening do‘stlarim

Sardor, Alisher, Asror va Diyor yaqin do‘stlar. Ular nima ish qilishsa birga maslahatlashib bajarishadi.

Asror: 21-oktabr O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun. Shu kunga bag‘ishlab qanday tadbir o‘tkazamiz?

Sardor: Men qo‘shiq tayyorlayman.

Alisher: Men devoriy gazetalarni yozib, bezashni yaxshi ko‘raman.

Asror: Men mavzuga oid sahna tayyorlayman va boshlovchilik qilaman, bunga qarshilik qilmaysizlarmi?

Diyor: Yo‘q, bularni sendan yaxshi bajaradigan odam yo‘q. Agar qarshi bo‘lmasang, men senga yordam beraman.

Asror: Albatta, menga yordaming kerak. Bu tadbirga qizlarni ham takalif qilsak. Dilnoza, E‘zoza va Gulnozalar chiroyli raqsga tushadilar.

Sardor: Sinfirmizning qolgan o‘quvchilariga g‘azal, ruboiy bersak.

Diyor: Ayniqsa, Ruxshona bilan Muslima she‘rlarni ifodali aytishadi.

Sardor: Ular o‘rtasida musobaqa o‘tkazsak-chi?

Alisher: Bolalar, bu rejamizni sinf rahbariga aytaylik.

Ular sinf rahbarining oldiga ketishdi.

5-topshiriq. Matnни o‘qing. Matn asosida suhbatlashing.

Mening ismim Shahnoza. Men 10-sinfda o‘qiyman. Sinf doshlarimning hammasi o‘z qiziqishlariga qarab to‘garaklarga qatnashishadi. Men zardo‘zlik to‘garagiga, Anvar maktabimizda tashkil etilgan drama to‘garagiga, Aziza ingliz tili to‘garagiga, Komil sport to‘garagiga qatnashamiz. Anvar kelajakda katta aktyor bo‘lmoqchi. Komil jahon olimpiadalarida qatnashib yuqori o‘rinlarni egallashni maqsad qilib qo‘ygan. Aziza ingliz tilidan o‘tkaziladigan olimpiadalarga muntazam qatnashib boradi. Kelajakda ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lmoqchi. U yosh avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan.



Men esa maktabda a‘lo baholarga o‘qiyman. Rus, ingliz, o‘zbek tillarini qunt bilan o‘rganayapman. Bo‘sh vaqtlarimda do‘ppi tikaman. Men tikkan do‘ppilarni qizlarimiz kiyishsa, yana ham chiroyli bo‘lib ketadilar. Ayniqsa, men tikkan do‘ppilarni sayyohlar zavq bilan tomosha qilganlarida tanlagan hunarimga mehrim yanada ortadi. Zardo‘zlikning sirlarni o‘rganishga harakat qilaman. Bu qiziqishlarim kelajakda zardo‘zlik korxonasini ochishga undaydi. «Intilganga tole yor», – deydi xalqimiz.

Bilib oling!

Uyushiq bo‘laklar **biroq**, **ammo**, **lekin** bog‘lovchilari bilan bog‘langanda zidlik, qarama-qarshilikni bildiradi. Ushbu so‘zlar oldidan vergul qo‘yiladi.


Masalan: Daraxt ko‘kardi, **biroq** hosil bermadi. Oy yoritadi, **ammo** isitmaydi.

-u, **-yu -da** yuklamalari chiziqcha [-] bilan yoziladi.


Masalan: Davron aka yo‘l bo‘yida to‘xtadi-**da**, keng bug‘doyzorlarga faxr bilan qaradi.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos bog‘lovchilarni qo‘yib yozing. Uyushiq bo‘laklarda tinish belgilarining qo‘yilishiga e‘tibor qiling.

1. Yerlarga yaxshi ishlov berildi ... mo‘l hosil yetishtirildi. 2. Bahorda havo tez o‘zgarib turadi: ... yomg‘ir yog‘adi, ... kun isib ketadi. 3. Eshikdan Farrux ... Zafar kirib kelishdi. 4. O‘qituvchimiz keldilar... uy vazifasini tekshira boshladilar. 5. Maktabda yosh tabiatshunoslar ... texniklar to‘garagi tashkil qilingan. 6. Aziza keldi..., shu zahoti qaytib ketdi.

 **4-mashq.** Gaplarni o‘qing. Uyushib kelgan bo‘laklarni aniqlang, qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ayting. Ularni o‘zaro bog‘lovchi vositalarini ko‘rsating.

1. Shahar va qishloqlarimizda yangi, chiroyli uylar qurilmoqda. 2. She’rni ifodali o‘qing va yod oling. 3. Bu yil bog‘imizdagi o‘rik, olma, shaftoli va behi daraxtlari hosilga kirdi. 4. Ko‘p narsani bilish uchun ko‘p o‘qish va ko‘p o‘rganish kerak. 5. Uzoqdan yaylovlar, qirlar, tog‘lar ko‘rinardi. 6. Men gullarni, o‘simliklarni va qushlarni juda yaxshi ko‘raman. 7. Bahorda ko‘cha chetlariga daraxtlar, gullar ekamiz, ularni sug‘oramiz, parvarishlaymiz.

 **6-topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing. Uyushib kelgan bo‘laklarni ko‘rsating.


Baxtlar vodiysi

Ko‘mko‘k,
Ko‘mko‘k,
Ko‘mko‘k...
Ko‘klam quyoshidan
Ko‘kargan qirlar,
Po‘lat yag‘rinlarni
Ko‘targan yerlar
Ko‘mko‘k.

Salqin saharlarda
Uyqidan turgan;

Buloq suvlariga
Yuzini yuvgan,
Marmar havolarning
Qo‘yniga cho‘mgan,
Zilol bo‘shliqlarga
Keng quloch qo‘ygan,
Mustaqillik
Ishqi bilan
Yongan dalalar
Ko‘mko‘k.


Hamid Olimjon

 **Uyga vazifa.** Nuqtalar o‘rniga bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘zlarni qo‘yib yozing. Bog‘lovchi vositalarga e’tibor bering.

1. Yozgi ta’tilda barcha o‘quvchilar ..., ..., ... borib dam olishadi. 2. Quruvchilar maktabimiz binosini ... va ... bitkazdilar. 3. Chegarachilar bizning ..., ... va ... sergaklik bilan qo‘riqlaydilar. 4. Dehqonlarimiz ..., ... hamda ... mo‘l hosil yetishtirdilar. 5. ..., ... suv kishiga orom beradi. 6. Biz o‘zbek tili darsida ..., ... va



Erkin Vohidov (1936 - 2016)



O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Cho‘yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro‘-e‘tiborli, ma‘rifatli, faol kishilari edi. E. Vohidovning otasi ikkinchi jahon urushidan og‘ir jarohat olib qaytadi va 1945-yil vafot etadi. Bir yildan keyin onasi ham dunyodan o‘tadi. O‘n yoshga yetar-yetmay ham otadan, ham onadan ajralib qolgan yosh Erkinni Toshkentlik tog‘asi o‘z tarbiyasiga oladi.

Unda kitobga, adabiyotga havas juda erta uyg‘onadi. 7-sinfda o‘qib yurganida «Mushtum» jurnalida birinchi she‘ri bosildi.

Shoir avval maktabda, so‘ng hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida ta‘lim oladi. 1960-yilda o‘qishni tugatgach, turli nashriyot, gazeta va jurnallarda muharrir, bosh muharrir, direktor lavozimlarida ishlaydi. Erkin Vohidov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan.

◆◆ 7-topshiriq. She‘rni ifodali o‘qing.

Ona tilim o‘lmaydi

Notiq dedi:
Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda.

«Ey voiz, pastga tush,
Bu gap chiqdi qayerdan?
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabridan.

Kim darg‘azab,
 Kim hayron,
 Chiqib keldilar qator:
 Dante, Shiller va Bayron,
 Firdavsiy, Balzak, Tagor.
 Va‘zingni qo‘y birodar,
 Sen aytganing bo‘lmaydi.
 Barcha dedi barobar:
 «Ona tilim o‘lmaydi».
 – Hech bu qanday aqida! –
 Qo‘lida tabarruk jom,
 Forsiy tili haqida
 Ruboiy aytdi Xayyom.
 Ehtirosli, otash dil
 Beranje so‘rdi nolon:
 – Nahotki farangi til
 Yo‘qolgusi bir zamon!
 Neruda, Lorka turdi
 Servantesning yoniga:
 Kim qasd etib tig‘ urdi
 Ona tilim joniga!

Fuzuliy yonda: ozar
 Tili guldek so‘lmaydi, –
 Barcha dedi barobar:
 «Ona tilim o‘lmaydi».
 Kamalakdek rango-rang
 Bo‘lsin deb san‘at, tillar.
 Asrlarga qildi jang,
 Armon qildi ming yillar.
 Beqadr bo‘lsa nahot
 Tillardagi tarovat!
 Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
 Qabrlarda halovat!
 «Faust» yondi gurillab,
 «Xamsa» o‘tga tutashdi.
 Bir sado jahon bo‘ylab
 Taraldi, tog‘lar oshdi.
 Bu sado yangrar hamon,
 Sira ado bo‘lmaydi.
 Olam aytar:
 Hech qachon
 «Ona tilim o‘lmaydi».

Lug‘at

notiq – ораатор

darg‘azab – рассерженный

hayron – удивленный, изумлённый

tabarruk – чтимый, священный

kamalak – радуга



Uyga vazifa.

1. She‘rda keltirilgan buyuk shoirlar haqida ma‘lumot bering.
2. «Ona tilim o‘lmaydi» misrasiga izoh bering.
3. She‘rdagi uyushiq bo‘lakli misralarni topib daftaringizga yozing.

5-mavzu. Kitoblar dunyosi

(Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘zlarning qo‘llanishi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmni kuzating. So‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, kitobxonlik haqida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘zlar: Kitob, yaqin, do‘st, oilamizning, sarguzasht asarlar, sevimli qahramonlar, mashg‘uloti, maktab kutubxonasida, ibrat olaman, jahon adabiyoti, shaxsiy kutubxona, to‘ldirib boraman.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Kitob o‘qishning hikmati

Ko‘plab kitob o‘qish, o‘qiganda ham tushunib o‘qishda hikmat katta. Kitob o‘qishning foydasi haqida ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sinoning hayotidan olingan ushbu lavha diqqatga sazovor.

Aytishlaricha, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxonasi bo‘lgan, ammo unga kirish uchun hammaga ham ruxsat etilmagan ekan. Bir tasodif tufayli Abu Ali ibn Sino o‘sha kutubxonaga kirish va kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi...

Kunlardan bir kuni amir kasal bo‘lib qoladi. Saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Buxoro tabiblari orasida endigina nom chiqarib kelayotgan Abu Ali ibn Sino haqida gapirib qolishadi. Amir uni saroyga chaqirishlarini buyuradi. Ibn Sino amirni davolaydi. Bundan xursand bo‘lgan amir uni saroy tabiblariga boshliq qilib tayinlaydi va «Tila tilagingni!» deydi. Ibn Sino amirdan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berishini so‘raydi. Amir ruxsat beradi. Shunday qilib, mashhur olim amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.



Lug‘at

foyda – польза, выгода

alloma – ученый

tasodif – случай, случайность

tabib – лекарь

xursand – радостный, весёлый

ruxsat – позволение, разрешение

mashhur olim – знаменитый ученый


◆ Bilib oling!

Uyushiq bo‘laklarining ma’nolarini jamlab, umumlashtirib keladigan so‘z va so‘z birikmalari umumlashtiruvchi so‘z deb ataladi.


Umumlashtiruvchi so‘zlar, odatda, jamlovchi olmoslar va sonlar bilan ifodalana-di va tire yoki ikki nuqta bilan yoziladi.

Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘lakdan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi. *Asrorning ikki o‘rtog‘i*: Diyor va Abror chiqib qoldi.


Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘lakdan keyin kelsa, umumlashtiruvchi so‘zdan oldin tire qo‘yiladi. Uylar, daraxtlar, ko‘chalar – hammasi atrofning qorong‘iligidan ko‘rinmay ketdi.

 **1-mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi umumlashtiruvchi so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.


1. Onam bilan opam – ... (*ikkita, ikki, ikkovlari*) dorixonada ishlaydilar. 2. Sen bilan men – ... (*uchovimiz, ikkovimiz, ikkinchi*) sport musobaqasida ishtirok etar ekanmiz. 3. Bog‘ning turli joylarida har xil ... (*sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar*) nok, o‘rik, olma, jiyda va hokazo anchagina. 4. Samad va O‘rol ... (*ikkovingiz, to‘rtovingiz*) ertaga vaqtli keling. 5. Quyosh, havo, suv ... (*hammasi, birga*) bizning eng qadrlı do‘stimiz.

 **2-mashq.** Nuqtalar o‘rniga uyushiq gap bo‘laklarini qo‘yib yozing. Umumlashtiruvchi so‘zlarnı toping.

1. ... , ... , ... – badiiy asarlar hisoblanadi. 2. O‘zbek yozuvchilaridan: ... , ... , ... asarlarini qiziqib o‘qiyman. 3. ... , ... – barchamiz aziz onajonimizni tabrikladik. 4. Sinfga yangi kelganlar: ... , ... va ... sinf rahbarining oldiga kirishsin. 5. Mu-xarram atirgul yaproqchalaridek: ... , ... , ... qizcha edi. 6. ... , ... , ... – barchasi turkiy xalqlardir. 7. ... , ... , ... – hammasi qorong‘ilik qa‘riga cho‘mdi.

 **Uyga vazifa.** O‘qigan kitoblaringiz ro‘yxatini tuzing va eng sevimli asaringiz haqida so‘zlab bering.

2-dars

 **3-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

Kutubxonadagi uchrashuv

Saidkamol: Kutubxonaga qachon kelding?

Doniyor: Men hozir keldim, sen ham shu kutubxonaga a‘zomisan?

Saidkamol: Ha, men ham shu kutubxonaga a‘zoman. Senga qanday kitob kerak?

Doniyor: Menga Erkin Vohidovning she‘riy to‘plamlari kerak.

Saidkamol: Menga ham shoirning «So‘z sehri» asari, «O‘zbekim» she‘rlari kerak.

Doniyor: Shoirning «So‘z sehri» asari bir dona ekan. Uni ham men oldim. Agar xohlasang biznikiga yur. Birga o‘qiymiz.

Saidkamol: Men hozir onamga telefon qilib ruxsat so‘ray.

– Allo, assalomu alaykum, onajon. Yaxshi ishlayapsizmi? Agar ruxsat bersangiz, Doniyorning uyiga borib, kitob o‘qimoqchi va dars tayyorlamoqchi edim.

Saidkamolning onasi: – Vaalaykum assalom, Doniyorning onasini taniyman, ularning oilasi yaxshi, tinch. Borib kitob o‘qishing, birga dars qilishing mumkin.

Do‘stlar xursand bo‘lishib, kutubxonadan chiqishdi.

◆◆ **4-topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlar asosida suhbatlashing.

Kitoblar fazilati haqida

Qadimgi arab shoirlaridan biri aytadi: «Gaplari malol kelmaydigan borimizda ham, yo‘g‘imizda ham ishonchli, sadoqatli suhbatdoshlarimiz bor. O‘tgan zamon voqealaridan bilganlarini bizga yetkazadilar. Maslahat, odob va mustahkam iroda ifoda etadilar. Ularda qo‘rqinchli kasallik, xavfli holat yo‘q, barmoqlari bilan ham, mushtumlari bilan ham bizni qo‘rqitmaydilar. Ularni tirik desam, yolg‘onchi bo‘lmayman, jonsiz desam aqlsiz hisoblanaman. Jahonda ulardan yaxshiroq do‘st yo‘q. Kishi yolg‘iz qolsa, ular zerkirtmaydi. Ularda orom boru, ozor yo‘q».



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar. 1. Matn nima haqida?

2. Qanday kitoblarni o‘qigansiz?

3. Kitobga berilgan ta‘riflarni matndan topib o‘qing.

◆ **3-mashq.** Berilgan gaplardagi umumlashtiruvchi so‘zlarni topib, uyushib kelgan so‘zlarni aniqlang.

1. Daraxtlardagi barcha sayroqi qushlar: sa‘va, bulbul, mayna va boshqa qushlar unga jo‘r bo‘ldi. 2. Bog‘da yetilgan olma, anor, uzumlar – hammasidan oldik. 3. Hammasi: olmazor va o‘rikzor, anjirzor va anorzorlar orqada qolmoqda edi. 4. Insonda hamma narsa: yuz, kiyim, qalb go‘zal bo‘lmog‘i lozim. 5. Bog‘imizdagi mevalar: olma, o‘rik, olxo‘rilar mo‘l hosil qildi. 6. To‘rt narsa ko‘ngildagi orzularni ro‘yobga chiqaradi: g‘ayrat, shijoat, matonat, himmat.

◆◆ **5-topshiriq.** Berilgan hikmatlarni o‘qing va mazmuni yuzasidan suhbatlashing. Umumlashtiruvchi so‘zni toping.

1. Kitob – insoniyat to‘plagan hikmatlar xazinasi va bilim manbayi. 2. Kitob – bizning eng sodiq, beminnat do‘stimiz. 3. Kitob – har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. 4. Boyligim, borim kitob, tandagi jonim kitob. 5. Kitob – to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi va eng yaqin maslahatchimiz. 6. Kitobsiz bilim, bilimsiz taraqqiyot yo‘q.

◆ **6-topshiriq.** O‘qing va matn asosida suhbatlashing.

Sevimli kitobim

Mashhurlardan biri «O‘zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnat-dorman», degan ekan.

Men ham kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman. Tarixiy romanlarni o‘qish menga yoqadi. Ulardan buyuk shaxslar hayoti haqida bilib olaman.

Men o‘zbek tilini yaxshi bilaman. Shuning uchun o‘zbek tilida ham kitoblar o‘qiyman. Hozir men Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanini o‘qiyapman. Bu kitob menga juda yoqadi. Unda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati ancha keng yoritib berilgan.

Menga, ayniqsa, uning sadoqatli va irodali ekani yoqadi. Vatanni sevishni undan o‘rganish kerak. Kitobni qo‘limga olsam, hamma narsani unutaman. Uni qo‘ldan qo‘ygim kelmaydi. Uning davomi ham bor – «Avlodlar dovoni». Men bu kitobni ham o‘qib chiqaman.



🏠 **Uyga vazifa.** O‘qigan kitoblaringiz yuzasidan berilgan jadvalni to‘ldiring.

Asarning muallifi va nomi	Asar nima haqida	Asosiy qahramonlar
Oybek. «Bolalik» qissa	Beg‘ubor bolalik, bolalik xotiralari.	Oybekning bolaligi, do‘sti Turg‘un, opasi Karomat.

3-dars



Adabiy o‘qish

Oybek


(1905-1968)

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida bo‘zchi oilasida dunyoga kelgan. Shoir dastlab eski maktabda, so‘ngra «Namuna» maktabida, Navoiy nomidagi ta‘lim va tarbiya texnikumida o‘qidi.

Oybek yoshligini eslab shunday yozgandi: «Yop-yorug‘ oydin kechada uyimizning yassi tomida onam bilan turardim; to‘lishgan oy osmon bo‘ylab suzardi, u menga juda ham go‘zal ko‘rinardi. Men unga qo‘llarimni cho‘zib intilar va «oyi, oyni olib bering», – deb xarxasha qilardim. Bo‘lg‘usi adibning bu so‘zlari kuchli ramziy ma‘noga ega.

Oybek hayotda «Adabiyot osmonida oy» darajasiga ko‘tarildi. O‘rta Osiyo davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o‘qidi. So‘ngra Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomidagi xalq xo‘jaligi institutida o‘qib kelgan. Oybek O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rais, O‘zbekiston Fanlar akademiyasida gumanitar bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Oybek «Tuyg‘ular», «Ko‘ngil naylari» she‘riy to‘plamlari, «Musicha», «Fonarchi ota» hikoyalari, «Navoiy», «Quyosh qoraymas» romanlarini yozgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Fanlar Akademiyasining akademigi bo‘lgan. Oybek 1968-yilda vafot etdi.



Lug‘at

bo‘zchi – ткач

Xalq-xo‘jalik instituti – институт народного хозяйства

Yozuvchilar uyushmasi raisi – председатель союза писателей

O‘zbekiston xalq yozuvchisi – народный писатель Узбекистана

7-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Bolalik

(qissadan parcha)

Turg‘un ikkovimiz shoshilib bozor tomon yuguramiz. Soat o‘n bir o‘n ikki, qirq tiyin pulni belboqqa qattiq tugib olganman. Egnimda uzun yaxtak, boshimda yangi do‘ppi, oyoq yalangman.

Havo bulut, quyosh dam yalt etib bir ko‘rinib qoladi, dam bulutlar ichiga bekinib oladi.

– Kitob juda ham qimmat... – Meni alday boshlaydi Turg‘un. – Olamiz bir mazali narsa... .

– Yo‘q-yo‘q! – deyman darrov uning niyatini payqab. – Kitob yaxshi narsa. Hali qarab tur, unda har bir ajoyib baytlar borki, tushunmaysan, e, qo‘y-yey. – bir zum sukutdan keyin davom etaman: – marojniy shirin narsa-yu, lekin oyimdan qo‘rqaman, pulni Karom opam kitobga bergan.

– Tortisha-tortisha bozorga yetamiz. Bozor qizg‘in. Aravalar, otlar, xachirlar, eshaklar tiqilinch. Nonvoylar serob. Birining boshida savat, birining qo‘lida savat: «jizza non yumshoqqina, barragina...» deya qichqira-qichqira bozor oralab yuradilar.

Turg‘un ikkovimiz ot-aravalar orasidan suqulib, kitob do‘konlariga yetamiz. Kitob rastasi sokin. Ahyon-ahyonda uzun, keng yaktakda kir sallali, soqollari o‘sgan, oriqqina, rangpar biror mullavachchanning kitob varaqlab turgani ko‘rinadi. Jimjit go‘yo butun kitobfurushlar mudroqda deysiz.

Turg‘un ikkovimiz har bir do‘kon oldida to‘xtab, rastani xo‘p aylanamiz. Tomda urishib talashib yurgan kuchuklarga Turg‘unning ko‘zi tushib qoladi:

– E, attang, deydi meni turtib. – biror joy yo‘qmikan tomga chiqishga? Kuchuklar ko‘p ekan, yaxshisini tanlab olib ketardik...

– Amaki, Muqimiy bormi? ...

– Muqimiy bor, – deydi yumshoq tabassum bilan kitobfurush.

– Har xil kitoblarni o‘qiyman, – deyman-da, birdan kulib yuboraman, – qizlarga kerak edi. Muqimiyni yaxshi ko‘rib o‘qiydi qizlar. Yaxshi baytlari bor-da, amaki.

Chol xaxolab kulib yuboradi. Keyin sekin qo‘zg‘alib, pastni, yuqorini kovlash-tiradi. Muqimiy bayozini topib, menga uzatadi.

Avaylab, qo‘limga olaman. Yaxshi ishlangan, chiroyli muqova, kichkina kitob.

Asta varaqlayman, pichirlab, ichimda o‘qiyman.


– Ota, necha pul? – so‘rayman kitobni yopib.

– Yur-e, yomon kitob, bo‘lmaydi, olma! Oshiq-ma’shuqdan boshqa gap yo‘q ichida, – qistaydi meni turtkilab Turg‘un.

– Omisan-da, ma’nosini tushunmaysan. Muqimiy ajoyib shoir. Opam aytgan, topib kel, shu kitobni degan, – jahlim chiqib tushuntiraman Turg‘unga.

Chol ko‘zlarini qisib, kulib qo‘yadi:

– Yaxshi. Ma’nolik narsa. Muqimiyni ko‘rganman. Xushfe‘l, dono odam edi marhum. Muqimiy kattakon shoir. Qo‘qonda turadi u kishi. Bu – shoirning yurak parchasi! Bolam, narxi ikki tanga...



«Karom opam o‘zi ham menga ikki tanga bergan edi, bilar ekan narxini» deyman o‘z-o‘zimga va tangalarni avaylab, belbog‘dan yechib olaman-da, tavoze bilan cholga uzataman.

Kitobni qo‘ltig‘imga tiqaman. Bozordan chiqqandan so‘ng, jar yoqasida birpas o‘tirib, suv ichamiz. Yo‘l-yo‘lakay qovurma baliq, go‘shkuydi, kaboblar har qadamda. Ularning burqiragan hidi juda yaxshi. Ammo chaqa qani?

Hadraga yetib olgandan keyin, qadamni sekinlashtiramiz. Muqimiyni asta, bir-bir varaqlab, ichimda o‘qiy boshlayman.

– Ey, o‘qisang, eshittirib o‘qi-ya, bo‘lmasa qadamingni tezlat, – deydi Turg‘un o‘qrayib.

Men kitobdan ko‘zimni uzmasdan kulaman. Sekin o‘qiy boshlayman:

Surma qo‘ymay muncha ham jono qarodur ko‘zlaring,

Har biri jon qasdiga boqqan balodir ko‘zlaring.

Qumri sarvi qaddu, bulbul gul yuzingning volasi,

Men Muqimiyga hamisha muddaodir ko‘zlaring.

– Xo‘sh, ma’nosini tushundingmi, o‘rtoq? Bu bayt qo‘shiqdek totli, ma’nodor narsa.

– Mengayam qaymoqday yoqadi, lekin baliq qorinni to‘ydiradi. Esing yo‘q, bu baytdan qorning to‘ydimi? Xumpar! – deydi Turg‘un qo‘lini siltab.

Uning gapi qulog‘imga kirmaydi, xayolim kitobda...

Lug‘at

orasidan suqilib – просовываться
между

kitob do‘koni – книжный магазин

rasta – ряд лавок, торговый ряд

ajoyib – удивительный

varaqlamoq – листать

belbog‘ – пояс

jimjit – совершенно тихий

tanga – монета

oyoqyalang – босой

bayoz – сборник стихов

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Oybekning hayoti va ijodi haqida gapiring.
2. «Bolalik» qissasining asosiy qahramoni kim deb o‘ylaysiz?
3. Bosh qahramon nimaga qiziqadi?
4. Bosh qahramonning o‘rnida bo‘lganingizda siz nima qilar edingiz?



Uyga vazifa.

Oybekning «Bolalik» qissasini o‘qing va gapirib bering.

6-mavzu. O‘zbekiston olimlari

(Gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda va qo‘shma gaplar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmni kuzating va so‘zlardan foydalanib suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘zlar: olimlar, bilimga chanqoqlik, ijodkorlik, tibbiyot, fidokorlik, dunyoga tanitmoq, fan-texnika asri.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

O‘zbekistonda fan

O‘zbekiston – ilm-fan va madaniyat qadimdan taraqqiy etgan mamlakatlardan biri. Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to‘qimachilik, me‘morchilik, ma‘dashunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan.

O‘zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosini o‘rgandilar va boyitdilar. O‘zbekistonda hozir ham yuqorida sanab o‘tilgan sohalar rivojlantirilmogda, ularning qatoriga yangilari qo‘shilmogda.

O‘zbekiston olimlari o‘z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shdilar. O‘zbekistonda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyat ko‘rsatmogda. Nukus va Samarqandda O‘zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasining bo‘limlari, Buxoroda ilmiy markazi, Urganchda Xorazm Ma‘mun akademiyasi ochilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oily o‘quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy xodimlar Fanlar akademiyasi tizimida, shuningdek, oily o‘quv yurtlari, xalq ta‘limi tizimida tayyorlanadi.

Hozirgi davrda fan O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch va vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta‘lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalashda alohida o‘rin tutmoqda. Fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, ilmiy yutuqlar natijalarini amaliyotga tezroq joriy etish – hozirgi davr fani uchun muhim vazifalardan biridir.



O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasidan

Lug‘at

meros – наследие

taraqqiy etgan – прогрессирующий

rivojlanmoq – развиваться

yaratmoq – создавать

amaliy tadqiqot – практические исследования

kashfiyot – открытия; изобретения

barkamol – совершенный

qadimdan – издавна, с древних времён

ilmiy tadqiqot – научное исследование

ilmiy markazlar – научные центры

ilmiy kadrlar – научные кадры

◆ Bilib oling!

Gaplar tuzilishi jihatdan ikki xil bo‘ladi va ular o‘zaro grammatik asoslar miqdoriga ko‘ra farqlanadi:

1. Sodda gaplarda bitta ega va kesim munosabati, ya‘ni bitta grammatik asos mavjud bo‘ladi: *Dars boshlandi. Yomg‘ir yog‘madi. Bahor keldi. Ba‘zan sodda gap egasiz, faqat bitta kesimdan iborat bo‘lib, boshqa bo‘laklar shu kesim atrofi-*

ga birlashadi: Bugun Buxorodan ukam bilan uchib keldim.

2. Qo‘shma gaplarda ikki va undan ortiq ega va kesim munosabati, ya’ni grammatik asos mavjud bo‘ladi: Qo‘ng‘iroq chalindi va dars boshlandi.

Qiyoslang:

Bugun havo issiq (**sodda gap**).

Quyosh chiqdi, kunlar isidi (**qo‘shma gap**).



1-mashq. Gaplarni o‘qing. sodda va qo‘shma gaplarni aniqlang.

1. Maftuna kutubxonaga bordi. 2. Bilimli o‘zar – bilimsiz to‘zar. 3. Kecha maktabimizda olimlar bilan uchrashuv bo‘ldi. 4. Dunyo ko‘rgan odam bilan hamsuhbat bo‘lsang, bahri diling ochiladi. 5. Xurshid kitob sotib oldi. 6. Olim bo‘lsang, olam seniki. 7. Zarur kitobni olib keldim. 8. Oy tunda kerak, aql kunda kerak.



2-mashq. Foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni to‘ldirib yozing.

1. Amerikalik tarixchi Sarton XI asrni «Beruniy asri»,– deb
2. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» ... necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli o‘quv yurtlarida o‘qitib kelinmoqda.
3. Ilmsiz inson ... daraxt kabidir.
4. Beruniyning ilm-fanga qiziqishi ... kuchli bo‘lgan.
5. Mirzo Ulug‘bek «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» (Yangi astronomiya jadvallari) jadvalini

Foydalanish uchun so‘zlar: asari, yaratdi, ta’riflaydi, yoshligidanoq, mevasiz.



3-topshiriq. Matnni o‘qing. Sodda gaplarni topib daftaringizga ko‘chiring.

Tilimizning jonkuyari

Taniqli olim. Rustam A‘zamovich Yo‘ldoshev, 1941-yil Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan. Pedagogika fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi. 1968–2003-yillarda T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida ishlagan.

Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar uchun «O‘zbek tili» o‘quv dasturlari, Davlat ta’lim standarti va «O‘zbek tili» darsliklarining, «O‘zbek tilini o‘rganamiz» o‘quv qo‘llanmasining muallifidir. U o‘zbek tili ta’limi metodikasiga oid qo‘llanma, risola va metodik tavsiyalar, ko‘plab ilmiy maqolalar e’lon qilgan.

Ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. Rustam Yo‘ldoshevning o‘zga millat vakillariga til o‘rgatishda, metodist olim sifatida hissasi katta. Hozirgi kunda olimning shogirdlari respublikamizda ta’limni rivojiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.



Uyga vazifa. O‘zbekiston olimlari haqida ma’lumot yozing.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

– Olimlar qanday insonlar?

–

– Qanday olimlar qomusiy olimlar hisoblanadi?

–

– Qomusiy olimlardan kimlarni bilasiz?

–

– O‘zbekiston olimlaridan kimlarni bilasiz?

–



5-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Matematik olim

Toshmuhammad Aliyevich Sarimsoqov 27 yoshida fan doktori, 28 yoshida O‘zbekiston fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi bo‘lgan.

U 1936-yilda Samarqand Davlat universitetining fizika-matematika fakultetini tugatgan va shu fakultetda ishlay boshlagan. Ikkinchi jahon urushi yillarida – 1942-yili doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Yirik matematik olimning o‘nlab ilmiy ishlari O‘rta va Old Osiyo ob-havo jarayonlarini o‘rganishda ehtimollik sxemalarini qo‘llashga qaratilgan. Bu muhim ilmiy tadqiqotlar uchun olimga davlat mukofoti laureati unvoni berilgan. Olim yaratgan o‘nlab yirik tadqiqotlar jahon matematika ilmida alohida qimmatga ega.

Olim ToshDU (O‘zbekiston Milliy universitet) da ko‘p yillar rektor lavozimida ishlagan. U O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining prezidenti, Respublika Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vaziri lavozimlarida ishlagan. T.A. Sarimsoqov mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlariga katta hissa qo‘shgan, uning rahbarligida 60 dan ziyod fan doktori va fan nomzodlari yetishib chiqqan.

◆ Bilib oling!

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra: **yig‘iq gaplar** va **yoyiq gaplarga** bo‘linadi.

Faqat ega va kesimdan tashkil topgan gaplar sodda **yig‘iq gaplar** hisoblanadi. Gap tarkibida ikkinchi darajali bo‘laklar ham ishtirok etsa, yoyiq gaplar hosil bo‘ladi.

Gap mazmunini to‘ldirish, izohlash maqsadida bosh bo‘laklarga bog‘lanuvchi ikkinchi darajali bo‘laklar qo‘shiladi. Bunday gaplar sodda **yoyiq gaplar** deyiladi.

Dildora o‘qidi. – **Yig‘iq gap**; Dildora kitobni kecha o‘qidi. – **Yoyiq gap**.

Turlari	Bo‘linishi	Misollar
Bosh bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra	Yig‘iq (faqat ega va kesimdan iborat) gap	1. Sen yozding. 2. Bukatta yutuq. 3. Dars boshlandi.
Ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra	Yoyiq (ega yoki kesim hamda ikkinchi darajali bo‘laklardan kamida biri qatnashadigan) gap	Anvar sizga aytganmi? 2. Ko‘k pufakdan bitta bering. 3. Hayotingiz haqida qisqa hikoya yozmoqchiman.
Zaruriy bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra	To‘liq gaplar	Ra‘no kitob oldi
	To‘liqsiz gaplar (faqat diologik nutqqa xos)	– Buni sizga kim berdi? – Dilshod.

◆ **3-mashq.** Berilgan so‘zlar ishtirokida sodda yoyiq gaplar tuzing.

Namuna: O‘zbek olimlari dunyoga mashhur.

Olimlar, bilimga chanqoqlik, ijodkorlik, tibbiyot, iqtisodiyot, samarasini ko‘rish, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, izlanmoq, mashaqqatli yo‘l, fidokorlik, dunyoga tanitmoq, fan-texnika asri, ustozlar.

◆ **4-mashq.** Berilgan sodda yig‘iq va yoyiq gaplarga aylantirib yozing.

Masalan: Men bugun rasm chizaman.

1. Kitob o‘qidi. 2. Bilim oldilar. 3. Sinfdozlar uchrashdilar.
4. Akam o‘qiydi. 5. Mehmonlar kelishdi. 6. Insho yozishdi.

Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko‘chiring.

Olim, ilm, muallim so‘zlarining asosi bir so‘zdan – ilm so‘zidan olingan. Ilm o‘rgatuvchi muallim, ilmni chuqur o‘zlashtirgan insonni esa olim deb atashadi. Qaysi jamiyatda ilm ahllari ko‘p bo‘lsa, ilm o‘rganishga ko‘p e‘tibor qaratilsa, shu jamiyat gullab-yashnaydi, ravnoq topadi. Chunki har qanday boylik kamayib boradi, ilm esa ortib boradi.

◆ 6-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini o‘z so‘zingiz bilan so‘zlab bering.

Yetmish til sohibi

Bog‘dod xalifasi Horun ar-Rashid she‘riyatni yaxshi ko‘rar edi. Bir kuni odatga ko‘ra saroyga olimlar va ijodkorlarni yig‘ibdi. Bu yig‘inga, to‘rga o‘tirib, sulton Saif al-Davlat rahbarlik qilibdi. Uning oldiga xabarchi kelib, saroyga Abu Nasr Forobiy kelganinini aytibdi.

– «Uning ismi menga tanish, donishmandni olib kiringlar», – deb buyuribdi sulton.

Abu Nasr Forobiy kirib, ta‘zim qilmaganidan yig‘ilganlarning hammasi hayratda qolibdi.

– «Marhamat, o‘tiring», – deb taklif qilibdi sulton.

– «Sultonim, men qayerga o‘tiray?» – deb so‘rabdi Forobiy.

– «Bu yerda hamma o‘ziga munosib deb bilgan joyga o‘tiradi», – deb javob beribdi sulton.

Abu Nasr Forobiy sultonga yaqin kelib, surilishini iltimos qilibdi. Sulton mehmoniga joy berib, bezovtalangan soqchilarini tinchlantirib, ularga saroyning maxfiy tilida:

– «Agar u haqiqatdan ham ulug‘ donishmand bo‘lsa, biz uni kechiramiz, agar unday bo‘lmasa, u jazosini tortadi, sabr qilinglar», – debdi. Abu Nasr Forobiy, jilmayib, shu mahfiy tilda:

– «Sultonim, to‘g‘ri aytdingiz, sabr har doim donishmand va hukmdorlarga xos», – deb javob beribdi.

– «Bu mahfiy tilni qayerdan bilasiz?» – hayron qolib so‘rabdi sulton.

– «Men yetmush tilni bilaman», deb javob beribdi Abu Nasr Forobiy.

– «So‘zlarning qadr-qimmatini biladigan ustoz, unda bu yig‘inga Siz rahbarlik qiling!» – debdi sulton Saif al-Davlat.


(<http://e-historu.kz.ru.>)

Uyga vazifa.

«Yetmish til sohibi» matnidan foydalanib gaplarni toʻldirib yozing.

1. Bir kuni odatga koʻra saroyga _____ yigʻibdi.
2. – « _____ oʻziga munosib deb bilgan joyga oʻtiradi», – deb javob beribdi sulton.
3. Abu Nasr Forobiy sultonga yaqin kelib, _____ qilibdi.
4. – «Sultonim, toʻgʻri aytdingiz, sabr har doim _____ xos», – deb javob beribdi.

3-dars

 **5-mashq.** Berilgan namuna asosida yigʻiq gaplarni yoyiq gapga aylantirib daftaringizga koʻchiring.

Namuna: Yoʻllar kengaydi. – Shahrimizning yoʻllari yanada kengaydi.

1. Shahrimiz goʻzallashdi. 2. Sevindim. 3. Islohotlar boshlandi. 4. Tanlov yakunlandi. 5. Intilamiz. 6. Havo oʻzgardi. 7. Yutuqlarimiz koʻp. 8. Qatnashasizmi? 9. Biz oʻrganamiz.



7-topshiriq. Suhbat matnini rollarga boʻlib oʻqing.

Shohista: Salom, Raʼno, sogʻligʻing yaxshimi?

Raʼno: Salom, Shohista, rahmat, yaxshiman. Oʻzing yaxshimisan?

Shohista: Men ham yaxshiman. Kuzgi taʼtilni qanday oʻtkazding?

Raʼno: Men buyuk olimlarning hayoti haqida kitoblar oʻqidim. Oʻzing-chi?

Shohista: Menga ham shu kabi kitoblar juda yoqadi. Qaysi olimlarning hayoti bilan tanishding.

Raʼno: Men kutubxonadan Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Fargʻoniyalar haqida yozilgan kitoblarni olib oʻqidim.

Shohista: Toʻgʻri qilasan, kitoblarni oʻqi. Kitoblardan olgan xulosangni menga aytarsan.

Raʼno: Albatta, aytaman. Uchrashguncha xayr sogʻ boʻl.

Shohista: Uchrashguncha, sogʻ boʻl. Xayr.



Adabiy o‘qish



8-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Birinchi arxeolog

Yahyo G‘ulomov 1908-yilda Toshkentda tug‘ildi. U avval «Namuna» internatida, so‘ngra shahardagi erlar bilim yurtida ta‘lim oldi. Samarqand davlat pedagogika akademiyasini tamomladi.

Mashhur olim dastlab Toshkent pedagogika texnikumida dars berdi. Keyinroq O‘zbekiston qadimgi davr va san‘at yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasida ilmiy xodim, ilmiy kotib, O‘zbekiston fanlar akademiyasi tarix, til va adabiyot instituti bo‘lim mudiri, tarix va arxeologiya instituti direktori sifatida faoliyat yuritdi.



1937–1949-yillarda Y. G‘ulomov Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasida tadqiqotlar olib bordi. «Xorazmning sug‘orilish tarixi» asarini yaratdi.

Olim ikki jildlik «O‘zbekiston tarix» kitobini yaratishda ishtirok etdi.

O‘zbekiston fanlar akademiyasi haqiqiy a‘zosi, tarix fanlari doktori, xizmat ko‘rsatgan fan arbobi o‘zining qirq yillik ilmiy faoliyati davomida ko‘plab

ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qildi, ilmiy xodimlarni tarbiyaladi.

O‘zbekistonda arxeologiya rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olim 1977-yilda vafot etdi. Uning ishlarini shogirdlari davom ettirib kelmoqdalar.



9-topshiriq. Matinni o‘qing, ona tilingizga tarjima qiling.

Ulug‘ zotlar bog‘i

Sulton Mahmudning juda ham go‘zal bog‘i bor edi. Bu bog‘ boshqa hamma bog‘lardan afzal edi. Bir kuni bog‘da Sulton Mahmud otasi sharafiga katta ziyofat berdi. Ziyofatdan keyin o‘g‘li otasidan:

– Aziz otam, mening bog‘im haqida nima deysiz, sizga ma‘qul tushdimi? – deb so‘radi. Otasi shunday deb javob berdi: – Ey ko‘zimning nuri o‘g‘lim. Bog‘ing juda ham zebo va dilkusho bog‘dir, ammo boyligi bor har bir kishi bunday go‘zal bog‘ni bunyod qila oladi, lekin sen ko‘plarga muyassar bo‘lmagan bir antiqa bog‘ni vujudga keltirginki, uning mevasidek meva hech qayerda topilmasin.

– U bog‘ qanday bog‘ ekan? – deb so‘radi Sulton Mahmud. Otasi javob berdi:

– U bog‘ olim-fozillar, adib-shoirilar, donishmandlar va boshqa axloqli, tarbiyali, ulug‘ zotlar suhbatidir. Shu ulug‘ zotlardan tarbiya topib, yaxshi ishlarni amalga oshirish uning daraxti bo‘lib, mevasi yaxshi nomga ega bo‘lishdir, – deb javob berdi otasi.



«Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»dan

Lug‘at

afzal – преимущественный, лучший

ziyofat – пир

ko‘zimning nuri – свет моих очей

bunyod qilingan – возведённый

antiqa – редкий, дивный

ulug‘ zot – великая личность



Uyga vazifa.

O‘zbek olimlari haqida ma‘lumot yozing.

7-mavzu. Iqtidor va mehnat

(Qo‘shma gap, ularning turlari. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmdan olgan taassurotlaringiz va berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib o‘zaro suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: iqtidor, iste‘dod, qobiliyat, tinimsiz mehnat, ishtiyoq, tirishqoqlik, samarasini ko‘rish, maqsadga erishish.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va munosabatingizni bildiring.

Zehn va iqtidor

Zehn va iqtidor bilimlarni egallashdagi eng muhim xislatlardir. Inson umrining 18 yoshidan 25 yoshgacha bo‘lgan davri uning eng ziyraklik davri, 30 yoshidan 39 yoshgacha ijodiy iqtidorning barq urgan davri hisoblanar ekan. Buyuk allomamiz Abu Ali ibn Sinoning o‘z tarjimayi holida: «Men biror kecha oxirigacha uxlamas, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug‘ullanmas edim», deb qayd etilgan. Kishi katta bo‘lgani sari oqil, tajribali, ilmga beriluvchan bo‘lib borar ekan. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlarning ko‘pchiligi o‘z kashfiyotlarini 30 yoshdan keyin yaratganlar.

Lug‘at

sazovor bo‘lmoq – заслуживать

zehn – разум, рассудок

iqtidor – сила, могущество

ziyrak – чуткий

ijod – творчество


◆ Bilib oling!

Qo‘shma gaplarni tashkil etuvchi sodda gaplar uning qismlari sanaladi. Ular grammatik jihatdan quyidagi bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi: teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar; bog‘lovchi vazifasida qo‘llanuvchi *bo‘lsa, esa, deb* so‘zlari; *-sa* shart mayli qo‘shimchasi;

Qismlarining qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanishiga ko‘ra qo‘shma gaplar 3 xil turga bo‘linadi: *bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashgan qo‘shma gaplar, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.*


Qo‘shma gapning turlari

Turlari	Xususiyati	Misollar
Bog‘langan qo‘shma gaplar	Qismlari teng bog‘lovchilar, bo‘lsa, esa so‘zlari, <i>-u(yu), -da</i> yuklamalari yordamida bog‘lanadi	Havo bulut bo‘ldi-yu, ammo yomg‘ir yog‘madi.
Ergashgan qo‘shma gaplar	Qismlari ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki shunday bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida bog‘lanadi	Betob bo‘lib qoldim, shuning uchun mashg‘ulotga bormayman.
Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar	Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, maxsus bog‘lovchi vositalarisiz, faqat ohang yordamida bog‘lanadi.	Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga o‘ynaymiz.

 **1-mashq.** Gaplarni o‘qing. Qo‘shma gapning turlariga ajratib, jadvalni to‘ldiring.

Dars boshlandi, biroq o‘quvchilarning shovqini tinchimadi. Qayerda suv serob bo‘lsa, u yerda o‘simliklar ham serob bo‘ladi. Shunday kitoblar keltirginki, hamma sevib o‘qisin. Kuz fasli kelgan bo‘lsa-da, kunlar hali issiq edi. Kech tushdi, yomg‘ir yog‘a boshladi, shimoldan vaqti-vaqti bilan shamol esardi. Qo‘ng‘iroq chalindi, dars boshlandi. Goh quyosh charaqlab ko‘rinadi, goh yomg‘ir yog‘adi.

Bog‘langan qo‘shma gaplar	Ergashgan qo‘shma gaplar	Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar


 **2-mashq.** Berilgan qo‘shma gaplarning turlarini va o‘zaro bog‘lovchi vositalarini aniqlang.

1. Tong otdi, osmon yorishdi. 2. Dugonalar allamahalgacha gaplashib o‘tirishdi, ammo ertalab ikkovi ham barvaqt turishdi. 3. Ko‘chalar odamlar bilan gavjum, hamma ishga, o‘qishga shoshadi. 4. Kimki bo‘lsa dilozor, undan el-yurt bezor. 5. Goh biz ularnikiga boramiz, goho ular biznikiga kelishadi. 6. Mahkam bog‘lang mehnatga bel, chunki mehnat bilan yashnaydi el. 7. Ilm bitmas-tuganmas xazina, biroq uni qancha ko‘p odam egallasa ham kamaymaydi.

 **Uyga vazifa.**

Maktabingizdagi iste’dodli o‘quvchilar haqida ma’lumot yozing.

2-dars ---

 **3-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

O‘quvchi: Mumkinmi, savol bersam? Iqtidor nima?

O‘qituvchi: Har bir insonda iqtidor bor. Bu tinimsiz mehnatning mahsuli. Qiziqishlaringga ko‘ra to‘g‘ri yo‘lni tanlaysan, o‘qiysan. To‘xtamay, mashg‘ulotlarga qatnashasan. Shu harakatlaring natijasida yutuqlarga erishasan.


O‘quvchi: Men kech qolmadimmi? Nimadan boshlay?

O‘qituvchi: Bilim va hunarni yoshlikdan o‘rganish kerak. Buning kechi yo‘q. Ota-onangning maslahatlarini, ustozlarning sabog‘ini olgin. Ular kutgan darajadan ortig‘ini bajargin. Shunda natija bo‘ladi.

O‘quvchi: Rahmat, ustoz.

O‘qituvchi: Men senga ishonaman, bir kun kelib, albatta, katta olim bo‘lasan. Faqat xalqimizning «Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin», – degan naqlini unutma.

O‘quvchi: Menga bildirgan ishonchingiz, bergan bilimingiz uchun rahmat.

 **4-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Intilganga tole yor

Har bir inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi kerak. Bu maqsad kishi irodasini tarbiyalashga yordam beradi. Sizning o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadingiz, avvalo, maktabni muvaffaqiyatli tugatishdir. Buning uchun har bir darsga puxta

tayyorgarlik ko‘rishingiz, fikringizni chalg‘itadigan narsalardan voz kecha olishingiz kerak. Agar shunday qila olsangiz, irodangiz ham mustahkamlanadi, jasoratli bo‘lib yetishasiz, maqsadga ham yetasiz. Siz uchun yana bir narsa – o‘z qiziqishlaringizni aniqlab olish juda muhim. Bu sizga kelajak yo‘lingizni to‘g‘ri tanlab olishingizga yordam beradi. Kimki o‘z sevgan kasbini egallash uchun as-toydil o‘qib-o‘rgansa, kelajak hayotda o‘z o‘rnini topishi oson bo‘ladi. Demak, intilganga tole yor bo‘ladi.

Yuqoridagi so‘zlarimiz dalili sifatida siz bilan o‘z maqsadlari sari olg‘a intilib yuqori cho‘qqilarni zabt etgan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi haqiqiy a‘zosi (akademigi) geolog olim, davlat va jamoat arbobi Habib Muhamedovich Abdullayevning hayot yo‘li bilan tanishamiz. Habib Abdullayev – geologiya-minerologiya fanlari doktori, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

U 1912-yilning 31-avgustida tug‘ilgan. O‘rta Osiyo Industriya institutining konchilik fakultetini tamomlagan. Moskva geologiya-razvedka instituti aspiranturasida o‘qigan. Shu institutning foydali qazilmalar kafedrasida assistent, O‘rta Osiyo Industrial instituti tog‘ fakultetidagi foydali qazilmalar kafedrasida dotsent, shu institutning direktori lavozomlarida ishlagan.

O‘zbekiston Vazirlar kengashi raisining o‘rinbosari, O‘zbekiston fanlar akademiyasi prezidenti sifatida faoliyat yuritgan.

Habib Abdullayev endogen ruda hosil bo‘lishi nazariyasi ustida ish olib bordi. Olim birinchi bo‘lib O‘rta Osiyoni alohida metogenik zona sifatida ajratdi. Uning tadqiqotlari O‘zbekiston geologiya fani rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

Hozirda ham ulardan foydalanib kelinmoqda. Habib Muhamedovich o‘zining betinim izlanishlari, mashaqqatli mehnati, yuzga yaqin shogirdlarning mehribon ustozlari sifatida iqtidori va mehnati bilan O‘zbekiston ilm-fanining rivojiga katta hissa qo‘shgan olimdir.


Bir necha xorijiy geologiya jamiyatlari a‘zosi H. Abdullayev 1962-yilda vafot etdi.




Lugʻat**iroda** – воля**tarbiyalamoq** – воспитывать**tayyorlanmoq** – готовиться**chalʻitmoq** – отвлекать**mustahkamlamoq** – крепить,

укреплять

qiziqish – интерес, увлечение**oʻz oʻrnini topmoq** – найти свое место**intilmoq** – стремиться

 **3-mashq.** Gapnlarni oʻqing. Sodda va qoʻshma gapnlarni aniqlang, bogʻlanish vositalarini tushuntiring.

1. Ijodkor oʻquvchilar toʻgaragiga bordim. 2. Poyezd goh kimsasiz dashtlardan, goh shaharchalar va qishloqlar yaqinidan, goho esa togʻlar oraliqlaridan yeldek uchib borardi. 3. Baʼzan biz navbatchilik qilamiz, baʼzan boshqa sinf oʻquvchilari navbatchi boʻlib qoladilar. 4. Yoki bogʻdagi ishlarni bajaring, yoki uy yumushlarini qiling. 5. Oyim ishga ketganlarida, biz bilan yoki opam, yoki xolam oʻtirib turar edilar. 6. Uzoqdan dam qizlarning kulgilari eshitiladi, dam qoʻshiq yangraydi. 6. Iqtidorli oʻquvchilar tanlovi oʻtkazildi.

 **4-mashq.** Berilgan soʻz va soʻz birikmalari ishtirokida qoʻshma gaplar tuzing.

Iqtidor, isteʼdod, qobiliyat, tinimsiz mehnat, ishtiyoq, tirishqoqlik, samarasini koʻrish, maqsadga erishmoq, harakat qilmoq, natijaga erishmoq.

Namuna: Iqtidorli oʻquvchilar olimpiadasi oʻtkaziladi, shuning uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga koʻchiring.

Isteʼdodli va iqtidorli oʻquvchilari koʻp boʻlgan yurt boy yurt hisoblanadi.

Oʻz kasb-hunarini sevgan, isteʼdodli, ishchan kishi, baxt-saodatga erishadi.

Iqtidor alohida olganda osh tuzidan ham arzon. Muvaffaqiyatga erishgan inson bilan iqtidorli inson oʻrtasidagi yagona farq – mashaqqatli mehnatda.

(Stiven King)



Uyga vazifa. Berilgan hikmatga fikringizni yozma ravishda bildiring.

Aflotun aytadi:

– Men fidokorona qilingan mehnatdan hosil boʻladigan rohatni hech narsada koʻrmdim. Chunki tanamning salomatligi, ruhimning saodatini mehnatda topdim. Shuning uchun mehnat – saodatning oʻzginasi deyman.

3-dars

Adabiy o‘qish

◆◆ 5-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Ishning ko‘zi

Mahallamizda Mashrabxon ota ismli nuroniy oqsoqol yashardi. Yoshi yuzga borib qolsa ham bozor-o‘charga o‘zi qatnar, bir xurmacha qimiz ola kelishni unutmasdi. Kunlardan bir kun u bozordan qilgan xaridlarini ko‘tarib o‘z uyiga kirarkan, xang-mang bo‘ldi, hayronlikdan xurma-chasi qo‘lidan tushib chil-chil sindi...

– Nima qiliq bu, nima qilyapsizlar? – dedi u chinnidey hovlisining o‘rtasini kavlayotgan mardikorlarning yoniga borib.

– Hovuz qilyapmiz, – dedi ularning biri. – O‘g‘lingiz buyurdi.

– «Bas qilinglar!» – deb buyurdi-da, Mashrabxon ota ularni mehmonxonasiga taklif qildi va bir choynak choydan keyin bo‘y pulini sanab berib mardikorlarni jo‘natib yubordi. Mardikorlardan xabar olgani kelgan o‘g‘li Fayzixon ham darvozasi oldida xang-mang bo‘lib qoldi... Dada!... – degancha ichkariga yugurdi.

– Nima bo‘ldi? Mardikorlar qani?

– Haqqini berib jo‘natvordim.

– Nega?

– Ishning ko‘zini bilmaganing uchun.

– Bironta ishim yoqmaydi sizga. «Ishning ko‘zini bilmaysan» deganingiz degan. Ishning ko‘zi qanaqa bo‘ladi? ... Uni biron kimsa ko‘rganmi o‘zi?

Otasi o‘g‘liga hech so‘z qotmadi, ammo ishning ko‘zini amalda ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Ertalab mardikor bozorida g‘isht quyishga ikki yigitni boshlab keldi, yo‘l-yo‘lakay bir xurmacha qimiz olib kelishni unutmadi.

– G‘ishtni mana shu turpoqdan quyasizlar. – dedi u g‘ishtchilarga hovlida sochilib yotgan tuproqni ko‘rsatib. – Bular tamom bo‘lgach, tuproqni shu chuqurlikdan kavlab olasiz. Aytib qo‘yay, chuqurlikning bo‘yi uch metr, eni ikki metr ...tekis va soz bo‘lsin. Quyilgan g‘ishtni ko‘chadagi yo‘lakchaga terasiz.

G‘isht quyuvchi mardikorlar ikki kunda uch metrlik chuqurlikdan uch mingta xom g‘isht quydilar... hovlida hovuz qurildi, tuprog‘idan quyilgan xom g‘ishtni qo‘shnilar naqd pulga sotib oldilar.

Ertasiga otasi odatdagiday xurmacha ko‘tarib qimiz bozoriga yo‘l olgandan

keyin o'g'li hovliga chiqdi. Top-toza hovli, tayyor hovuzga qarab o'ylanib qoldi. Qiziq, shuncha ish tekinga tushdi... yana yuz ellik so'm sof foyda...

Qimiz ko'tarib bozordan qaytgan otasi o'g'lini hovlidagi yangi qazilgan hovuz oldida uchratib, xurmachasini yerga qo'ydi-da, o'g'lining oldiga keldi.

– Hovuzcha qalay bo'пти?

– Aytganimdan ziyoda bo'пти, dada. Qizig'i shundaki, shuncha ishni tekinga tushirdingiz. Pulimiz yonimizda qoldi.

– Sezganlaring shu xolosmi?

– Boshqa tomonlarini ham sezib turibman. Bir kesak bilan ikki quyonni urdingiz. Hovuzdan chiqqan tuproq g'ishtidan qo'shimcha yuz ellik so'm sof foyda oldingiz...

Otaxon xulosa chiqarganday, o'g'liga dedi:

– Xali ham nodon ekansan, eng asosiy mulkni ko'rmayapsan. Men senga ishning ko'zini ko'rsatdim. Sen ko'r-ko'rona ish qilayotgan eding. Bir ishni uch ish qilarding. Mardikoring hovlini turpoqqa bostirardi. Keyin mardikor solib ko'chaga tashitarding. So'ngra mashina kira qilib ko'chadan oldirarding. Hammasi ovoragarchilik, hammasi pulga tushardi. Yaxshiroq qara. Ishning ko'zi esa mana bu!

Ibrohim Rahim

Lug'at

ishning ko'zi – суть дела

ismli – по имени

ola kelmoq – принести с собой

ovoragarchilik – хлопоты

sinmoq – разбиться вдребезги

qiliq – выходка

chinniday – чисто, опрятно

mardikor – подёнщик, чернорабочий

hovuz – хауз, пруд

ko'r-ko'rona – вслепую

bas qilinglar – прекратите

bo'y puli – задаток

tuproq – земля; глина (сухая)

yuz bermoq – произойти

g'isht quymoq – формировать кирпичи

yo'l-yo'lakay – попутно

xom – сырой

naqd – наличный

sof foyda – чистый прибыль

ziyoda – превыше

xolos – только, и только

nodon – глупый

mulk – имущество, достояние

haq(i) – что полагается, причитается; плата за наем

xurmacha – горшочек для сквашивания молока



5-mashq. «Ishning ko‘zi» matnidan foydalanib nuqtalar o‘rni to‘ldiring.

– Aytganimdan ... bo‘pti, dada. Qizig‘i shundaki, shuncha ishni ... tushirdingiz. Pulimiz yonimizda qoldi.

– Sezganlaring shu xolosmi?

– Boshqa tomonlarini ham ... turibman. Bir kesak bilan urdingiz. Hovuzdan chiqqan tuproq g‘ishtidan qo‘shimcha yuz ellik so‘m sof foyda oldingiz... .

Otaxon xulosa chiqarganday, o‘g‘liga dedi:

– Xali ham ... ekansan, eng asosiy mulkni ko‘rmayapsan. Men senga ko‘rsatdim. Sen ... – ... ish qilayotgan eding. Bir ishni uch ish qilarding. Mardikor ring hovlini ... bostirardi. Keyin mardikor solib ... tashitarding. So‘ngra mashina kira qilib ko‘chadan oldirarding. Hammasi ..., hammasi pulga tushardi. Yaxshiroq qara. Ishning ko‘zi esa !



Uyga vazifa.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Iqtidorli o‘quvchilar uchun davlatimiz tomonidan qanday sharoitlar yaratilmoqda? (6,7 gapdan iborat matn tuzing).

2. Qismlarining qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanishiga ko‘ra qo‘shma gaplar necha turga bo‘linadi?

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapga misol yozing.

4. Iqtidor deganda nimani tushinasiz?

8-mavzu. Men yoqtirgan gazeta

(Bog‘langan qo‘shma gaplar. Biriktiruv, zidlov va ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib respublikamizda nashr etiladigan gazetalar haqida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: ommaviy axborot vositalari, matbuot, gazeta, jurnal, maqola, muhbir, xabarlar, internet.



2-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

- Sen bo‘sh vaqtingni qanday o‘tkazasan?
- Mening bo‘sh vaqtim juda kam. Biroq undan unumli foydalanishga harakat qilaman. Men matbuotda chiqqan jurnal va gazetalarni o‘qishni yaxshi ko‘raman.
- Qanday gazeta va jurnallarni sevib o‘qiysan?
- Hozir «Tong yulduzi» gazetasi, «Yosh kuch» jurnallarini o‘qimoqdaman.

– Qiziqarli bo‘lsa kerak, o‘qib bo‘lgach menga ham berib turasanmi?

– Albatta.


◆◆ Bilib oling!

O‘zaro teng bog‘lovchilar yordamida bog‘langan sodda gaplar **bog‘langan qo‘shma gaplar** deyiladi. Ular biriktiruv, zidlov, ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi. **Biriktiruv bog‘lovchili qo‘shma gaplar** tarkibidagi sodda gaplar *va, hamda* bog‘lovchilari, *-u (-yu), -da* yuklamalari yordamida bog‘lanadi. Bunday qo‘shma gaplar bir paytda yoki ketma-ket ro‘y bergan voqea-hodisalarni ifodalaydi.


Masalan: Bahor keldi va gullar ochildi.

Zidlov bog‘lovchili qo‘shma gaplar bir-biriga zid voqea-hodisalarni ifodalaydi *hamda, ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilari bilan bog‘lanadi. Yozuvda bunday bog‘lovchilar oldidan vergul qo‘yiladi.

Masalan: Quyosh chiqdi, *biroq* kun hali sovuq edi.

 **1-mashq.** Gaplarni o‘qing. Biriktiruv va zidlov bog‘lovchili qo‘shma gaplarni aniqlab, bog‘lovchi vositalarini ko‘rsating.

1. Bolalar uy-uylariga tarqalishdi va hammayoq tinchib qoldi. 2. Bu yil gilos ko‘p hosil berdi, biroq mevalari maydaroq bo‘lib qoldi. 3. Hammasini tinglardim, ammo o‘xshashini topmasdim aslo. 4. Kitoblarni birma-bir varaqlab chiqdi-yu, yana javonga terib qo‘ydi. 5. Bir gapni sizga aytmoqchiman, lekin hafa bo‘lmaysiz. 6. Avtobus bekatda yo‘lovchilarni tushirdi-da, orqasiga qaytib ketdi. 7. Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak.

 **2-mashq.** Nuqtalar o‘rniga mos bog‘lovchilar va tinish belgilarni qo‘yib yozing. Gaplarning turini ayting.

1. Quyosh chiqdi ... borliq nurga to‘ldi. 2. Hovlida chiroqlar yoqilgan ... uyda hech kim ko‘rinmasdi. 3. Kuchli shamol daraxtlarni qattiq chayqatdi ... mevalar to‘kilib yer bilan bitta bo‘ldi. 4. Yurtimizning buguni chiroyli ertasi ... undan ham go‘zal bo‘ladi. 5. Quyosh yarq etib bir ko‘rindi ... yana bulut orasiga kirib ketdi. 6. Daryo suvi juda sayoz ... juda tez oqar edi. 7. Yaxshilik obro‘ keltiradi yomonlik ... kulfatga duchor qiladi.

Bilasizmi?

«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining birinchi soni 1956-yil 4-yanvar – chorshanba kuni dunyo yuzini ko‘rgan. O‘zbek madaniyatining darg‘alari Qori Niyoziy, Komil Yashin, hind adibi Krishan Chandr oq yo‘l tilagan ilk sahifalarda ustoz adiblar – Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Rahmat Fayziy; teatr san’ati namoyandalari – Abror Xidoyatov, Olim Xo‘jayev va boshqalarining badiiy va publisistik asarlari e‘lon qilingan.

She‘riyat, nasr, adabiyotshunoslik, san‘at, ijtimoiy hayot va madaniyat sohasidagi yangiliklar, badiiy yuksak asarlar va adabiy qarashlarni o‘zida aks ettirgan haftalik hamon ijodkorlar, ziyolilar hamda keng gazetxonlar ommasining sevimli nashri bo‘lib kelmoqda.

◆ 3-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzing. Tarjima qiling.

Sevimli gazetam

Yaqinda maktabimizga yangi gazeta olib kelishdi. Uning nomi «Sayxun ziyosi». U Sirdaryo viloyati Baxt shahrida nashr etiladi. Gazeta tez orada o‘z muxlislarini topdi. Undagi qator ruknlar bizga ma‘qul keldi. Ayniqsa, «Kompyuter olamiga sayohat» rukni menga yoqdi. U kompyuterni o‘rganishda tengdoshlarimga yordam bo‘lishi shubhasiz. Yana gazetada «She‘riyat shaydolari» nomi bilan o‘quvchi – yoshlar she‘rlari nashr etiladi. Yosh ijodkorlarning she‘rlari menga yoqadi. Yana turli boshqotirmalar, latifalar beriladi. Gazeta yaxshi dam olishimizga bizga ko‘makchi bo‘lmoqda.



Shuning uchun ham biz unga butun sinfimiz bilan obuna bo‘ldik.

Lug‘at

yaqinda – недавно

tez orada – вскоре

muxlis – поклонник, почитатель

rukn – рубрика

ma‘qul keldi – понравился

shubhasiz – несомненный

ijodkor – творец

boshqotirma – головоломка

ko‘makchi – помощник

butun sinfimiz bilan – всем классом

obuna bo‘ldik – подписались



Uyga vazifa. Yoqtirgan gazetangiz haqida ma‘lumot yozing.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing.

O‘quvchi: Assalomu alaykum, kechirasiz, sizga savollarim bor edi.

Muxbir: Vaalaykum assalom, bemaolol, savollaringizni berishingiz mumkin.

O‘quvchi: Sinf rahbarimiz gazeta va jurnallarga obuna bo‘lishimiz kerakligini aytdilar. Qaysi gazetaga obuna bo‘lsam ekan? Maslahat bersangiz.

Muxbir: Yoshlar uchun gazeta va jurnallar ko‘p. Sizga «Bolalar dunyosi», «Tong yulduzi», «Gulxan» kabi gazeta va jurnallarmizni tavsiya etaman. Ularda bolalar uchun yangiliklar va yosh ijodkorlarning ijodlaridan namunalar ko‘p bo‘ladi. Agar jahon adabiyotining eng sara asarlari bilan tanishib borishni istasangiz «Jahon adabiyoti» jurnaliga obuna bo‘lishingiz mumkin.

O‘quvchi: Maslahatingiz uchun rahmat. Menga katta yordam berdingiz.

Muxbir: O‘zingizga yoqqan gazeta va jurnallarga obuna bo‘lishingizga ishonaman.



5-topshiriq. Matni o‘qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Men sevgan jurnal

Ijtimoiy-siyosiy va badiiy bezakli jurnal «Guliston» mamlakatimizdagi mashhur nashrlardan biridir. Uning dastlabki soni 1925-yilda «Yer yuzi» nomi bilan nashr etilgan. Turli yillarda unga Ibrohim Rahim, Asqad Muxtor, Mirmuh-sin, Tilab Mahmudov, Azim Suyun, Minhojiddin Mirzo kabi taniqli ijodkorlar muharrirlik qilgan. Jurnalda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari atoqli adiblarning badiiy asarlari, ilmiy-publitsistik maqolalari chiqib turgan. Ayniqsa, o‘tgan asrning 70-yillarida «Guliston»da sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari», Rasul Gamzatovning «Mening Dog‘istonim» asarlarining bosilishi uni respublikaning eng nufuzli ommaviy jurnallaridan biriga aylantirgan.

Mustaqillik yillari jurnal uchun yuksalish davri bo‘ldi. Uning sahifalarida madaniyat sohasiga oid materiallar asosiy o‘rin egallaydi. Unda madaniy meros va milliy qadriyatlar, mumtoz adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san‘at va xalq ijodiyoti, madaniy-ma‘rifiy muassasalar va boshqa qardosh xalqlar hayoti haqida qiziqarli maqolalar berib boriladi.

Lug‘at

muharrir – редактор

nufuzli – влиятельный

mashhur – известный

qardosh – брат, приятель

nashr – издание

tasviriy san‘at – изобразительное искусство

xalq ijodiyoti – народное творчество

qiziqarli – интересный

◆ Bilib oling!

Ayiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplar voqea-hodisalarning navbatma-navbat yoki ulardan biri sodir bo‘lishini bildiradi va **goh, goho, dam, yo, yoki, ba‘zan, ba‘zi** kabi ayiruv bog‘lovchilari bilan bog‘lanadi. Bunday bog‘lovchilar gapning boshida takrorlanib keladi va takrorlanib qo‘llangan ayiruv bog‘lovchilarining ikkinchisidan oldin vergul qo‘yiladi. Ayiruv bog‘lovchilari yakka qo‘llansa, tinish belgilari qo‘yilmaydi.

Masalan: Uzoqdan **dam** miltiragan chiroqlar ko‘rinar, **dam** yana atrofni qorong‘ilik bosar edi. **Yo** siz keling, **yo** men boray.

◆ **3-mashq.** Berilgan gaplarni o‘qing. Ayiruv bog‘lovchilarini topib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

1. Ob-havo goh sovub, goh isib ketar edi. 2. Kechasi dam qor yog‘ib, dam yomg‘ir yog‘ib turdi. 3. Ba‘zan ashula yangrar, ba‘zan allaqayerdan dutorning tovushi eshitalardi. 4. Yo u va‘dasida tursin, yo ishni bizga bersin. 5. Sen bilan gaplashishga na vaqtim bor, na kayfiyatim! 6. Bular qishloq bolalarimi, yo shahar bolalari ajratib bo‘lmaydi. 7. Yo sen fikringdan qaytasan, yo u.

◆ **4-mashq.** Gaplarni o‘qing. Tinish belgilarini qo‘ying.

1. Zangori ekran orqali muxbir yangi xabarlarni o‘qir ekan dam onam dam otam menga qarab qo‘yardi. 2. Gazeta jurnal haqidagi maqola yozilgan inshoni goh o‘qituvchi goh o‘quvchilar qo‘liga olib o‘qir edi. 3. Yo siz bu gazetaga a‘zo bo‘ling yo men a‘zo bo‘laman. 4. Onam bu voqealarni ba‘zan eslar ba‘zan eslamas edi. 5. Sening o‘zgarib qolganingga yoki internet sabab yoki yangi do‘stlaring. 6. Men uzoqda bo‘lishimga qaramay ba‘zan otam kelib xabar olar edi ba‘zan onam. 7. Kechagi matbuot xodimlari bilan uchrashuvdan keyin u na uyiga sig‘ar edi na ko‘chaga. 8. Na o‘z qadringni bilasan na boshqalarni o‘ylaysan.

Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko‘chiring.

1. Men «O‘zbekiston ovozi», «Turkiston» gazetalariga obuna bo‘ldim. 2. O‘zimning ilk ijod namunalarimni gazeta sahifalarida ko‘rishni istayman. 3. Muxbirlarimiz muhim axborot haqida xabar berdilar. 4. Maktabimizda ba‘zan yosh muxbirlar tanlovi o‘tkaziladi.

◆◆ **6-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering. Tayanch so‘zlarni topib lug‘at tuzing.



Iste‘dodli jurnalist

Sizlarni, ya‘ni yoshlarning tarbiyasida o‘zining ma‘naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan maqolalari, hikoyalari, eshittirishlari bilan yosh ijodkorlarga ustozlik qilayotgan filologiya fanlari nomzodi Hulkar Hamroyeva bilan tanishtirmoqchimiz. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanalining taniqli

ijodkorlaridan biri Hulkar Hamroyeva «Madaniy-ma‘rifiy, badiiy eshittirishlar» muharririyatida katta muharrir lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. U har kuni ikki soat to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatiladigan «Hamroh» ma‘rifiy-musiqiy eshittirishining muallif va boshlovchilaridan biri sifatida elga tanildi. Bu dasturning «Bugunning bolasi», «Navoiy gulshani», «Kitobdan yaxshi hamroh yo‘q» kabi sahifalarida ijod va ilm olamidagi yangiliklar, jamiyatdagi bolalar tarbiyasi va yoshlar ma‘naviyatiga oid dolzarb muammolar ko‘tarildi. Hulkar Hamroyeva «Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi» mavzusida dissertatsiya yoqladi va filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. U bugungi kunda «Bedorlik» va «Ijod zavqi» eshittirishlarini tayyorlaydi. Taniqli jurnalistning «Qizlar uchun ajoyib tuhfa», «Milliy universitet filolog olimlari», «Ozod domla o‘gitlari», «Akademik G‘anijon Abdurahmonov» kabi kitob va monografiyalari nashr etilgan. Iste‘dodli jurnalist Hulkar Hamroyeva hozirgi kunda yosh muhbirlarga ijod yo‘llarida rahbarlik qilmoqda.

🏠 **Uyga vazifa.** Ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklar haqida ma‘lumot yozing.

3-dars



7-topshiriq. Muhibir bilan suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Ijodkorga o‘n savol

Savol: Ijodda aql va his-tuyg‘uning roli haqida fikringiz qanday?

Javob: Nafaqat ijodda, balki hayotda ham aql va his-tuyg‘u birga bo‘lmasa muvozanat buziladi.

Savol: Ilk muhabbat va uning ijodga ta’siri haqida nima deysiz?

Javob: Har bir inson hayotda har xil hodisalarga, dardlarga birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokozo marotaba duch kelishi mumkin. Masalan, adolat va adolatsizlikka, yaxshilik va yomonlikka, shu jumladan, muhabbat dardiga ham, Abu Ali ibn Sino muhabbatni o‘zining «Tib qonunlari» kitobiga mustaqil bir dard sifatida kiritgan....

Savol: Mukammal odamni uchratganmisiz?

Javob: Nazarimda mukammal odamni har kim o‘zi uchun axtarsa yaxshi. Ehtimol men uchun shunday odamlar bordir, ehtimol, ular bilan gaplashgandirman....

Savol: Sizga qaysi o‘zbek san’atkori (yozuvchi, rassom, aktyor, xonanda, sozanda) yoqadi? Nega?

Javob: ... Halima Nosirova, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov va boshqa san’atkorlarimiz ijodini g‘oyat qadrlayman. Ular o‘zbek san’atkori nimalarga qodir ekanligini, xalqimizning ma’naviy yetukligini ancha to‘la namoyish eta olganlar.

Savol: Yosh ijodkorlarga eng qisqa maslahatingiz.

Javob: Yoshlarga halollik tilayman.

(O‘zbekiston qahramoni, shoir Abdulla Oripov bilan suhbatdan parcha)



8-topshiriq. Matnini o‘qing va so‘zlab bering. Savollar tuzing.

Hayot bilan hamqadam

Istiqlol yillarida barcha sohalar qatori ma’naviy sohalarida ham izchil islohotlar amalga oshirildi. Ezgu qadriyatlar tiklandi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy ma’naviy va madaniy merosi qayta o‘rganilmoqda. Yoshlarga o‘rgatilmoqda. Mustaqillik davrida ommaviy axborot vositalarida matbuot sahifalari mazmun jihatidan ancha boyidi. Bugungi kunda matbuotda eng ko‘p yoritilayotgan yo‘nalishlardan biri ma’naviyatdir.

Bugun hamnafas bo‘lib qalam tebratishning vaqti keldi. So‘ngi yillarda yurtimizda ijtimoiy, iqtisodiy, ta‘lim-tarbiya, ilm-fan, sport, ma‘naviyat va boshqa sohalarida beqiyos o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu jarayonlar o‘z vaqtida respublikamiz ommaviy axborot vositalarida izchil yoritib kelinmoqda. Matbuotimizda mamlakatimizning o‘ziga xos solnomasi yaratilmoqda.

Yoshlarimizning dunyoqarashi milliy istiqlol g‘oyalari bilan shakllanishi ong-u tafakkuri, huquqiy va siyosiy madaniyati oshib borishida samarali ta‘lim tizimi bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalarining ham o‘rni beqiyos.



Ilmiy badiiy jurnallarda ma‘naviy jarayonlar taniqli publitsistlar, jamoatchi va maxsus muxbirlar, shuningdek, havoskor jurnalistlar tomonidan o‘ziga xos uslubda mahorat bilan yoritib beriladi.

1993-yildan buyon har yili 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib kelmoqda. Bayram munosabati bilan davlatimiz rahbari yo‘llaydigan o‘z tabrigida milliy jurnalistikamiz sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda galdagi vazifalarga alohida e‘tibor qaratilyapti.

«O‘zbekiston matbuoti» jurnali

Lug‘at

solnoma – летопись

shakllanmoq– формироваться

hamnafas – единогодушный

matbuot – печать, пресса

mahorat – высокое мастерство



Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Bog‘langan qo‘shma gaplarga ta‘rif bering.
2. Biriktiruv, zidlov, ayruv bog‘lovchilardan foydalanib yoshlar haqida matn yozing.

9-mavzu. Qiziqarli ko‘rsatuvlar (Ergashgan qo‘shma gaplar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmni kuzating va berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, qiziqarli ko‘rsatuvlar haqida suhbatlashing.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: radio, televideniye, ta’sirchan, maqola, televizion ko‘rsatuvlar, teledastur, teleloyiha, dolzarb mavzu, muxbir, suxandon, teleboshlovchi, sport sharhlovchisi, siyosiy sharhlovchi, reportaj.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan savollarga javob bering.

Televideniye vatani

Qadimda odamlar uchar gilam va oynai jahonni orzu qilganlar. Samolet va televideniye ana shu orzularni voqelikka aylantirdi. Televideniye yunoncha «tele» – uzoq, «videniye» – ko‘rish so‘zlaridan olingan bo‘lib, uzoq va katta masofadagi harakatni ko‘rsatish va ko‘rish ma’nosini anglatadi. Bugungi kunda televideniye odamlarga ma’naviyat va ma’rifat tarqatish, tarbiya berish, axborot uzatishning bosh manbai hisoblanadi, shuning uchun ommaviy axborot vositalari orasida yetakchi o‘rin tutadi. Televideniye mo‘jizakor kuchi shundaki, u bir joyda turib jahonning istalgan burchagini ko‘rish imkonini beradi.

Ma’lumki, televideniye sohasida dastlabki qadamlar o‘zbekistonlik ixtirochilar B. Grabovskiy va I. Belyanskiylar tomonidan qo‘yilgan va ular 1928-yil «tele-

fot» apparati yordamida harakatlanuvchi tasvir Toshkent shahrida masofaga uzatilgan.

Tramvay trestidan uzatilgan harakatlanuvchi tasvir Toshkent shahri, Baland (Bolo) Masjid ko'chasida yashovchi Mirzamuhamedovlar uyida qabul qilingan. Toshkent televideniye vatani hisoblansa-da, televizion ko'rsatuvlarni efirga uzatish 1956-yil 5-noyabrdan boshlangan va shu yili «Toshkent televideniye studiyasi» tashkil etildi. Hozirgi kunda Toshkent teleminorasi balandligi jihatidan Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. O'zbekiston televideniyesining teledasturlari orqali berilayotgan ko'rsatuvlar jahonning o'ndan ortiq mamlakatiga uzatiladi.



Lug'at

manba – источник

amalga oshirmoq – осуществлять

ko'rsatuv – передача

teledastur – телепрограмма

ommalashmoq – становиться
массовым

teleminora – телевышка

namoyish qiladi – демонстрировать,
показывать


Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Televideniye so'zi nimani anglatadi?
2. Televideniye mo'jizakor kuchi nimada?
3. Nima uchun «Toshkent – televideniye vatani» deb ataladi?
4. O'zbekistonda ilk televizion ko'rsatuvlari qachondan boshlangan?
5. Hozirgi kunda Toshkent televideniyesi qanday salohiyatga ega?


◆ Bilib oling!

Biri ikkinchisi bilan tobe munosabatda bog'langan sodda gaplar ergashgan qo'shma gaplar deyiladi. Bunday gaplar bosh gap va ergash gap qismlaridan tuziladi va quyidagicha bog'lanadi:


1. Bosh **gap** + **ergash gap**: To'g'rilarga ergashing, chunki ular sizni noto'g'ri yo'lga boshlamaydilar.
2. Ergash **gap** + **bosh gap**: Erta eksang, erta o'rasan.

 **1-mashq.** Berilgan qo‘shma gaplarni bosh va ergash gap qismlariga ajrat. Ergash gapning gapdagi o‘rmini ko‘rsating.

1. Odobli bola elga manzur, chunki odob axloqning yuqori ko‘rinishidir. 2. Qish kelganda, qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar. 3. Kim sayohatga boradigan bo‘lsa, ro‘yxatga yozilsin. 4. Hosil mo‘l bo‘lsin deb, daraxtlarni yaxshilab parvarishladik. 5. Qayerda xalollik bo‘lsa, o‘sha yerda baraka bo‘ladi. 6. Kimning bilimi puxta bo‘lsa, albatta, baholari ham yuqori bo‘ladi.

 **2-mashq.** 2-topshiriqda berilgan matndan foydalanib, gaplarni mos ergash gaplar bilan to‘ldiring.

1. Toshkent televideniye vatani hisoblanadi,
2. Bugungi kunda televideniye odamlarga ma’naviyat va ma’rifat tarqatish, tarbiya berish, axborot uzatishning bosh manbai hisoblanadi, ...
3. Televideniye mo‘jizakor kuchi shundaki, ...
4. Dunyoda yuz berayotgan barcha voqealar bilan bizni o‘z uyimizda tanishtiradi, ...

 **3-topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing. Savoll va topshiriqlar ustida ishleng.

Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi

Sen bukun sinfda shod yurak bilan,

Sinov navbatini kutib turasan.

A’lo mamlakatning a’lo farzandi,

Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

Globusda bo‘lgan har kichik nuqta

Millionlab qondoshga vatan, albatta.

Mustasno xalqimiz yashar adabiy,

Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

She’rdir, lirika, balki oddiy til,

Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!

Diplomat bo‘larsan, shu bukun, endi,

Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

Fanlar ko‘p, fanlar bor o‘rganishga kuch:
Yerda yur, suvda suz, osmon uzra uch.
Hammasidan a‘lo barchadan oldin
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

G‘afur G‘ulom

Lug‘at

sinov – испытание

qondosh – кровный

mustasno – исключение

abadiy – вечный

shu bukun – сегодняшний день

uzra – по (предлог)

Savol va topshiriqlar.

1. «A‘lo mamlakatning a‘lo farzandi», deganda kimni tushunasiz?
2. «Hammasidan a‘lo barchadan oldin, bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!» misrasini izohlang.
3. «Sinov navbatini kutib turasan», deganda nimani tushundingiz?



Uyga vazifa. She‘rni yod oling.

2-dars



3-mashq. Qavs ichida berilgan bog‘lovchi vositalardan mosini qo‘ying va sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantirib yozing.

1. Televizorda bolalar uchun ko‘rsatuvlar ko‘p. Ukam ularni sevib tomosha qiladi (*shuning uchun, chunki*).
2. O‘qituvchi xursand bo‘ldi. Uning o‘quvchilari topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishdi (*chunki, shuning uchun, -sa*).
3. Biz xursandmiz. Orzuyimizga yetishish uchun barcha imkoniyatlar bor (*shundan, -ki, shu bois*).
4. Biz hayron qoldik. Siz topshiriqni bajarmadingiz. (*shunga, -ki, chunki*).
5. Biz musobaqada g‘olib bo‘lamiz. Guruhimiz bilan astoydil harakat qilyapmiz (*natijada, shuning uchun*).

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Savollar tuzing

Qiziqarli ko‘rsatuvlar

O‘zbekiston televideniyesi yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda «O‘zbekiston», «Toshkent», «Yoshlar», «Oilaviy», «Mahalla», «Mening yurtim», «Miiliy», «Dunyo bo‘ylab» kabi telekanallar faoliyat olib bormoqda. Har bir telekanal o‘zining qiziqarli ko‘rsatuvlari bilan ajralib turadi. Bu ko‘rsatuvlar o‘zining ma‘nomazmuniga ko‘ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Barkamol insonni shakllantirishda televideniyaning hizmati katta. Qiziqarli ko‘rsatuvlar ko‘p. Har bir ko‘rsatuv o‘ziga xos mazmunga ega. Menga



«O‘zbekiston» telekanali orqali efirga uzatilayotgan «Zakovat» televiktorinasi juda yoqadi. Bu ko‘rsatuv yoshlar tafakkurini boyitib, bilimini oshiradi. Mana necha yildan beri oilamiz bilan bu ko‘rsatuvni tomosha qilamiz. Ko‘rsatuvdagi qiziqarli savol-javoblar tomoshabinni o‘ziga jalb qiladi va izlanishga undaydi. «Zakovat» ko‘rsatuvi orqali men ko‘p narsalarni bilib oldim va bu ko‘rsatuv bilimlarimni muntazam ortib borishiga yordam bermoqda. Bu kabi intellektual ko‘rsatuvlar turli yo‘nalishlarda ko‘payishini istardim.

«O‘zbekiston matbuoti» jurnali

Lug‘at

teleko‘rsatuv – телепередача

takomillashmoq – совершенствоваться

faoliyat – деятельность

tafakkur – мышление

tomoshabin – зритель

muntazam – регулярно

◆ Bilib oling!

Ergash gaplar, odatda, bosh gapdagi harakatning o‘rni, payti, sababi, maqsadi, natijasi, sharti, holati, miqdor-darajasi kabi ma’nolarni bildirib keladi.

Masalan:

Kim yoshligidan puxta bilim olsa, kelajakda albatta o‘z orzusiga erishadi (**shart ma’nosi**).

Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda baraka bo‘ladi (**o‘rin ma’nosi**).



3-mashq. Berilgan sodda gaplardan qo‘shma gaplar tuzing.

1. Vatanimiz kun sayin rivojlanib bormoqda. Xalqning ko‘ngli shod. 2. Adiba juda xursand bo‘ldi. Ko‘rsatuv u kutganidan yaxshi o‘tdi. 3. Bolalar xursand bo‘ldilar. Ularning orzusi ushalgan edi. 4. Daryo suvi kamayib ketdi. Orolga suv bormay qoldi. 5. Vatanni asrang. Siz shu vatan farzandisiz.



4-mashq. Berilgan gaplarni davom ettirib, qo‘shma gaplar hosil qiling.

1. Bugungi kunda televideniye shunchalik rivojlanib ketdiki, ...
2. Teledasturlar shunchalik xilma-xilki,
3. Shamol shunaqa kuchaydiki,
4. Umida shunday chiroyli raqsga tushadiki,
5. U xayolga shu qadar berilib ketgan ediki,



Uyga vazifa.

«Men yoqtirgan ko‘rsatuv» mavzusida matn tuzing.



G‘afur G‘ulom

(1903-1966)



O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontepa mahallasida mehnatkash oilasida tug‘ildi. Shoir liroepik janrlarda «Ko‘kan» poemasini, «To‘y», «Ikki vasiqa» balladalarini yaratdi. 30-yillar G‘afur G‘ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» kabi qissalarini o‘z kitobxoniga taqdim etdi. G‘afur G‘ulomning 20 ga yaqin she‘riy to‘plamlari chop etilgan. U O‘zbekiston fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi edi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga O‘zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Shoirning ko‘pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan.

O‘zbek she‘riyatining ulkan namoyondasi, ulkan so‘z san‘atkori G‘afur G‘ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo‘shgan adibdir. Adib 1966-yilda og‘ir xastalikdan so‘ng vafot etdi.



6-topshiriq. Hikoyani o‘qing va berilgan savol va topshiriqlarni bajaring.

Mening o‘g‘rigina bolam

(hikoya)

Otamizning o‘lganiga anchagina yil bo‘ldi. Bu yil o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik. Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiya bibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab Qora buvi deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uyum-to‘da ko‘rpa-yostiqlarga o‘ralib, bittagina O‘ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketamiz. Qatorda eng so‘nggi bo‘lib, ona chumchuqday Qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshgan kampir edilar.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kelibdi. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda? Ertaga o‘rtoqlarimga toza maqtanadigan bo‘ldim-da. O‘g‘ri o‘sha amakivachchalarimning tomidan sekin yurib kelib, buvimning to‘g‘rilariga kelganda aksi urib yuboribdi. Buvim hali uxlamagan ekanlar, tomga qarab:

– O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tirikchilik uchun tomga chiqqan ko‘rinasan. Axir kasbing nozik, gumon-pumoningni yozib chiqsang bo‘lmaydimi? – debdilar.



– Axir, buvijon, birorgina kecha tinchgina uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? – debdi.

Men gap shu yerga kelganda uyg‘onib ketgan bo‘lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha yozaman.

– Hoy, aylanay, o‘g‘rigina bolam, boshimga shunday musibat turganida ko‘zimga uyqu keladimi? Mana olti oy bo‘ldi, bir soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

– Nimalarni xayol surasiz, buvijon? – bu gapdan keyin ustidagi to‘nini bo‘g‘otning ustiga yostiq qilib qo‘yib, o‘g‘ri ham yonboshlab oldi.

– Nimalarning xayolini surardim. Shu to‘rtta yetimning ertasini o‘ylaymanda, bolam. Zamonni o‘zing ko‘rib turibsan, tirikchilik toshdan qattiq. Hali bularning qo‘lidan ish kelmaydi, ro‘zg‘orda bo‘lsa, ko‘z ko‘rib, quloq tutguday arzigulik buyum qolgani yo‘q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «yotib yeganga tog‘ ham chidamas» deganlar. Eh-ha bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi?

– To‘g‘ri aytasiz, buvijon, – dedi o‘g‘ri. – Mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak deganlaridak, shularni boqishim kerak. To‘rtta non topish uchun o‘zimni o‘tga-cho‘qqa uraman. Bo‘lmasa ishlay desam, bilagimda quvvatim bor, aql-u hushim joyida, menga hozir qilib yurgan o‘g‘rilik kasbi yoqadi deysizmi?

– Biror boshqa kasb qilsang bo‘lmaydimi, bolam? – dedi kampir.

– Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod...

– Ha, mayli, o‘g‘rigina bolam, shu yetimlarning ham peshonasiga yozgani bordir. Axir noilojlikdan-ku shu harom yo‘lga qadam bosibsan. O‘ziga to‘qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo‘lmaydimi?

– E, buvim tushmagur, soddasiz, sodda – dedi o‘g‘ri. – boylarning uyiga tushib bo‘ladimi? Ularning eshiklari temirdan. Har bittasining qo‘rasida ikkita-uchtadan itlari bor.

– Bu gaping ham to‘g‘ri, o‘g‘rigina bolam. Ammo lekin ehtiyot bo‘l. El-yurtning oldida tag‘in badnom bo‘lib qolmagin,– dedi bizning kampir. – Endi bu yoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay, tong yorishib qolar. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush. O‘tinimiz yo‘q. Oshxonada bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib shuni yorib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘ora nondan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz.

– Yo‘g‘-e, buvi, – dedi o‘g‘ri. – to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy ich-olmayman, chunki kun yorishib qolsa meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman.

– Voy, o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To‘xta, ha darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Shundoq katta gurkiragan xonadondan shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

– Yo‘q, yo‘g‘-e buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin, to‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tong yorishib qoldi.

– Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur.

– Xo‘p, ona, xo‘p...

Men o‘sha o‘g‘ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Hikoyada tabiat tasvirini toping.
2. Qora buvi qanday ayol?
3. Qora buvi va o‘g‘ri o‘rtasidagi suhbatiga fikringizni bildiring.
4. O‘g‘rilikdan ta’sirlangan bolaning holatiga munosabat bildiring.
5. Nima uchun bu yigit o‘g‘rilik qilishga majbur bo‘ldi?
6. Qora buvi o‘g‘ridan nimani iltimos qildi?



Uyga vazifa.

Hikoya mazmuniga o‘z munosabatingizni bildiring.

10-mavzu. Tabiat va ekologiya (Tobe gaplarni bosh gapga bog'lovchi vositalar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmlarni qiyoslang va har biriga o'z munosabatingizni bildiring.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o'qing. Berilgan savollarga yozma javob bering.

Tabiatni asrang

Atrofimizdagi barcha narsa: osmondagi quyosh, oy, yulduzlar, havo, tog'lar, tekisliklarning hammasi tabiatdir. O'simliklar, hayvonlar va odamlar ham shu tabiatda yashaydi va o'ziga kerakli barcha narsani tabiatdan oladi. Shuning uchun tabiatni ifloslantiruvchi narsalardan asrash, unga zarar keltirmaslik kerak. Tabiatni asramasak, yomon oqibatlarga olib keladi. Zavod va fabrikalardan, mashinalardan chiqayotgan tutun va gazlar tozalab turilmasa, atrof-muhitni, havoni ifloslantiradi. Havo buzilsa, odamlarning nafas olishi qiyinlashadi, har xil kasalliklar va o'lim ko'payadi. Daryo va ko'llarning suvi ifloslansa, jonivorlar ham zaharlanadi va nobud bo'ladi. Atrof-muhitning ifloslanishi o'simliklarga ham zarar keltiradi, ularning hosildorligi kamayadi. Shuning uchun tabiatni qo'riqlash va asrash har bir insonning muqaddas burchidir.

Lugʻat

atrof-muhit – окружающая среда

ifloslantiruvchi – загрязняющий

oqibat – результат

tutun – дым

qiyinlashmoq – становиться трудным

zaharlanmoq – отравляется

nobud boʻlmoq – пропадать зря

hosildorlik – урожайность

qoʻriqlamoq – охранять

Savollar.

1. Tabiat deganda nimani tushunasiz?
2. Insonning va tabiatning oʻzaro bogʻliqligi nimada?
3. Tabiatni asramaslik qanday oqibatlarga olib keladi?
4. Atrof-muhitni muhofaza qilish nima uchun juda zarur?


► Bilib oling!

Ergashgan qoʻshma gaplar tarkibidagi tobe gaplar bosh gapga ergashtiruvchi bogʻlovchilar va qoʻshimchalar, bogʻlovchi vazifasida qoʻllanuvchi soʻroq va koʻrsatish olmoshlari yopdamida bogʻlanadi.

Masalan: **Qayerda** hamjihatlik boʻlsa, **oʻsha yerda** baraka boʻladi.

Tobe gaplarni bosh gapga bogʻlovchi vositalar

Ergashtiruvchi bogʻlovchilar	Bogʻlovchi vazifasidagi soʻzlar
-ki, -sa qoʻshimchalari	kim, kimki, nimani, nimaga
shuning uchun, shu bois	qanday, qancha, qaysi, qayer
shu sababli, shu tufayli	oʻsha, u, oʻshancha, shuncha, shunchalik,
chunki, negaki, deb	shunday, natijada, oqibatda

 **1-mashq.** Gaplarni oʻqing va davom ettiring. Tobe gaplarni bosh gapga bogʻlovchi vositalarni aniqlang.

Namuna: Inson **qancha** koʻp harakat qilsa, orzusiga **shuncha** tez erishadi.

1. Inson qancha koʻp harakat qilsa, 3. Shunday kunlar boʻladiki, 4. Kim koʻp mehnat qilsa, 5. Kattalar qaysi yoʻldan yurishsa, 7. Shahrimizda shunday keng koʻchalar qurildiki, 8. Kim nimani eksa,



4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing va davom ettiring.

O‘qituvchi: Inson tabiiy boyliklardan qanday foydalanishi kerak?

Botir: Tabiiy boyliklardan asrab-avaylab, maqsadli foydalanish kerak.

O‘qituvchi: Maqsadli foydalanish deganda nima tushuniladi?

Marina: Maqsadli foydalanish deganda tabiiy boyliklaridan mamlakat, insonlar manfaati yo‘lida rejali foydalanish tushuniladi.

O‘qituvchi: Qanday jamiyat taraqqiyotga erishadi?

Sardor: O‘z boyliklarini avvaldan tuzilgan reja asosida sarflaydigan, yer osti va yer usti boyliklaridan tabiiy muvozanatni o‘zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.

O‘qituvchi: Tabiatda ro‘y berayotgan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini nimalarda ko‘rish mumkin?

O‘quvchilar:



Uyga vazifa. Tabiatni asramaslik qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin? Fikringizni misollar bilan yozing.

2-dars



3-mashq. Quyidagi gaplarni mantiqan davom ettiring.

Agar daraxt barglari uchidan to‘kilsa,

Agar yoz issiq kelsa,

Ovun po‘chog‘i yerga tushsa,



3-topshiriq. Matnni o‘qing. Tayanch so‘zlarni topib, lug‘at tuzing.

Tabiatni muhofaza qilish

Inson tabiiy boyliklardan ko‘p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa ayni vaqtda tabiatni muhofaza qilishni ham taqozo etadi. Maqsadga muvofiq foydalanish deganda, tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo‘lida foydalanish tushuniladi. O‘z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o‘zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda tabiatda ro‘y beradigan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlar alohida ahamiyatga ega.

(O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan)


» Bilib oling!

O‘zbek tilida **-sa** shart mayli qo‘shimchasi sodda gaplar tarkibida kelganda istak ma’nosini, ergash gaplar tarkibida kelganda shart, payt, o‘rin kabi ma’nolarni bildirib keladi.


Masalan:

Tabiatni asrasak, jamiyatning kelajagini asragan bo‘lamiz – **shart ma’nosi**.


Bahor kelsa, qushlar uchib keladi, atrof gulga, maysalarga chulg‘anadi – **payt ma’nosi**.

 **4-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ergash gaplarni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni ko‘rsatib, qanday ma’no ifodalayotganini ayting.

1. Katta arava qayerdan yursa, kichiklari ham shu yo‘ldan yuradi. 2. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkora qiladi. 3. Kim maqtanchoq bo‘lsa, uning ko‘ngli har doim hijolatda bo‘ladi. 4. Qayerda mehnat intizomi yaxshi bo‘lsa, o‘sha yerda samaradorlik yuqori bo‘ladi. 5. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyli. 6. Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

 **5-mashq.** Gaplarni **agar, mabodo, -sa** bog‘lovchi vositalari bilan to‘ldirib ko‘chiring, qanday ma’no ifodalanayotganini tushuntiring.

Biz havodagi kislorod bilan nafas olib, nafas chiqaramiz. Odam yaxshi nafas olishi uchun havo kislorodga boy bo‘lishi kerak. ... havoda kislorod yetishma ... , odam o‘zini horg‘in sezadi. ... atrofda daraxtlar, o‘simliklar ko‘p bo‘l ... , ular iflos havoni yutib, o‘zlari chiqargan kislorod bilan havoni tozalab turadi. Shuning uchun, ayniqsa, shaharlarda ko‘kalamzorlashtirishga katta e’tibor berish kerak. Changli havodan nafas olish ham o‘pka uchun zararli hisoblanadi. ... ko‘chalar changib ket ... , darrov suv sepib changni kamaytirish kerak.

 **4-topshiriq.** Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

O‘qituvchi: Yaqinda maktabimizda «Tabiatni asrang» mavzusida tadbir o‘tkaziladi. Siz ekologiya haqida nimalarni bilasiz?

Bahrom: «Ekologiya» so‘zi yunoncha: «ekos» – uy va «logos» – fan degan so‘zlardan hosil bo‘lgan. Demak, ekologiya barcha tirik mavjudotning umumiy uyi, ya’ni tabiat haqidagi fandır.

Alisher: Ekologiya faqat tirik mavjudotlar va jonsiz tabiatnigina emas, balki insonlarning tabiatga, atrof-muhitga munosabatini ham o‘rganadi.

O‘qituvchi: Ekologiyani buzuvchi omillar nima?

Nodira: Ekologiyaga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi holat atrof-muhitni ifloslantirishdir.

O‘qituvchi: Ekologiyani saqlash uchun nimalar qilish kerak?

Alisher: Avvalo, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, ariq va anhorlar, daryolarga chiqindilarni tashlamaslik kerak.

Aziza: Zavod va korxonalar shaharlarda joylashganligi, mashinalarning ko‘pligi sababli havodagi zararli moddalarning miqdori ko‘payib ketadi. Shuning uchun atrofni ko‘kalamzorlashtirishga katta e‘tibor berish kerak.

Nodira: Ko‘chalarga axlat tashlamaslik, xazonlarni yoqmaslik, tez-tez suv sepib, supurib turish kerak.

Bahrom: Ko‘chalarga, maktablar, korxonalarining atroflariga daraxtlar ekish va ularni quritib qo‘ymay, parvarishlab turish kerak.

O‘qituvchi: Siz shunday ishlarga o‘z hissangizni qo‘shish uchun nimalar qilyapsiz? Tadbirda shu haqda gapirib berishingiz kerak. Bugungi kungacha bajaragan ishlaringizni eslab, shular haqida yozib keling.


Yodda tuting! Shu aziz ona-yurt barchamizniki. Uni asrab-avaylaylik, uning boyliklarini, yeri, suvi, tabiatini kelajak avlodlarga bekam-u ko‘st yetkazaylik!



Uyga vazifa.

1. «Tabiatni asrang» mavzusida matn yozing.
2. Ergashgan qo‘shma gaplarga 4 ta misol keltiring.

3-dars

 **3-mashq.** Nuqtalar o‘rniga zarur qo‘shimchalarni qo‘yib o‘qing va berilgan savollarga yozma javob bering.



Loqaydlik va isrofgarchilik

Biz, odatda, o‘zimizga taalluqli bo‘lmagan narsalarga e‘tibor bermaymiz. Jumladan, gaz, elektr, suvning isrof qilinishi, zarur bo‘lmagan hollarda ham ishlatilishiga ayrim kishilar loqaydlik bilan qaraydilar. Ana shu loqaydlik oqibatida qancha-qancha bebaho boyliklar isrof bo‘ladi. Qaysi ishda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yil..., tejamkorlik bilan ish ko‘rilma..., u barbod bo‘ladi. Mehnat qilib topilgan boylik va ne‘matlar tejamkorlik bilan ishlatil..., barakali bo‘ladi. Agar tejab-tergab jamlangan barcha moddiy ne‘matlar kelajak avlodlarga yetib borma..., biz javobgar bo‘lib qolamiz. Isrofgarchiligimiz oqibatida esa farzandlarimizning nasibalari qirqiladi. Buni yoddan chiqarmang.

Savollar.

1. Isrof nimaga olib keladi?
2. Moddiy boyliklar qachon barakali bo‘ladi?
3. Tejamkorlik tufayli biz nimaga erishamiz?
4. Agar isrofgarchilikka yo‘l qo‘ysak-chi?

Topshiriq.

Ayting-chi, siz ham shu kabi holatlarga duch kelganmisiz? Atrofimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga loqaydlik bilan qarash oqibatida yuz berayotgan isrofgarchiliklarga misollar keltiring va ularga o‘z munosabatingizni bildiring.

◆ **3-topshiriq.** Matnini o‘qing va berilgan topshiriq asosida voqea o‘z munosabatingizni bildiring.

– Bolam, Qibrayga avtobus shu yerdan ketadimi?

– Ha, o‘tirib turing. Hademay kelib qoladi, – deb javob berdi pista chaqib turgan ayol. So‘ng 6–7 yoshlardagi o‘g‘liga yuzlanib:

– Bor, do‘kondan suv olib chiq, – dedi.

O‘g‘li yugurib kirib, do‘kondan mineral suv olib chiqdi. Ayol qo‘lidagi pista po‘choqlarini oyoqlari tagiga tashladida, so‘ng suvni olib icha boshladi. O‘g‘li yo‘l chetiga ekilgan maysalar ustida sakrab o‘ynay boshladi. Men bu holga chiday olmay:

– Kechirasizlar, shu yerni yaqinda supurib tozalashgan. Po‘choqlarni axlat idishlariga tashlasangiz bo‘lmaydimi? O‘g‘lingizga ham tanbeh bersangiz bo‘larmidi, maysalarni bosib tashlayapti, – dedim.

– Sizga nima? Supurishgan bo‘lsa, yana supurishadi. Shuning uchun davlatdan oylik olishadi. O‘g‘lim bossa, o‘tni bosibdi. Menga o‘t-o‘lanlar emas, bolam aziz. O‘ynayversin.

Bu gapni eshitib, boshimdan sovuq suv quyilgandek bo‘ldi. Bunday insonlar qayerdan paydo bo‘lishyapti ekan-a?!



(Gazetadan)



Adabiy o‘qish

O‘lmas *Umarbekov* (1934-1995)



O‘lmas Umarbekov 1934-yilda Toshkentda tavallud topgan. O‘rta maktabni muvaffaqiyatli tugatgach, Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetiga kirib, uni a’lo baholarga bitirdi.

Adib qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa ham, o‘nlab hikoyalar, qissalar, dramatik asarlar yozib, o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirdi. Uning «Odam bo‘lish qiyin» romani, «Shoshma quyosh», «Qiyomat qarz», «Arizasiga ko‘ra», «Yer yonganda» kabi dramatik asarlari haligacha dolzarbligi bilan el og‘zidan tushmay keladi.

Adib «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» degan yuksak nomga, «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» degan faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. Oddiy jurnalistlikdan ish boshlagan O‘. Umarbekov 10 yilga yaqin «O‘zbekfilm»ga boshchilik qilgan. O‘zbekiston madaniyat vaziri o‘rinbosari lavozimida ishlagan. O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasiga rais bo‘lgan, keyinroq Osiyo va Afrika yozuvchilarining birdamlik qo‘mitasi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi raisining o‘rinbosari lavozimida ishlab kelgan. U qaysi sohada ishlamasin, ijodning qaysi turida, qaysi mavzuda asar yaratmasin, hamisha o‘z eli, yurti g‘ami bilan yashagan.



4-topshiriq. Hikoyani o‘qing va so‘zlab bering.

Qizimga maktublar

Mangu dunyo bo‘sag‘asida

Mening bir hikoyalar va qissalar kitobim bor. Unga «Oq qaldirg‘och» deb nom qo‘yganman. Oltmishinchi yillarning oxirlarida Bulg‘oriyada bo‘lganimda bulg‘or

xalqining mashhur, el orasida katta obro‘ga ega klassik yozuvchisi Emin Pelikning shu nomdagi hikoyasini o‘qigan edim. Hikoya katta emas. Mazmuni shunday. Bir dehqon bug‘doy pishig‘i mahali dalaga, o‘rimga ketayotganida bo‘yiga yetgan qizi ham unga ergashadi. Hamma o‘rtoqlarim ketishyapti, meni ham olib boring, deb otasidan iltimos qiladi. Ota rozi bo‘ladi. Yoz. Kun issiq. Qiz dalada bir daraxtning ostida o‘rimdan charchab dam olgani yotadi va uxlab qoladi. Uyqusida ko‘kragi muz bo‘lib ketayotganini sezadi. Cho‘chib uyg‘onib qarasa, ko‘krak ustida kulcha bo‘lib, ilon yotgan emish. Dod solib, qiz uni uloqtiradi. Hamma uning ovozini eshitib, yugurib keladi. Qiz bo‘lgan voqeani aytib beradi. Shu kundan boshlab u kasalga chalinib qoladi: ovqatlanmaydi, uxlamaydi, ko‘ngli ag‘dariladigan bo‘lib qoladi.

Ota-ona uni hamma yaqin oradagi shifokorlarga, tabiblarga ko‘rsatishadi. Ammo qiz tuzalmaydi. Kimdir ularga qizingiz oq qaldirg‘ochni ko‘rishi kerak, shunda tuzaladi, deb maslahat beradi. Er-xotin aravaga qizlarini yotqizib, oq qaldirg‘ochni qidirib ketishadi. Ular telegraf ustunlariga tortilgan simyog‘ochlar ostida qishloqma-qishloq, shaharma-shahar uzoq kezishadi, oq qaldirg‘ochni topishga qizlarini ishonitirishadi. Qiz shu ishonch bilan yashaydi. Umid bilan sim yog‘ochlarga, osmonga tikiladi.

Ikkinchi qaldirg‘ochim – jonimdan ham aziz qizim Umida. Uning uchun yashashga intildim, hamma xayolim, quvvatimni jamlab, sihatimni yaxshilashda shifokorlarga yordam berishim kerak.

Moskvaga jo‘nayotgan kunimiz Umida bilan xayrlashuvim ko‘z oldimdan ketmaydi. Erta turib kiyinayotganimda u oldimga keldi. Bo‘ynimdan quchoqlab yuzini yuzimga qo‘ydi. Sezib turibman, maktabga borgisi yo‘q. Ikki-uch kundan beri u litseyga o‘tgan edi, o‘qishdan qolishi kerak emas. Shuning uchun qattiq bag‘rimga bosdim, o‘qishdan qolishiga, samolyotgacha meni ukam, singlim bilan birga kuzatib qo‘yishiga zarurat yo‘q. Keyin u ham eziladi, men ham. Oddiygina xayrlashgan ma’qul.

– Nima olib kelay Moskvadan? – so‘radim uni qo‘yib yuborib. Shu bilan shunday xayrlashganim kifoya, degandek bo‘ldim. U aqlli qiz – tushundi. Jilmayib:

– Hech narsa. Tuzalib qaytsangiz bo‘ldi, ada, – dedi.

– Albatta, qaytaman.

Shunday deb yelkasiga bir-ikki qoqib qo‘ydim. U ohista yurib, o‘z xonasiga o‘tdi. Portfelini olib, ayvondan tushayotganda, orqasiga qaytdi:

– Xayr, ada! Mendan xavotir olmang! Sog‘ayib keling! Men qo‘limni silkitdim.

Oxirgi ko‘rishganimiz shu. Oxirgi deyapman-u, uni yana ko‘rishimga, hali ko‘p u bilan birga bo‘lishimga ishonaman. O‘z oyog‘im bilan uyga kirib boraman, bag‘rimga bosib, issiq peshanasidan o‘paman. Zuhra telefonda u bilan gaplashib turibdi. Har gal gaplashib kelganida undan salom aytadi. O‘qishlari yaxshi emish. Ingliz tilidan, matematika, fizikadan besh baho olayotgan emish.

Umida, jonim qizim! Yaxshiyam xudo bizga seni berdi.

Opang kabi men uchun ham eng aziz, eng qimmatli, eng shirin va shakar odamsan. Sening baxtli bo‘lishingni qanchalik istashimni bilsang edi! Omon bo‘l, qizim. Barcha orzularingga yet. Men har kuni xudodan opang bilan sening baxtingni so‘rayman. Uzoq umr ko‘rishingni, niyatlaringga yetishingni so‘rayman. Har qanday balo-qazolardan seni asrashini, sendan, opang, ammalaring, Akmal akangdan marhamatini ayamasligini so‘rayman. Arzandam, yolg‘izim, agar ba’zida seni urishgan bo‘lsam, kechir. Faqat yaxshi niyatda shunday qilganman. Seni yaxshi ko‘rishimni, hech kimga ishonmasligimni yaxshi bilasan. Qizim, agar taqdir taqozosi bilan endi ko‘rishmay qolsak, opangni ehtiyot qil. Bechora opang men bilan ko‘p azob chekdi. Sen uni hurmat qil. Yolg‘izlatib qo‘yma. Qattiq gapirma, yaxshi gappingni ayama. Iloji bo‘lsa doim birga tur. Qizim, hayotingga gard yuqmasin, baxtli bo‘l. Omon bo‘l, farishtam, arzandam!..

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1. Matn asosida savollar tuzing.
2. Tayanch so‘zlarni toping va lug‘at tuzing.



Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Tabiatni asrashga qo‘shgan hissangiz haqida ma’lumot yozib keling.
2. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar va bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar ishtirokida 3 tadan gap tuzing.
3. O‘lmas Umarbekovning hayoti va ijodini o‘qing. O‘z so‘zingiz bilan gapirib bering.
4. O‘lmas Umarbekovni qaysi asarlarini o‘qigansiz? Mazmunini so‘zlab bering.

11-mavzu. San'at va madaniyat

(Ergashgan qo'shma gaplarning o'zaro va sodda gaplar bilan ma'nodoshligi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Guruhlarga bo'ling. Rasmlarda tasvirlangan san'at turlari haqida suhbatlashing.

◆ **2-topshiriq.** Berilgan matnni o'qing. San'at turlari haqidi ma'lumot bering.

San'at turlari

San'at turlari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot uning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta'sirchan obrazlar yaratish ko'zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo'llar bilan erishadi. Masalan, raqs harakatlari, tana a'zolarining ifoda imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarining hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibligi alohida ahamiyat kasb etadi. Fikr ifodalashda rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. Haykaltarosh esa xom material (tosh, yog'och, metall) ga ishlov berish orqali go'zallik yaratadi. Adabiyot esa, bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.

(«O'zbekiston san'ati» jurnalidan)

Lugʻat

ta'sirchan – впечатлительный

imkoniyat – возможность

mutanosib – пропорциональный;
соразмерный

beqiyos – бесподобный, несравнимый

fikrni ifodalamoq – выразить мысль

mo'yqalam – кисть

tayanmoq – опираться

ishlov bermoq – обработка

◆◆ Bilib oling!

Ergashgan qo'shma gaplar turlari o'zaro ma'nodosh bo'lib kelishi mumkin. Ma'nodosh gaplar nutq boyligi bo'lib, fikrni aniq, tez va qaytariqlarsiz ifodalashga yordam beradi. Misollarni qiyoslang: Madina kasal bo'lib qoldi, shuning uchun darsga kela olmadi. – Sabab ma'nosidagi qo'shma gap. Madina kasal bo'lib qoldi, oqibatda darsga kela olmadi. – Natija ma'nosidagi qo'shma gap.



1-mashq. Fikr mazmunini qo'shma gap tarzida davom ettiring.

1. Kishi qanchalik dono bo'lsa, 2. Inson o'ziga qanchalik ishonsa, 3. Shunday kunlar bo'ladiki, 4. Kimning mehnati halol bo'lsa, 5. Shunaqa ajoyib narsaki, 6. Kattalar qaysi yo'ldan yurishsa, kichiklar ham... . 7. Shahrimizda shunday keng ko'priklar qurildiki, 8. Kim qaysi tilni puxta o'zlashtirgan bo'lsa, 9. Kim qaysi fanlarni yaxshi bilmayotgan bo'lsa,



3-topshiriq. Matnni o'qing. Matn asosida savollar tuzing.

Hamza Umarov

1925-yilning 17-dekabrida Qo'qon shahrida tavallud topdi. 1943-yilda 10-sinfda o'qiyotganida o'z xohishiga ko'ra ikkinchi jahon urushiga ketadi. 1944-yilda og'ir jarohat olganligi tufayli O'zbekistonga qaytadi.

Toshkent kinostudiyasi qoshidagi aktyorlik maktabida o'qidi. 1948-yilda esa Toshkent teatr va rassomlik san'iyati institutida o'qigan. Institutni tugatgach Madaniyat vazirligining yo'llanmasi bilan Muqimiy nomidagi musiqiy drama va komediya teatriga ishga yuboriladi.

«O'zbekfilm» va hind kino ijodkorlari birgalikda ishlagan «Ali bobo va qirq qaroqchi» filmida qaroqchilardan birining obrazini yaratdi va ushbu filmga mohirona ovoz berdi. San'atkor nafaqat rus tilini mukammal bilar, balki qardosh xalqlar tillaridan «Xonima xonim», «Bo'ri tosh», «Qaynona» asarlarini o'zi tarjima qilib sahnaga olib chiqqan edi. Muqimiy teatrida sahnalashtirilgan «Jo-

nim fido», «Ishqing bilan» asarlari muallifi ham O‘zbekiston xalq artisti Hamza Umarovdir. «Dublyaj qirol» Hamza Umarov 1000 dan ortiq filmlarga ovo bergan. O‘zbekiston xalq artisti, Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti sovrindori Hamza Umarov 1987-yilda vafot etgan.

◆ **4-topshiriq.** Guruhlarga bo‘lining. San’at turlari va mashhur san’atkorlar haqida taqdimot qiling.

🏠 **Uyga vazifa.** O‘zingiz yoqtirgan san’at turiga ma’lumot yozing.

2-dars



◆ **4-topshiriq.** Berilgan rasmlarni qiyoslab, kiyinish madaniyati, jamoada yurish-turish qoidalari haqida o‘zaro suhbatlashing.

◆ **5-topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan savollarga javob bering.

Kiyinish madaniyati

Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri bu did bilan kiyinishdir. Insonning tashqi ko‘rinishi, qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma’naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin. Kiyinish har bir xalqning yashash sharoiti, mintaqasi, turmush tarzi, udum, urf-odatlarini, tabiati bilan ham chambarchas bog‘liq.

Serquyosh o‘lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyish odat bo‘lgan, chunki oq mato quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiq ta’siridan saqlagan. Aksincha, iqlimi sovuq o‘lkalar xalqlari esa qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan, chunki bu kiyim quyosh nurlarini o‘ziga singdirib, kiyim egasining tanini yayratgan.

Dunyodagi barcha xalqlar bir-biriga hududiy, madaniy-maishiy, iqtisodiy jihatdan qanchalik yaqinlashganlariga qarab, ularning kiyinish madaniyatidagi ayrim jihatlar ham bir-biriga ko‘chib boradi.

Ayniqsa rivojlangan mamlakatlardagi kiyinish madaniyatiga taqlid qilish ko‘p uchraydi, shu bois hozirgi kunda jahonda erkak va ayollar o‘rtasida yevropacha kiyinish urfga kirgan. Biroq milliy bayramlar, marosimlar va to‘ylarda asosan milliy kiyimlar kiyiladi.

Lug‘at

madaniyatli – культурный
did-farosat – догадливость,
сообразительность

yaqinlashmoq – приближаться
intilish – стремление
taqlid qilmoq – подражать

Savollar.

1. Nima sababdan kiyinish mintaq va urf-odatlar bilan bog‘liq?
2. Kiyinish madaniyati inson hayotida qanday rol o‘ynaydi?
3. Nega issiq o‘lkalarda oq matodan, sovuq o‘lkalarda esa ko‘proq qora rangli kiyimlar kiyiladi?
4. Qanday milliy kiyimlar sizga yoqadi?


◆ Bilib oling!

Ergashgan qo‘shma gaplar sodda gaplar bilan ham ma’nodosh bo‘lib qo‘llanishi mumkin. Bunday hollarda tobe gap bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo‘lagi o‘rniga qo‘yiladi.


Masalan:

Kim ko‘p o‘qisa, o‘sha ko‘p biladi (**qo‘shma gap**).


Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi (**sodda gap**).

 **3-mashq.** Gaplarni qiyoslang. Izohlovchi bo‘lakning sodda va qo‘shma gap tarkibida berilishiga e‘tibor qiling.

1. Kim ko‘p o‘qisa, o‘sha ko‘p biladi. Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi. 2. Kimki o‘z burchini unutsa, u ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadi. O‘z burchini unutgan ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadi. 3. Kimki haddidan oshsa, o‘sha xalq e‘tiboridan qoladi. Haddidan oshgan xalq e‘tiboridan qoladi. 4. Kim sport bilan shug‘ullansa, doimo sog‘lom bo‘ladi. Sport bilan shug‘ullangan doimo sog‘lom bo‘ladi. 5. Kim ko‘p mehnat qilsa, oxirida rohatga erishadi. Ko‘p mehnat qilgan oxirida rohatga erishadi.

 **4-mashq.** Berilgan qo‘shma va sodda gaplarni o‘qing. Mazmunan mos keladiganlarni topib, juftlab ko‘chiring.

Shunday zamon keldiki, har bir kishi o‘z intilishi bilan baxt topa oladi. Kimning so‘zi to‘g‘ri bo‘lsa, o‘zi ham to‘g‘ri bo‘ladi. Kitobxonlik ommaviy tus olgan mamlakatning kelajagi porloq bo‘ladi. So‘zi to‘g‘ri odamning ishi ham to‘g‘ri bo‘ladi. Qaysi mamlakatda kitobxonlik ommaviy tus olsa, o‘sha mamlakatning kelajagi porloq bo‘ladi.


 **5-mashq.** Gaplarni qiyoslang. Shart mayli qo‘shimchasining sodda gaplardagi va qo‘shma gaplardagi ma’nolarini qiyoslang.

1. Yozgi ta’tilda dam olishga ketsam kerak. 2. Yoz kelsa, kunlar isib ketsa, tog‘lar bag‘riga ketamiz. 3. Bu she’rni daftarimga ko‘chirib yozsam maylimi? 4. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyli. 5. Katta bo‘lsam, universitetda o‘qiyman. 6. Iloji bo‘lsa, o‘zing biznikiga kel. 7. Men kelsam, ketib qolgan ekansan.



Uyga vazifa. Kiyinish madaniyati haqida o‘z fikringizni yozing.

3-dars

 **6-topshiriq.** Matn mazmunini so‘zlab bering savol va topshiriqlarni bajar.

Hukmdorni yig‘latgan darvesh

Rivoyat qilishlaricha, darveshona kiyingan Abu Nasr Forobiy Halab shahri-ning ko‘chalarida musiqa chalib yurganligi haqida shahar hukmdoriga kimdir xabar yetkazadi. Shahar hukmdori bu darveshni huzuriga keltirishlarini buyuradi. Choparlar Forobiyni hukmdor huzuriga yetaklab kelganlarida, shahar hukmdori o‘z yaqinlari bilan kayfu safo qilib o‘tirgan bo‘ladi.



Hukmdor keltirilgan darveshga qarab:

– Aytishlariga qaraganda sen musiqa asboblarini juda yaxshi chalar emishsan, shu to‘g‘rimi? – deb so‘raydi.

– Demak, ular adashmaganlar, – deb javob beradi Forobiy.

– Unday bo‘lsa, – deydi hukmdor, – sen shunday musiqa chalginki, biz o‘tirganlar xoxolab kulib yuboraylik, tanalarimiz ham larzaga kelsin.

– Xo‘p bo‘ladi, – deb Forobiy ichak uzdi musiqa chalib, hammani kuldiradi.

– Endi, – deydi hukmdor, o‘zini kulgidan zo‘rg‘a to‘xtatib, – sen bizlarni yig‘latib yuboradigan musiqa chalib ber.

– Buyrug‘ingiz men uchun vojib, – deb Forobiy shunday mungli musiqa chaladiki, o‘tirganlarning barchasi yig‘lashga tushadi. Yig‘idan o‘zini zo‘rg‘a to‘xtata olgan hukmdor, ko‘zlarini artib, yana darveshga yuzlanib deydi:

– Ofarin. Endi qo‘lingdan kelsa, musiqa chalib, bizlarni uxlatgil, biroz dam olib, o‘zimizga kelib olaylik. Shunda Forobiy boshqa bir mo‘jazgina musiqa asbobini qo‘liga olib, shunday mayin, nafis tovushda musiqa chaladiki, o‘tirganlarning barchasi uyquga ketibdi. Forobiy bundan foydalanib, bir varaq qog‘ozga quyidagilarni yozib, saroydan chiqib ketadi: «Sizlarni kuldirib, yig‘latib, keyin uxlatib, musiqa chalgan darvesh aslida Forobiy edi».

Uyqudan cho‘chib uyg‘ongan hukmdor varaqdagi yozuvga ko‘zi tushib, musiqa chalgan darveshni topib, zudlik bilan uni yana saroyga keltirishlarini buyuradi. Choparlar qanchalik qidirmasinlar, darveshni topishning iloji bo‘lmaydi. Chunki bu vaqtda Forobiy shahardan chiqib ketishga ulgurgan edi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.


1. Matndan qo‘shma gaplarni toping va ma’nosini tushuntiring.
2. Abu Nasr Forobiy haqida yana nimalarni bilasiz?



Adabiy o'qish

Zulfiya

(1915-1996)



O'zbek xalqining sevimli shoirasi, tanikli jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yilda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Shoira xotin-qizlar bilim yurtida o'qib yurgan vaqtlaridayoq she'rlar mashq qilar edi. Uning «Hayot varaqlari» nomli birinchi she'riy to'plami 1932-yilda nashr qilingan. Zulfiya uzoq yillar «O'zbekiston xotin-qizlari» va keyinroq «Saodat» jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishlagan. Zulfiyaning ijodiy kamolotida uning hayot yo'ldoshi, O'zbek xalqining sevimli shoiri Hamid Olimjonning o'rni juda katta. «Qizlar qo'shig'i», «Hijron kunlarida», «Men tongni kuylayman», «Yuragimga yaqin kishilar», «Kuylarim sizga», «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» kabi she'riy to'plamlarida Zulfiya vatanni madh etadi, fidokor kishilar haqida kuylaydi. Zulfiya tinchlik va do'stlik haqidagi asarlari uchun Respublika davlat mukofoti, Javoharlal Neru nomidagi va «Nilufar» xalqaro mukofotlari bilan taqdirlangan. Uning she'rlari rus, ingliz, nemis, hind, arab, fors, bolgar, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan. Jamoatchilik faoliyati uchun «Mehnat qahramoni» unvoni va qator orden va medallar bilan taqdirlangan. Zulfiya nomini abadiylashtirish maqsadida 1999-yilda 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlar uchun Zulfiya nomli Davlat mukofoti ta'sis etilgan.



7-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

O'g'lim, sira bo'lmaydi urush

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Yulding ota demak baxtini,
Juda murg‘ak go‘daklarimdan.
Yaxshi ham bor shunday vatani,
Dalda bo‘ldi yuraklarimga.

Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,
Ona bo‘lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.

Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham vatanga, ham menga bu dil,
Qoya kabi yonimdan chiqib,
Suyan, – deydi, – kiftimga dadil.

Men onaman, mening yuragim
Farzandlarim quvonchiga kon.
Dil orziqar, ba‘zan tilagim
Vahimalar o‘ragan zamon.

Yo‘q, urushning nomi ham o‘chsin.
Mening o‘g‘lim kerak hayotga.
Istamayman, uning dudlari
Qo‘nsin labi uzra qanotga.

Bas, bas, ezgu onalar qalbi,
Yashay olsin bexavf, baxt bilan.
Mehnatimiz, g‘azab, sevgimiz
Tinchlik, deydi butun xalq bilan.

Ko‘krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!



Uyga vazifa. She‘rni yod oling.

12-mavzu. Yaxshi fazilat – inson ko‘rki (Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmlar asosida foydalanish uchun berilgan so‘z birikmalari yorgamida gaplar tuzing.

Foydalanish uchun berilgan so‘z birikmalari: tashqi go‘zallik, ma’naviy boylik, axloq-odob, insoniy fazilatlar, qo‘pollik.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

Xushchehralik va xushmuomalalik

Xushchehralik – biror kishi sizga iltimos bilan murojaat qilganda kayfiyatingiz yomonligini, vaqtingiz ziqligini sezdirmay, darhol chehrangizni ochib, uni iltifot bilan tinglash, kerakli javobni samimiy izhor eta bilishdir. Yoshligidan odob o‘rganmagan, xushmuomalalik, shirinso‘zlikka odatlanmagan kishilar ham, agar ko‘nglida odamiylik xislati bo‘lsa, bu kamchilikni tuzatishi mumkin. Chunki sen ham bir og‘izdan, siz ham bir og‘izdan chiqadi. Qo‘rs, jahldor insonlar johillik bilan o‘zlariga ham, o‘zgalarga ham faqat zarar keltiradilar. So‘zning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati beqiyosligini buyuk bobomiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlaridan bilish mumkin: «Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, bilki guhari sharifroq yo‘q ondin». Shunday ekan, muomalada madaniyati, hamisha ochiq chehrali va xushmuomala bo‘lishga intiling.

Lug‘at	iltifot (bilan) – внимание, любезность
kayfiyat – настроение	odamiylik – человечность
xushmuomala – вежливый	qo‘rs – грубый, дерзкий, грубиян
murojaat qilmoq – обращаться	jahldor – сердитый

- Savollar.**
1. Shirinso‘z insonlarni qanday ajratish mumkin?
 2. Qo‘rslik qanday oqibatlarga olib keladi?
 3. Sizga insonlarning tashqi go‘zalligi yoqadimi yoki xushfe’lligi yoqadimi?
 4. Siz o‘zingizdagi qaysi salbiy jihatlarni tuzatishga harakat qilasiz?

◆◆ Bilib oling!

Qo‘shma gaplar o‘zaro bog‘lovchisiz bog‘lanishi ham mumkin. Bunday gaplar o‘zaro faqat mazmun va ohang yordamida bog‘lanadi va vergul, tire, ikki nuqta kabi tinish belgilari bilan yoziladi. Ular ikki va undan ortiq gapdan tashkil topishi mumkin.

Masalan: Suv keldi – nur keldi. Yaxshiga yondosh, yomondan qoch. Orzuim shu: o‘chmasin yongan chirog‘ing.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar maqollar va she‘rlarda ko‘p ishlatiladi.


1-mashq. Berilgan qo‘shma gaplarni qismlarga ajrating va tinish belgilarining qo‘yilishiga e’tibor qiling.

1. Jahl dushman, aql do‘st.
2. Aytganing – kumush, aytmaganing – oltin.
3. Hamma ishlaringizda to‘g‘ri bo‘ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo‘lsin.
4. Bilmaganini so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
5. Bulbul sayrar, chumchuq chaqirar, xabar berar asli zotidan.
6. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir: tun yarmiga og‘ganda uyg‘onib ketasan kishi.


2-mashq. Ikkinchi ustundan maqollarning juftini toping va zarur tinish belgisini qo‘yib ko‘chiring.

1. Yomon qopib gapirar	tuyaning dumi yerga tekkanda
2. Aqlli o‘zini ayblar	oq ko‘ngil

3. Xash pash deguncha	yaxshi ro‘zg‘or-jannat
4. Ko‘kka ko‘tarmoq	aqlsiz do‘stini
5. Ko‘ngil qora	yaxshi topib gapirar
6. Yomon ro‘zg‘or-do‘zax	yerga urmoq
7. Qari kelsa-oshga	mehnatdan do‘st ortar
8. G‘iybatdan – dushman	yosh kelsa-ishga

 **3-mashq.** Mustaqil ish. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib maqollar hosil qiling.

1. Yaxshi, ham, hechdan, kech, ko‘ra
2. Ko‘p, yaxshiroq, indamay, ko‘ra, o‘tirganing, gapirgandan
3. Yaxshiga, qoch, yondash, yomondan.
4. Kuchli, o‘limdan, nomus, ko‘ra
5. Bug‘doy, bo‘lmasin, shirin, noning, so‘zing bo‘lsin.


 **3-topshiriq.** Matnlarni o‘qing va munosabatingizni bildiring.

Nozima avtobusda o‘tirib ketayotgan edi. Bekatdan portfelli bir kishi avtobusga chiqdi. Nozima darrov u kishiga joy berdi va o‘zi o‘rtog‘i Munisaning yoniga borib turdi. Shunda Munisa sekingina Nozimadan so‘radi: «Nimaga joy berding, o‘qituvchingmi?»

Ayting-chi, Munisa kimlarga joy berish kerak deb o‘ylar ekan?

Bekzod hashamatli sirk binosi oldiga kelgandagina chiptani uyda unutib qoldirganini bildi. U shosha-pisha yana iziga qaytdi. Avval metroga, so‘ng avtobusga chiqib, uyiga borib keldi.

Ayting-chi, parishonxayollik nimaning oqibati va bu tufayli Bekzod qancha vaqt yo‘qotdi?

 **Uyga vazifa.** Yaqin insonlaringizning yaxshi fazilatlari haqida matn tuzing.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

Qadimgi Eron donishmandi Buzurgmehr bir hind donishmandi bilan axloq-odob borasida suhbatlashardi:

- Qaysi xislat odamni past martabadan a’lo darajaga ko‘taradi?
- Aql va farosat.
- Odam qaysi xususiyati bilan boshqa jonzotlardan farq qiladi?
- Odamgarchilik bilan. Agar odamda shu xislat bo‘lmasa, uning hayvondan farqi yo‘qdir.
- Adab, tarbiya odamga qanday foydalar yetkazadi?
- Adabli, tarbiyali boshqalarga muhtoj bo‘lmaydi, balki ular bunga muhtoj bo‘ladilar. Adabli, tarbiyali odam hech kimdan koyish eshitmaydi, hamma uni do‘st tutadi.
- Hammadan ham achchiq narsa nima?
- Pastkash, noahil odamlarga muhtojlik, ulardan bema’ni so‘zlar eshitish.
- Qaysi narsalar odamlarga alam va pushaymonlik keltiradi?
- G‘azab, takabburlik va nojo‘ya harakat.
- Qanday odamlarni aqlli va qanday odamlarni ziyrak, deb ataymiz?
- Bir ishga kirishmasdan avval uning oqibatini yaxshilab o‘ylab, so‘ng u ishga kirishgan odamni aqlli, keyin keladigan voqeani ilgariroq sezib, uning chora va tadbiriga kirishgan odamni ziyrak, deb ataymiz.
- Qaysi narsalar inson uchun ayb sanaladi?
- Baxillik, yolg‘onchilik, chaqimchilik, do‘stlarning ozgina kamchiliklarini ko‘rish bilan ulardan yuz o‘girish, o‘z aybini ko‘rmay, boshqalarning ayblarini oshkor qilish.



4-mashq. Matndan insonlarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarni 2 guruhga ajratib ko‘chiring va ularga zid ma’no beruvchi so‘zlarni toping.



Bilib oling!

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biriga zid bo‘lganda, o‘xshatish, payt va shart ma’nolarini bildirganda ular orasiga tire qo‘yiladi.

Masalan: Ko‘z qo‘rqoq – qo‘l botir (**ziddlik ma‘nosi**). Vaqting ketdi – baxting ketdi (**o‘xshatish ma‘nosi**). Qo‘shning tinch – sen tinch (**shart ma‘nosi**).

5-mashq. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni aniqlang. Ularda tirening ishlatilish sabablarini tushuntiring.

1. Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz. 2. Odob – kishining zeb-ziynati. 3. Egri ozadi – to‘g‘ri o‘zadi. 4. Kitob – insonning eng yaqin do‘sti. 5. Birlashgan o‘zar – birlashmagan to‘zar. 6. Doston aytdim – kitob bo‘ldi. 7. Yurt tinchligi – el boyligi.

5-topshiriq. Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

Odob gulshani

Bir donishmand odamlarga shunday o‘gitlar beribdi:

– Hayotning quyidagi bo‘stonlari bo‘ladi: birinchisi – ilm bo‘stoni, ikkinchisi – xushmuomalalik bo‘stoni, uchinchisi – ixlos bo‘stoni, to‘rtinchisi – kamtarlik bo‘stoni, beshinchisi – saxovat bo‘stoni, oltinchisi – rizo bo‘stoni, yettinchisi – umid bo‘stoni.

Agar inson ravnaq topay desa, avvalo, ilm bo‘stoniga kiradi va u yerda nodonlik va johillikni yo‘qotadi. So‘ng muomala bo‘stoniga kiradi va bu bo‘stonda adovat va hasad tikanlarini yo‘qotadi. So‘ng ixlos bo‘stoniga kiradi va bu bo‘stonni yolg‘on va gumondan tozalaydi. So‘ng kamtarlik bo‘stoniga kiradi va bu bo‘stonda takabburlik va mag‘rurlik bo‘lsa, ularni yo‘qotadi. Undan so‘ng rizo bo‘stoniga kiradi va bu bo‘stonda manmanlik va qaysarlik bor bo‘lsa, bo‘stonni ulardan holi qiladi. So‘ng umid bo‘stoniga kiradi va bu bo‘stondan umidsizlik va tushkunlikni bartaraf etadi. Shundagina inson ma‘naviy boy insonga aylanadi.



Topshiriqlar.

1. Matndan odob-axloq ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar va gaplarni aniqlang, Ularning har biri qanday ma‘no ifodalashini tushuntiring.
2. Qaysi so‘z ko‘p ishlatilgan? Uni qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin?
3. Matnni o‘qigach, siz qanday xulosaga keldingiz? Fikringizni yuzing.



Uyga vazifa.

Matndan foydalanib, ushbu gaplarni davom ettiring. Gaplardagi bog‘lovchi vositalarni ko‘rsating.

1. Agar inson ravnaq topay desa,
2. Agar kamtarlik bo‘stonida takabburlik va mag‘rurlik bo‘lsa,
3. ... , inson ma‘naviy boy insonga aylanadi.
4. Kimki hayotning ushbu bo‘stonlaridan o‘tsa,

3-dars



6-topshiriq.

Matni o‘qing va savollarga javob bering.

Hayot qoidalari

Bola yetti yoshga yetgach, uni ilm olishga va johillik botqog‘idan qutqarishga uriniladi. Agar unga ilm o‘rgatishning iloji bo‘lmasa, birorta yaxshi hunarga o‘rgatiladi. Agar sening moling qancha ko‘p bo‘lsa, ularni farzandingning ilm va hunar olish yo‘lida sarfla, chunki mol-u davlatga ishonib bo‘lmaydi, hunar esa hech qachon o‘lmaydi. Ilm va hunar o‘rganmay o‘tiruvchi kishilar haqida olimlar uchta sabab borligi haqida gapiradilar. Bunday kishilar yoki tanbal, yoki takabbur kishilardir. Agar u tanbal bo‘lsa, gadolik ko‘yiga tushadi. Agar takabbur bo‘lsa, nochorlikdan o‘g‘rilik yo‘liga kiradi. Kimki kasb-korga ega bo‘lsa, bunday illatlardan uzoq bo‘ladi.

Savollar.

1. Matnga «Hayot qoidalari» deb sarlavha qo‘yilishining sababi nimada?
2. Sizningcha yana qanday hayot qoidalari bor?



Adabiy o'qish

O'tkir Hoshimov

(1941-2016)



Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentda ishchi oilasida tug'ildi. U o'rta maktabni bitirgach Toshkent Davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida ta'lim oldi. Uning birinchi ocherklar to'plami «Po'lat chavandoz» nomi bilan nashr etildi. So'ngra «Cho'l havosi», «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi», «Bahor qaytmaydi», «Qalbinga quloq sol», «Uzun kechalar», «Nimadir bo'ldi», «Quyosh tarozisi», «Dunyoning ishlari» hikoya va qissalari to'plamlari hamda «Nur borki soya bor», «Ikki eshik orasi» romanlari bosib chiqildi. Uning «Tushda kechgan umrlar» romani chop etilgan. Unda shaxsga sig'inish va qatag'onlik davri illatlari haqida hikoya qilinadi. «Birovning tashvishi» nomli psixologik dramasi sahna-lashtirildi. Bundan tashqari O'tkir Hoshimov Markaziy Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan «To'ylar muborak», «Sizdan u gina, bizdan bu gina» kabi pyesalar muallifidir. O'tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari» qissasi uchun Oybek nomidagi hamda «Ikki eshik orasi» romani uchun Xamza nomidagi Respublika davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. El va yurt e'tirofiga sazovor bo'lgan O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov 2016-yilda vafot etgan.



7-topshiriq. Hikoyani o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Laylak

(hikoya)

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... kunlarning birida ona-bola qishloqqa – uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo'lishdi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi

manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko‘rib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun bir qush turar edi.

Bola mo‘jiza ko‘rgandek taqqa to‘xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o‘sha tomondan ko‘z uzmay.

– Laylak, o‘g‘lim, laylak! – ona o‘g‘lining boshini silab qo‘ydi. – yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to‘xtab qoldi.

– Nima u oyi? – dedi tag‘in chinor uchiga ko‘z tikib.

– Laylak, o‘g‘lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

– Bir oyog‘i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bo‘ynini cho‘zib tumshug‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda «tarak-tarak» degan ovoz eshtilardi.

Bola tag‘in to‘xtab qoldi.

– Nima o‘zi u, oyi?

Uning ko‘zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turar. Mingta yumushi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.



– Laylak, dedim-ku jinnivoy, – deb ohista egilib, o‘g‘lining yuzidan o‘pdi. – senga salom beryaptida.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

...Oradan o‘ttiz besh yil o‘tdi. Bola yigit bo‘ldi. Onasi keksayib qoldi. Oyog‘idan mador, ko‘zidan nur ketdi.

Kunlarning birida ona-bola ittifoqo yana o‘sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g‘oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosgancha harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali bor ekan. Buni qaranki, chinorning tarvaqaylab

o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydi-yu qadamini tezlatdi. Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

– Anavi nima, o‘g‘lim? – dedi to‘xtab.

– Laylak, oyi laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to‘rt qadam yurib to‘xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarimb ko‘rinyapti. Qiziq...

– Nima, o‘g‘lim? – dedi ko‘zlarini pirpiratib. O‘g‘il taqqa to‘xtadi. G‘ashi kel-di. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo‘lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyaqman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko‘p. Hali shaharga qaytishi kerak...

Uning g‘o‘r, go‘dak bolalari bor...

Lug‘at

qaddi – стан, фигура

alang-jalang – растерянный

guzar – оживленное место

bahaybat – огромный

hayrat – удивление

mingta yumush – тысяча дел

keksaymoq – стареть

ittifoqo – случайно

toliqmoq – уставать

tarvaqaylamoq – раздаваться
(вширь)

g‘ashi keldi – *здесь*: раздражён

navqiron – молодой человек

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matn asosida savollar tuzing.
2. Matn mazmunini so‘zlab bering.
3. «Laylak» hikoyasining qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
4. Hayotda shu hikoyaga o‘xshagan voqealarni bilasizmi?



Uyga vazifa. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga misollar yozing.

13-mavzu. Mehnat – kelajak poydevori (Qo‘shma gap turlarining ma’nodoshligi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Berilgan rasm asosida zamonaviy uylar, yaratilayotgan bog‘lar haqida suhbatlashing.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Hunarning xosiyati

Qadim zamonda bir hunarmand odam bor ekan. U ertalabdan kechgacha tinmay mehnat qilar, taq-tuq qilib, egar-jabduq yasar, ertasiga o‘sha mahsulotini sotib, bola-chaqasini boqar ekan.

Oilasi nihoyatda ahil, hamjihat bo‘lib yashar, boriga sabr-u qanoat qilib, kun kechirar ekan. Ularning nihoyatda boy qo‘shnisi bor ekan.

Qo‘shnisi ularning ahilligini ko‘ra olmas, taqir-tuqur joniga tekkan ekan.

Bir kuni boy kambag'al qo'shnisirikiga chiqib shunday debdi:

— Agar egar-jabduq yasaydigan asbob-u dastgohingni menga bersang, buning evaziga senga bir qop oltin berar edim.

Kambag'al qo'shni bir qop oltinning daragini eshitib, darrov rozi bo'libdi:

— Mayli, ola qoling. Kun bo'yi ishlab charchayapman. Jonimga tegdi bu dastgohlar.

Kunlar o'taveribdi. Kambag'al qo'shni nihoyatda ozib ketibdi.

U kechasi yaxshi uxlay olmas, yarim kechada dir-dir titrab, o'rnidan turar, oltinlarni hali u yerga, hali bu yerga berkitar, bezovta hayot kechirar ekan.

Oqibat shunday bo'libdiki, kasalga chalinib qolibdi. Oxiri oltinlarni boyga qaytarib, o'z asbob-dastgohini qaytarib olibdi.

Ko'p o'tmay, kambag'al tuzalib ketibdi, yana uning uyidan taq-tuq ovozlari eshitaladigan bo'libdi.

Kambag'al o'z hunari bilan oilasini betashvish boqa boshlabdi.

◆◆ Bilib oling!


Zidlik, sabab, shart, payt ma'nosi nutqda bog'lovchisiz, bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar vositasida ifodalanishi mumkin. Shu bois bunday gaplar bir-biriga ma'nodosh bo'lib qo'llana oladi.

Masalan: Bir kishi ariq qazyidi, ming kishi suv ichadi. – Bog'lovchisiz qo'shma gap. Bir kishi ariq qazyidi va ming kishi suv ichadi. – Bog'langan qo'shma gap.


Bir kishi ariq qazisa, ming kishi suv ichadi. – Ergashgan qo'shma gap.

▶ **1-mashq.** Maqollarni o'qing, mazmunini tushuntiring. Tuzilishiga ko'ra qanday gap ekanligi va bog'lanish vositalarini ayting.


1. Mehnat – mehnatning tagi rohat. 2. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. 3. Mehnat qilib topganing, qand-u asal totganing. 4. Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan. 5. Mehnatdan topilgan nondan aziz narsa yo'q. 6. Mehnatda topishgan do'st ajralmas do'st bo'ladi. 7. Birlashgan o'zar – birlashmagan to'zar.

 **2-mashq.** Berilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni bog‘langan yoki ergashgan qo‘shma gaplarga aylantirib ko‘chiring.

1. Qor yog‘di – don yog‘di. 2. Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer. 3. Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra. 4. Yurt tinch, sen tinch. 5. Ota-onang – davlating, o‘g‘il-qizing – savlating. 6. Yaxshi o‘g‘il – el obro‘si, yaxshi qiz – uy obro‘si.

 **3-mashq.** Chap tomondagi gaplarning davomini o‘ng tomondagi gap bilan to‘ldiring. Ularda qanday ma’no ifodalanayotganini ayting.

Sepli bo‘lmasa ham,	ertaga qo‘yama.
Yerdan topib olsang ham,	so‘rab kir.
Avval o‘yla,	sanab ol.
Boshingga qilich kelsa ham,	ko‘nglimiz keng.
Chumchuq so‘ysa ham,	keyin so‘yla.
Bugungi ishni	to‘g‘ri gapir.
Eshik ochiq bo‘lsa ham,	qassob so‘ysin.
Uyimiz tor bo‘lsa ham,	epli bo‘lsin.

 **3-topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

Qarz

– Bobo, buvim aytmoqchi,
Hech tinchimas ekansiz.
Charchab qolaman demay,
Muncha ko‘chat ekasiz?


– Vaqtu fursat g‘animat
Qarzimdan qutulayin.
Bog‘ qoldirib o‘zimdan
So‘ng xotirjam bo‘layin.

– Qarz? Kimdan qarzdorsiz?
– Odamlardan, toychog‘im
Axir mening ham senday
O‘tgan bolalik chog‘im.


Bobolar ekib ketgan
Mevalardan yeganman.
Ko‘rmasam ham ularni
Suyib rahmat deganman.

Mendan ham bolalarga
Yodgor bo‘lib bog‘ qolsa.
Qarzimdan qutulaman
Undan el bahra olsa.

Sultonmurod Hojiboyev

 **Uyga vazifa.** She‘rni yod oling. Siz mahallangizda, ko‘changizda o‘tkaziladigan hasharlarda nima ishlar qilishingiz haqida yozing.

2-dars

 **4-topshiriq.** Matnni o‘qing. Rivoyat haqida o‘z fikringizni ayting. Hayotda shunday voqealarga duch kelganmisiz? Savollar tuzing.

Buloq

(rivoyat)

Balandda, tog‘-*u* toshlar orasida buloq ko‘z ochdi. Suvi tip-tiniq, muzdek, shabnamday toza. U bu yorug‘ dunyoga chiqish uchun qanchalar kurashdi, metindek tog‘lar bag‘rini yorib o‘tib, niyatiga yetdi. Quyoshni ko‘rdi. Buloq suvining niyati – ona yerni quchish, odamlar mehriga to‘yish. O‘ziday musaffo qalbli bolalarning sho‘xligiga sherik bo‘lish, buvi va bobolarning ko‘zlariga nur bag‘ishlash, ularning yuzlarini siypalash edi. Ammo...

Yo‘lda to‘siqqa duch keldi. Jilg‘a bo‘ldi. So‘ngra shalolaga aylandi. Bundan xursand edi. Izlagan yaxshi odamlarini topdi. Ular buloq suvini avaylashdi, miriqib ichishdi, bog‘larini sug‘orishdi, ko‘zalariga to‘ldirib e‘zozlashdi.

Afsus, uning bu quvonchi uzoqqa cho‘zilmadi. Dunyoda har xil odamlar bor ekan. Biri uning suviga e‘tibor bersa, biri qadriga yetmadi, har tomonga bo‘lib yubordi. Yo‘lda nimalar qo‘shilmadi unga, bilmadi. Rangi o‘zgardi. Tikanaklar, xascho‘plar qalbini pora-pora qildi. Bunga ham chidadi. Yana kimlardir mashinasini ham yuvdi. Buloq suvi bulg‘andi, ko‘lmakka aylandi, oxiri kerak bo‘lmay qoldi. U odamlarning befarqligiga achindi va rangi sarg‘aydi...

Lug'at

quchmoq – обнимать

musaffo – чистый, прозрачный

chidamoq – терпеть, выдерживать

bulg'amoq – пачкаться

befarq – безразличный

ko'lmak – лужица

quvonch – радость

shohid bo'lmoq – быть свидетелем

pora-pora qilmoq – разрывать

◆ Bilib oling!

Qo'shma gap turlarining o'zaro ma'nodosh bo'lib qo'llanishi nutqning boyligidir. Bu sintaktik sinonimiya deb ataladi va bir fikrni turli vositalar orqali ifodalashga yordam beradi.

◆ **4-mashq.** Berilgan maqollarni namunadagi jadvalga joylashtiring. Qaysi gaplar ma'nodosh shakllarda qo'llanib kela oladi? Bog'lanish vositalarini ko'rsating.

Namuna:


Bog'lovchisiz qo'shma gap	Bog'langan qo'shma gap	Ergashgan qo'shma gap
Yaxshilik nur keltirar, yomonlik – zulmat.	Yaxshilik nur keltirar, yomonlik esa zulmat.	Yaxshilik nur keltirsa, yomonlik zulmat keltiradi.

1. Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat.
2. Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod.
3. Yaxshi bo'lsang, yasharsan, nasibangni osharsan.
4. Yaxshilikni qil -yashir, yaxshilikni – ko'r, oshir.
5. Yaxshidan bog' qolar, yomondan – dog'.
6. Do'st do'stni kulfatda sinar, odam odamni – mehnatda.

◆ **5-mashq.** Matni o'qing. Gaplarning turlari va bog'lanish vositalarini aniqlang.


Har yili bahorda maktabimizda tez-tez hashar o'tkaziladi. Bunda maktabimiz bog'iga turli mevali daraxt ko'chatlari ekiladi, oqlanadi, ariqlar tozalanaadi. Bunday ishlarni odatda o'g'il bolalar bajaredilar, qizlar esa maktab hovlisini va binoning ichini tozalaydilar. Deraza oynalarini, javonlarni, partalarni artadilar, gullarga suv quyadilar. Maktab atrofi ham supurib tozalanadi.



 **Uyga vazifa.** Dam olish kunida quyida berilgan ish turlaridan qaysilarini bajarishingiz, oyingiz yoki dadangizga qanday yordam berishingiz haqida matn tuzing:

- Uylarni yig‘ishtirdim.
- Hovli va ko‘chani supurdim.
- Ko‘chamizdagi ariqlarni tozalashga qarashdim.
- Ovqat pishirishga va kir yuvishga yordam berdim.
- Buvam bilan buvimlarni ko‘rib keldim.
- Buvimning uylarini yig‘ishtirib keldim.
- Dadam bilan ro‘zg‘or uchun bozor qilib kelishga qarashdim.
- Ukamga qarab turdim.

3-dars

 **5-topshiriq.** Matnni o‘qing. Bog‘da qilinadigan ishlarni tartib bilan sanab ko‘rsating.



Bog‘dagi ishlar

Bog‘imiz tekislik yerda emas, terak bo‘yi chuqurlikdan oquvchi Chaqar arig‘i va Bo‘z suvlarning qo‘shilish yerida, jar bo‘yida joylashgan. Shuning uchun manzarasi go‘zal, tomosha qilsa, bahri-dili ochiladigan joydir. O‘t-o‘lan va meva gullariga belangan bog‘, bulbullar navosi, chumchuq va yana allaqanday qushlar sadosi, ariq suvining mayin shildirashi bilan to‘lib toshganday tuyulardi. Hammadan hovuz bo‘yida ochilib yotgan atirgul, qirqog‘ayni, gulsapsarlarni, ishkom ichidagi chuchmo‘ma, lolaqizg‘aldoqlarni, ariq labidagi xushbo‘y yalpiz, gunafshalarni aytmaysizmi...

Bahorda bog‘da ish qaynardi. Hovuz labidagi tol novdalarini kesish, butash, toklarni ochish, ariq tozalash, yerlarni chopib, ekinga joy hozirlash va hokazo. Bog‘imizda uzumning juda ko‘p navlari, shuningdek, olma, nok, shaftoli, gilos, olcha, tog‘olcha, olxo‘ri, do‘lana, tut, yong‘oq

daraxtlari o'sar, qulupnay va rezavor o'simliklar ekilar edi. Bular yozi bilan galma-gal pishib yetilar va dasturxonimizni bezar edi. Bog'imiz shunday farovon bo'lishidanmi, yozda dadam vaqtini uyda dam olish, ekin-tekinlarga qarash, qarindosh-urug'larnikiga qovun va bog' sayliga borish bilan o'tkazar edilar.

Habibulla Qodiriy



6-mashq. Matndan olingan ushbu gaplar tuzilishiga ko'ra qanday gapligini ayting. Ularda qo'llangan bog'lovchi vositalarni ko'rsating.

1. Bog'imizda uzunning juda ko'p navlari, shuningdek, olma, nok, shaftoli, gilos, olcha, tog'olcha, olxo'ri, do'lana, tut, yong'oq daraxtlari o'sar, qulupnay va rezavor o'simliklar ekilar edi.

2. Bular yozi bilan galma-gal pishib yetilar va dasturxonimizni bezar edi.

3. Bog'imiz shunday farovon bo'lishidanmi, yozda dadam vaqtini uyda dam olish, ekin-tekinlarga qarash, qarindosh-urug'larnikiga qovun va bog' sayliga borish bilan o'tkazar edilar.



6-topshiriq. O'qing. Suhbatda berilgan gaplarning ma'nolarini tushuntiring.

Abdulla Qodiriy bog'da ishlayotganida bir odam o'tib ketayotib:

– Ha, ishlayapsizmi? – deb so'rabdi.

– Yo'q, dam olyapman, – deb javob beribdi yozuvchi.

Ma'lum vaqtdan keyin boyagi odam qaytib o'tsa, Qodiriy bog'da o'ylanganicha aylanib yurgan ekan.

– Ha, dam olyapsizmi?

– Yo'q, ishlayapman, – deb javob qilibdi ijod olamiga sho'ng'igan yozuvchi.




Uyga vazifa. Berilgan jadvalni to'ldiring va qo'shma gaplar haqida nimalarni bilib olganingiz, yana nimalarni bilmoqchiligingizni yozing.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman
...



Adabiy o'qish

Abdulla Qodiriy (1894-1938)



O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, o'zbek romanchiligiga asos solgan, o'tkir iste'dod egasi Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tug'ildi. Adibning ilk ijodi «Oyna» gazetasida bosilib chiqqan «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y» kabi she'rlardan boshlangan. U ma'rifatparvar va millatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqdi. Uning «Baxtsiz kuyov» nomli fojeasi, «Juvonboz», «Uloqda» kabi hikoyalarida ham o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. Abdulla Qodiriy Moskva jurnalistlar institutida tahsil oldi. So'ng «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladi.

Abdulla Qodiriyning birinchi o'zbek romani. «O'tkan kunlar» uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi. Yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi. Abdulla Qodiriy qishloq xo'jaligi mavzusiga bag'ishlangan «Obid ketmon» qissasini yaratdi. Biroq asarlari bilan xalq orasida yuqori obro' qozonib, nihoyatda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan noyob iste'dod egasi Abdulla Qodiriy qatag'on qilinib, ijodining eng gullagan vaqtida 44 yoshida otib o'ldirildi. Uning asarlari 1956-yildan keyingina yangidan nashr etila va erkin o'qila boshlandi. Uning asarlari asosida badiiy filmlar yaratildi.


O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Abdulla Qodiriyning nomini abadiylashtirishga qaratilgan qator farmonlar berildi. 1990-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkentdagi eng katta xiyobonlardan biri, qator ko'chalar, maktablar, mahallalar va oliygohlar uning tabarruk nomi bilan ataladi. Uning nomi bilan yuritiladigan Toshkent davlat madaniyat institutida Abdulla Qodiriy nomidagi stipendiya ham beriladi.

7-topshiriq. Matnni o‘qing. So‘zlab bering va savollar tuzing.

Mehrobdan chayon

(romandan parcha)

Anvar supada o‘rda yumushlaridan ba’zisini tahrir qilish bilan mashg‘ul ekan, ichkaridan Ra’no chiqib keldi. Go‘yo Anvar Ra’noning kelishidan xabarsizcha o‘z ishiga qattiq berilgan edi. Ra’no ohistagina Anvarning yoniga kelib, supaga suyandi, ikki qo‘li bilan iyagini ko‘tarib, oraliqdan Anvarning tahririga qaradi. Anvar ham muloyimgina kulimsib Ra’noga ko‘z qirini tashlab olgach, go‘yo iltifotsiz, yana qalamini qoralab, qog‘oz ustiga bir-ikki kalima yozdi. Ammo uchinchi kalimaga o‘tganda qalami qo‘lida o‘ylanib qoldi va boyagidek yonidagiga kulimsib qaradi. Ra’noning ham ko‘zi unga to‘qnashib bir oz bir-birlariga kulimsiragan holda tikilishdilar...



- Nega to‘xtadingiz, yoza bering!
- Sening qilgan ishing doim shunday, Ra’no!
- Masalan?
- Masalan... Hamisha ish chog‘ida kelib, fikrni bo‘lasan.
- Men oraga so‘z aralashtirdimmi?.. Yoza bering, men shunday qarab tura beraman.
- Anvar Ra’noga o‘nglanib o‘tirdi.
- Foydasi yo‘q, endi fikrni o‘g‘irlading!
- Men fikr o‘g‘risi emasman... Qani yozing!
- Anvar qo‘lidagi yozilgan qog‘ozni qo‘yib, ikkinchi oq qog‘ozni oldi.
- Endi boshqa narsa yozaman!

- Mayli, yozing!
- Sen ham javob yozsang, xo‘pmi?
- Xo‘p.
- Tunov kundagidek javob topolmasang nima qilay?

Ra’no supaga oyoq solintirib o‘tirib oldi.

- Yuzimga bir shapaloq uring, lekin saj’ va qofiyasi oson bo‘lish sharti bilan!
- Ma’qul! –deb kuldi Anvar va Ra’noga qaragan holda o‘ylandi. Bu o‘ylanishdan Ra’no qoshlarini chimirib e’tiroz etdi:
- Ko‘p o‘ylamang!

Anvar javob berish o‘rniga qalamini qoralab yozdi:

Agar Farhodning Shirin, bo‘lsa Majnunlarning Laylisi,
Nasib etmish menga gulshan aro gullarning «Ra’no»si.

Anvarning qalamidan qog‘ozga tushib borgan so‘zlarni ta’qib etgan Ra’no,

qog‘ozdan ko‘zini olib, qizarindi va bosh chayqab teskari qaradi.

– Qani javob, Ra‘no!

Ra‘no shu ko‘yi bir oz Anvarga qaramay turdi va qayrilib uning qo‘lidan qalam-qog‘ozni oldi va:

– Uyat qilmaysizmi? – deb so‘radi.

– Mening yozganimni sen uyat qilmasang, men ham sening yozganingni uyat qilmayman. Lekin shart shuki, mening ikki yo‘limga ayni javob bo‘lsin!

Ra‘no biroz o‘ylanib, Anvardan yashirincha yozdi:

Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,

Ne baxt, Ra‘no, xaridoring talab ahlining mirzosi.

Ra‘no yozuvini Anvarning oldiga tashlab, qizargan va kulimsiragan holatda chopib gullar yoniga ketdi. Anvar javobni o‘qib zavqlandi:

– Ofarin, Ra‘no, lekin birovning ustidan ortiqcharoq mubolag‘a qilibsan!

Ra‘no gullar yonidan Anvarga jiddiy qaradi:

– Siz ham mubolag‘a qilgan edingiz!..

– Meniki mubolag‘a emas! – dedi Anvar, – masalan, sen hozir gullar yonidasan ham chindan-da gullarnng ra‘nosisan... Mana, men yana yoza boshladim. Javobga hozirlan, Ra‘no!

Ra‘no yugurib Anvarning yoniga keldi va uning qalamidan tomgan so‘zlarni o‘qib bordi:

Hamisha xavfda ko‘nglim bu muhabbat intihosiga,

Meni ham etmasa majnun debon Ra‘noning savdosi.

Ra‘no keyingi misrani o‘qib o‘ylanib qoldi. Anvar hozirgi Ra‘noning o‘ychan ko‘ziga anchagina tikilib turgach, kulimsidi:

– Javobi qiyin keldimi, Ra‘no?

– Qalamni bering! – dedi Ra‘no o‘pkalagan qiyofada qo‘l uzatib, – o‘ylagani ham fursat bermaysiz!

... Yozdi:

Muhabbat jomidin no‘sh aylagan ahli zako bo‘lmush,

Fununi tibda majnundir kuysa kishining safrosi.

– Engding, Ra‘no! – dedi Anvar, – lekin keyingi misrada bir xato qilding...

– Masalan?

– Tibning aytishicha, safro emas, qon kuysa, kishi jinni bo‘ladi...

– Qonning buzilishiga avval safroning kuyishi kerak, safro kuymay turib qon buzilmaydi... Xo‘sh, yana yozasizmi, yoki yengildingizmi?

– Engildim...



Uyga vazifa. Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.

14-mavzu. Milliy liboslar

(Ko'chirma gaplar, ularda tinish belgilarining qo'llanishi)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasm asosida suhbatlashing. O'zbek milliy liboslarining ko'rinishlariga o'z munosabatingizni bildiring.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o'qing.

Milliy liboslar o'zbek xalqining boy madaniy an'analari, turmush tarzi va boy tarixiy ildizlaridan darak beradi. O'zbek milliy kiyimi – o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlardir. Milliy kiyimlar har bir mintaqada o'ziga xos farq va xususiyatlar bilan ajralib turadi.

O‘zbek milliy libosiga ayollar uchun – zar chopon, do‘ppi va nimcha, erkaklar uchun do‘ppi, chopon, belbog‘ va yaxtak kiradi. O‘zbek milliy libosi jahonda o‘z o‘rniga ega. Masalan dunyoning turli joylaridan kelgan mehmonlar O‘zbekistonning milliy libosi va madaniyatiga yuqori baho berishmoqda. O‘zbek milliy libosi va madaniyati o‘zgacha jozibadordir. Hozirda o‘zbek tikuvchilari chet mamlakatlarga borib ularga o‘zbek libosini o‘ziga xos jihatlarini namoyon qilishmoqda. O‘zbekistonga mehmon bo‘lib kelgan sayohatchilar vatanimizni tarixiy obidalari, me‘morchilik san’ati, milliy urf-odatlariga katta qiziqish bilan e’tibor beradilar. Esdalik sifatida atlas, do‘ppi, belbog‘, chopon va boshqa me‘morchilik uslubida ishlangan sovg‘alar olib ketadilar.

Do‘ppi – O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do‘ppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. O‘zbekistonda Chust, Toshkent, Samarqad, Buxoro, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur. Ayniqsa, Chust do‘ppilari keng tarqalgan bo‘lib, O‘zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida tayyorlanadi.

Chopon (to‘n) o‘zbek xalqining qadimiy – ustki milliy kiyimlaridan biridir. Choponni O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida erkaklar ham ayollar ham kiyishadi. Chopon zar va ipaklar bilan bezak berib ham tikiladi.



Lug‘at

milliy libos – национальная одежда

me‘morchilik – зодчество, строительное искусство, архитектура

deyarli – почти, почти что

urf-odatlar – обычаи и традиции

uzviy bog‘liq – органическая связь

tarixiy obidalar – исторические памятники

o‘z o‘rniga ega – имеет свое место

o‘zgacha jozibador – притягивающий по-иному

xos jihatlari – свойственные аспекты

◆ Bilib oling!

O‘zgarar nutqini aynan, o‘zgarishsiz berish **ko‘chirma gap** deyiladi. Ko‘chirma gap 2 qismdan: ko‘chirma va muallif gapidan iborat. Ko‘chirma gaplar muallif

gapidan oldin, keyin yoki uning o'rtasida kelishi mumkin. Ko'chirma gaplar qo'shtirnoq ichiga olinib yoziladi. Muallif gapining kesimi dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zladi, aytdi kabi fe'llar bilan ifodalanadi.

Masalan:

«Ertaga muzeyga boramiz», – dedi o'qituvchimiz.

O'qituvchimiz dedi: «Ertaga muzeyga boramiz».

O'qituvchimiz: «Ertaga muzeyga boramiz», – dedi.

Ko'chirma gaplarning tuzilishi va ularda qo'llanadigan tinish belgilarni bilib oling!

«K», – m.

«K? », – m.

«K!» – m.

M: «K».

M: «K?»

M: «K!».

«K, – m, – k».

«K, – m. – k!»

«K, – m, – k?»

M: «K», – m.

M: «K?» – m.

M: «K!» – m.



1-mashq. Gaplarni o'qing. Ko'chirma gaplarning qanday yozilishiga e'tibor bering.

1. «Men maymunjon terгани shu yerga kelgan edim», – dedi Qo'ziboy.
2. «Qani, ukajonlar, ashulani to'xtatmanglar!» – dedi Marhamat.
3. «Arilarning g'ashiga tega ko'rmanglar, bir yopishsa qo'ymaydi!» – deb ogohlantirdi Olimov.
4. «Men har yili yozda Burchmullaga kelaman», – dedi Zebo.
5. «Bugun biz, – dedi guruh sardori, – universitet bo'yicha navbatchimiz».
6. Direktorimiz: «Maktab mulkini ko'z qorachig'iday saqlang!» – deydilar.



2-mashq. Tushirilgan tinish belgilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Shodmon aka kulib dedi Chirchiq, Bekobod shaharlariga borsangiz og'zingiz ochilib qoladi.
2. Eng og'ir kunlarda ham yaylovdan kechmaganman, endi tashlab ketarmidim deb javob berdi Yo'ldosh bobo.
3. Poda shov-shuvi ichida Polvon otaning qo'rqma, chirog'im, polvonning qo'lidan mol bolasi qochib qutulgan emas degan ovozi eshitildi.
4. Onam buvimga qarab dedi qo'ying, o'qisin, mulla bo'lsin bolam.

Mustaqil ish. Ona tilingizga tarjima qiling va daftaringizga ko‘chiring.

1. Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt. 2. Aytilgan yerga bor, erinma, aytilmagan yerda ko‘rinma! 3. Kelar eshigingni qattiq yopma. 4. Havo ochiq. Shimol tomondan esayotgan yengil shabada quyosh taftini bir oz bosib turardi. 5. Savolni javobsiz qoldirma, do‘stingni e‘tiborsiz. 6. Ulug‘lik yoshda emas, boshda.



Uyga vazifa. Gaplarni o‘qing. Ko‘chirma gaplarni tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib yozing.

1. // bugun kim navbatchi // // // deb so‘radi o‘qituvchimiz // 2. Komila // // men bilan ketadiganlar bormi // // // deb so‘radi // 3. // arilarning g‘ashiga tega ko‘rmanglar // bir yopishsa qo‘ymaydi // // // deb ogohlantirdi asalarichi. 4. // men har yili yozda Burchmullaga kelaman // // // dedi Zebo. 5. // bugun biz // // dedi sinf sardori // // maktab bo‘yicha navbatchimiz // //

2-dars



3-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing. O‘zingiz ham suhbat yarating.

Sotuvchi: Assalomu alaykum, xush kelibsiz! Xizmat. Nima xarid qilmoqchi edingiz?

Xaridor: Vaalaykum assalom, rahmat, agar mumkin bo‘lsa, menga maslahat bersangiz.

Sotuvchi: Bajonidil, eshitaman, xizmat.

Xaridor: Hozir urf bo‘lgan adras, atlas matolaridan xarid qilishimga yordam bersangiz. Hozir qaysi rang, qaysi adras yoki atlas urfda. Men qizimga va o‘zimga bir xil qilib olmoqchi edim.

Sotuvchi: Siz to‘g‘ri qaror qilgansiz. Bizning do‘konga kelib. Bu yerda eng so‘nggi rusumdagi asl mollar bor. Hozir emas, asrlar davomida ota-bobolarimizdan



meros bo‘lib kelayotgan adras, atlaslar urfdan qolmagan. Bular o‘zbek xalqining milliy matolari hisoblanadi. Sayillar, bazmlar, hatto kunlik ishga ham bu matolardan bejirim ko‘ylaklar tiktirib, yal-yal yondirib, ko‘zlarni quvontirib kiyishayapti. Marhamat, qaysi rangni xohlaysiz, atlas va adraslarning yirik va mayda nusxali turlari ham bor. Menimcha, sizga yashil, binafsharang yoki qora rangdagi mayda nusxali adraslar to‘g‘ri keladi. Chunki bo‘yingiz baland, to‘ladan kelgan chiroyli ayol ekansiz. Bu adraslar sizni yana ham ochadi, husningizga husn qo‘shadi. Qizingizga kel-sak, u ham kelishgan ekan. Ularga qizil, pushti, sariq rangdagi adraslar to‘g‘ri keladi. Bu ranglar ularning husnini yana ham ochadi.

Xaridor: Rahmat sizga, menga ham binafsharang adras yoqdi. Shu adrasdan necha metr olsam bo‘ladi. Qizimga pushti rangli adrasni olamiz. Qizimga necha metr olishim kerak?

Sotuvchi: Mening taklifim, o‘zingizga 10 metr, qizingizga 7 metr olsangiz bo‘ladi.

Xaridor: Maslahatingiz uchun rahmat o‘rab bering.

Sotuvchi: Marhamat, kelib turing, xaridingiz uchun rahmat.

Xaridor: Rahmat, salomat bo‘ling. Sizning doimiy xaridoringiz bo‘lamiz.

◆ Bilib oling!

Ko‘chirma gaplar ko‘proq dialogik nutqda ishlatiladi. Bunda ko‘chirma gaplar badiiy asarlarda qo‘shirnoqlarsiz, xat boshidan faqat tire qo‘yilgan holda yozilishi ham mumkin.


Masalan: Xudoyberdi Navoiyga qarab dedi: – «Hazratim, tandrni quolmadim». Navoiy unga javoban dedi: – «Tandirni quolmas ekansan, uyni qanday qurasan?».

Rivoyatdan


3-mashq. Ma’lumot uchun berilgan muallif gaplaridan mosini qo‘yib gaplarni davom ettiring.

1. Guruhimiz a’zolari sport musobaqalarida birinchi o‘rinni oldilar... 2. Bizga choy keltirib bersangiz... 3. Qirg‘ovul bilan bedana... hech qachon tushgan joyida turmaydi. 4. To‘g‘ri, bizning guruh bu yil rejani ortig‘i bilan bajarishni mo‘ljallagan... 5. – Sherali... otlaring poygaga tayyormi? – tayyor, egarlasam bo‘ldi...

Ma'lumot uchun: (dedi Lola, deb iltimos qildi Mehri opa, dedi Qo'chqor kulib, deb tasdiqladi Mardon, dedi Mehri opa, deb dadil javob berdi Sherali).

 **4-mashq.** Quyidagi maqollarni muallif gapi va zarur tinish belgilarini qo'yib o'qing va yozing.

1. Tabassum yaxshilikning belgisidir ... 2. ... sen o'zingni emas, o'zga seni maqtasin. 3. Har orzuning avval boshi mehnatdir ... 4. ... qimirlagan qir oshar. 5. Mehnat bilan o'tgan umr ... el ko'nglini chog'etadi. 6. ... hali yoshsan, kattalardan eshit, o'rgan ... 7. Mehnatsevar bo'lsak, ... ezmalik bizdan nari bo'ladi. 8. Olim bo'lish oson, ... odam bo'lish qiyin. 9. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, balosi yuqar ...

 **4-topshiriq.** Berilgan matnni o'qing va mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkazing.

Bilganimda edi...

U yangi do'ppisini boshidan olib, javonga qo'ydi. Keyin qog'ozga o'rog'liq allanimani ohista ochdi. Ko'zlarida yosh paydo bo'ldi. Haligi qog'ozni stol ustiga qo'yib, ichidan bir oz uringan do'ppini olib kiydi.

– Kattaroq-ku, bolam, – dedi uni kuzatib turgan onasi o'g'liga yaqinlashib, – yangi do'pping tuzukmidi? ..

Akbarning o'zi ham buni biladi. Lekin shu Chust do'ppini asrab qo'yishga ahd qilgan-da. Akbar onasining bo'ynidan quchdi.


– Xolangga salom ayt, ertaga, albatta, borarmishsiz, degin.

– Xo'p.

Akbar yo'lda bir mo'ysafidga duch keldi. Uning qo'lida katta tugun bor edi. Aftidan charchagan ko'rinar edi. Akbar indamay o'tolmadi. Salom berdi. Chol alik ola turib:

– Shu tugunimni ko'tarib yubor bolam, uyim huv narigi ko'chada, – dedi.

Akbar otaning so'zini ikki qilolmadi...

 **Uyga vazifa.** O'z xalqingizning milliy liboslari haqida ma'lumot to'plab keling.

3-dars

Adabiy o‘qish

◆ 5-topshiriq. Matnni o‘qing, berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

Atlas qadimiy va milliy matolardan biridir

Har bir xalqning o‘z milliy urf-odatlari, an‘analari bo‘lgani kabi o‘zbek xalqining ham minglab asrlarga mansub milliy urf-odatlari, an‘ana-yu madaniyati bor. Xalqimizning milliyligi uning yurish-turishida, kiyinishida ham namoyon bo‘ladi. Biz milliy matolarimiz to‘g‘risida ma‘lumot berishni joiz deb topdik. Milliy matolarga atlas, adras, beqasam kabi bir-biridan bejirim, serjilo matolar kiradi. Atlas O‘zbekistonda keng tarqalgan ayollar libosidir, bu libos ipakdan tayyorlanadi.




O‘zbekistonda ipakchilik rivojlanganligi uchun atlas deyarli hamma viloyatlarda kiyiladi. Bu libosga har xil shakllar berib bezashadi. Bu esa o‘zbek ayollarini yanada jozibali qiladi. O‘zbekistonda eng mashhur atlas Marg‘ilon shahrida to‘qiladi.

Bu matolardan turli dizaynda liboslar tikiladi. Atlasdan ayollar liboslari, ko‘rpa, ko‘rpachalar, erkaklar qiyig‘i va boshqa buyumlar tikiladi. Atlasdan yana ayollar va erkaklar uchun choponlar ham tikiladi. Atlas va adrasning mashhur turlari ko‘p bo‘lib, hozirda atlas va adrasning o‘nlab turlari uchraydi. Bular quyidagilar: «Marg‘ilon», «Navro‘z», «Qora», «Shaxmat», «Nomozshom». Bugungi kunda milliy matolarimizni to‘qish san‘ati jadal rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari atlas va adrasdan milliylilik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan holda ko‘plab liboslar yaratilmoqda. Siz bu kabi liboslarning turfa xillarini uchratishingiz mumkin. Adras 1920-yillarda Marg‘ilon, Xo‘jand, Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda to‘qilib, Markaziy Osiyo bozorlaridan tashqari Afg‘oniston, Xitoy kabi qo‘shni mamlakatlarda ham sotilgan. Milliy matolar jilosi o‘zbek milliy matolari tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. O‘zbek hunarmandlarining qalb qo‘ridan yaralgan mato uzoq tarixga ega bo‘lgan milliy matomiz atlas ko‘plab qimmatbaho matolardan-da qadrliroqdir. «Atlas» so‘zi arab tilidan tarjima qilinganda tekis, silliq degan ma‘noni anglatadi. Atlas tabiiy ipakdan to‘qiladi. Atlas to‘qish Marg‘ilonda juda qadimdan

rivojlangan va boshqa joylarga tarqalgan. XX asr boshlarida bu yerda ko‘palab mo‘hir atlas to‘quvchilar bo‘lgan. Hunarmand ustalar tomonidan yaratilgan xalq amaliy san’atining nodir asarlaridan namunalarni ko‘rgazmalarda namoyish etish orqali o‘zbek xalqining boy merosini tashrif buyuruvchilarga, ayniqsa, O‘zbekiston yoshlariga va chet ellik mehmonlarga ko‘rsatishdir.

Matn yuzasidan savollar.

1. Atlasning qanday turlari mavjud?
2. Atlasning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Atlas kim tomondan to‘qiladi?

 **Uyga vazifa.** O‘zingizning milliy matolaringiz haqida yozib keling.

15-mavzu. Dunyo taomlari

(O‘zlashtirma gaplar. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish)

1-dars



◆◆ **1-topshiriq.** Berilgan rasmlar asosida dunyo taomlari haqida suhbatlashing.

◆◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mavzu yuzasidan suhbatlashing va savollar tuzing.

Yevropa mamlakatlari milliy pazandachiligi

Rossiya pazandachiligi o'ziga xos va o'zgachadir. Qadim zamonlardan beri rus xalqi nonvoychilik bilan shug'ullangan, bug'doy, yorma, arpa, sholidan foydalanib, har xil taomlar tayyorlangan. Yevropa va Osiyodagi ba'zi davlatlar singari xamirturush sirini ochishgan. Shuning uchun ham



rus xalqi tort, pirojniy, kulich, rastegay, oladi va boshqa ko'plab pishiriqlarni tayyorlagan. Xamirdan chuchvara, quymoq, pirog, ugra tayyorlashadi. Belarus oshxonasida eng milliy hisoblangan mahsulot – kartoshkadir. Kartoshka belarus xalqi uchun ikkinchi nondir. Kartoshkani har xil usulda tayyorlashadi. Vengriya un mahsulotlari bilan mashhurdir. Vengriya oshxonasi asosan sabzavotlardan, go'sht, baliq, parranda mahsulotlaridan tayyorlangan taomlarga boy. Germaniya pazandachiligida nemislar asosan buzoq, parranda, baliq go'shtidan keng foydalanadilar. Sabzavot mahsulotlarini qaynatilgan holda iste'mol qilishni xush ko'radilar. Avstriya pazandachiligi Angliyanikiga o'xshash. Ozgina farqi avstriyaliklar qo'y va mol go'shtini ko'proq iste'mol qiladilar. Baliqdan ham turli taomlar tayyorlaydilar. Polsha taomlari Rossiya, Ukraina, Belorussiya taomlariga o'xshaydi. Ular sabzavotli, go'shtli, baliqli taomlardir. Italiya oshxonasi 4 so'z bilan ifodalanadi. Makoron, sarimsoqpiyoz, zaytun yog'i va pomidor. Bundan tashqari Italiya pazandachiligida 1000 dan ortiq xamir mahsulotlari tayyorlanadi. Italiyaning milliy taomi spagettidir. Spagettining ma'nosi «O makarone» – bu qanday yaxshi va maza degan ma'noni bildiradi. Shu bilan birgalikda pitsaga alohida urug'u berib o'tish lozim. Chunki pitsa birinchi bo'lib Italiyada paydo bo'lgan va italyanlarning milliy taomlaridan biri sanaladi.

Lug'at

xamirturush – дрожжи

mahsulot – продукты

mashhur – известный, знаменитый

milliy taomlar – национальные блюда


iste'mol qilish – употребление

◆ Bilib oling!


Shakli o'zgartirilib, ammo mazmuni saqlangan holda berilgan o'zgalarning gapi o'zlashtirma gap deyiladi.

Masalan: Dildora ertaga kelishini aytdi.


O'qituvchimiz **hasharda hamma qatnashishi shartligini** ta'kidladi.

 **1-mashq.** O'zlashtirma gaplarni o'qing. Tinish belgilarining qo'yilishiga e'tibor bering.

1. O'qituvchimiz qanday kitob o'qiganimni so'radi. 2. Onam telefon qilib qachon uyga borishimni so'radi. 3. Yo'lovchi mashinani yo'l chetida to'xtatishni iltimos qildi. 4. Men darsga tayyorligimni aytdim. 5. Samolyotning ertaga uchishini telefon qilib aytdi. 6. Joyingizni menga berib turishingizni iltimos qildi.


 **2-mashq.** Berilgan o'zgalarning gapini o'zlashtirma gapga aylantirib yozing.

1. Oz-oz o'rganib dono bo'lur (*Alisher Navoiy*). 2. Insonni baxtli qiladigan narsa pul ham emas, jismoniy kuch ham emas, balki haqqoniylik va har tomonlama donoligidir (*yunon faylasufi Demokrit*). 3. Jahlning nihoyasi pushaymonlik bilan tugaydi (*Aflotun*). 4. Tili bor kishining tilsiz kishidan farqi – so'zi, ziynati esa to'g'riligidir (*Arastu*). 5. Beodobning yomonligi faqat o'zigagina emas, boshqalarga ham zarar yetkazadi (*Jaloliddin Rumiy*).


 **3-topshiriq.** Donolar hikmatini o'qing va mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkazing.

Ahmad Donish taqdir va mehnat haqida shunday deydi:

Agar inson taqdirga ishonib mehnat qilmasa, oziq-ovqat, kiyim topish uchun in tilmasa, yo'qchilikda, kambag'allikda yoki boylikda yashash uchun yaratilganman deb safсата sotsa, u yanglishadi. Bunday odam aqlsizdir. ... Inson foydali mehnat bilan shug'ullanishi kerak. U o'zining kuchi va harakati bilan kamol topadi.

 **3-mashq.** Berilgan ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirib yozing va tinish belgilaridagi o'zgarishlarni tushuntiring.

1. «Bu qanday bino, nimaga mo'ljallangan?» – dedi O'ktam. 2. «Xo'sh, sehrli qalpoqcha, meni agronom qilib qo'y», – dedi Hoshimjon. 3. «Yo'q, – dedi ikkinchi yo'lovchi, – mening qarindoshlarim O'zbekistonda yashaydi». 4. «Bugun hamma ishlarimni bajarishga ulgurdim», – dedi Aziz. 5. Navoiy: «To'g'ri bo'lsang o'sib borib gul bo'lasan, egri bo'lsang o'sib borib kul bo'lasan», – degan.

 **Uyga vazifa.** O'z xalqingizning milliy taomlaridan biri haqida yozib keling.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

Oshxona xodimi: Assalomu alaykum, xush kelibsiz, xizmat.

Xo‘randa: Vaalaykum assalom. Oshxonangiz nechagacha ishlaydi? Bugun kechgi soat oltida chet eldan kelagn hamkorlarimni mehmon qilmoqchi edim. Bo‘sh stol-lar bormi? Menga menyuni bersangiz.

Oshxona xodimi: Bo‘sh joy bor. Oshxonamiz kech soat 10 gacha ochiq bo‘ladi. Siz biz bilan hamkorlaringizni ko‘ngildagidan ham ziyoda mehmon qila olasiz. Bizning oshxonani tanlab to‘g‘ri qildingiz.

Xo‘randa: Unda bizga soat oltiga olti kishilik dasturxonni tayyorlab qo‘ysangiz.



Mehmonlarim oshni yaxshi ko‘radilar. Shu bilan birgalikda qo‘y go‘sh-tidan qilingan qovurdoq, qovurma sho‘rva, olti six kabob tayyorlab qo‘ysangiz.

Oshxona xodimi: Didingiz juda nozik ekan. Milliy taomlar bilan birgalikda, ularning ham taomlaridan tayyorlasak, nima deysiz?

Xo‘randa: Mehmonlarim rus, ingliz millatiga mansub. Ular nimalarni yaxshi ko‘rib tanovvul qiladilar? Shularni o‘rganib

tayyorlab qo‘ying.

Oshxona xodimi: Ishonchingiz uchun rahmat, aytganingizdek qilaman. Mevalar yeyishni xohlaysizmi, ichimliklardan-chi?

Xo‘randa: Mevalardan olma, uzum, shaftoli, qovun, tarvuzdan assorti tayyorlang. Albatta ko‘k choy, mevali sharbatlar bo‘lsin. Nonlardan obi non, patirdan qo‘yasiz.

Oshxona xodimi: Xo‘p, bo‘ladi. Aytgan vaqtingizga buyurganlaringizni tayyorlab qo‘yaman. Uchrashguncha xayr, sog‘ bo‘ling.

Xo‘randa: Kechqurun ushrashguncha, sog‘ bo‘ling.




5-topshiriq. Matnni o‘qing va matn asosida taomlar ro‘yxatini tuzing.

Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasi mamlakatlarining milliy pazandachiligi

Qozoq milliy oshxonasi keng ko‘lamda go‘sht, sut-qatiq, xamir ovqatlardan iboratdir. Yozda qozoq oilalarida ayron – suv bilan aralashtirilgan qatiq sovuq holda ichiladi. Unga bug‘doy, guruch solishadi. Qirg‘iz milliy taomlari vitaminlarga boy. Qirg‘iz xalqi asosan go‘sht, sut-qatiq, unli taomlarni tanavvul qiladi. Tojik milliy taomlari ko‘proq go‘sht mahsulotlaridan tayyorlanadi. Turkman milliy taomlari ham o‘zgacha. Turkman milliy taomlari birinchi navbatda o‘zbek va qoraqalpoq taomlariga o‘xshab ketadi. Turkman milliy oshxonasida eng yuqori o‘rinni go‘sht, sut-qatiq, xamirli taomlar egallaydi. Turkmanlar qo‘y, mol, parranda go‘shtini iste‘mol qilishadi. Ot go‘shtini iste‘mol qilishmaydi. Ozarbayjon milliy taomlari to‘yimlilik bilan ajralib turadi. Ozarbayjonliklar ko‘proq parranda go‘shti va baliq mahsulotlarini iste‘mol qilishadi. Keng tarqalgan taomlardan do‘lma, teftel sho‘rva, go‘shtli, no‘xatli, kartoshkali dovna-qatiqli. No‘xatli sho‘rva, mashhur do‘li kabob va boshqalar. Arman oshxonasida taomlarni tayyorlashda 300 xil o‘t va gullar ishlatiladi. Gruziya oshxonasi ham o‘ziga yarasha nom qozongan. Gruziya o‘zining kabob, xarcho sho‘rvasi, eng achchiq, yoqimli ziravorli sousi bilan mashhurdir.



 **4-mashq.** Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib o‘zlashtirma gap tuzing.

1. Bo‘lib, qolishini aytgan, Konfutsiy, bilan o‘qigan fikr qilmasa vasvas
2. Ekanligimizni aytdi bir oilaning o‘qituvchimiz bizning farzandlari.
3. Bilmasligini aytdi Elbek nima qilishini yelka qisib.
4. Sinf bahs – munozara bo‘lganligini aytdi tamom rahbar.
5. O‘rtog‘idan yordam Muzaffar navbatchilikka berishni so‘radi.
6. Yo‘lovchi aytdi ketganligini kunlar isib.
7. Buni sezgan olib kelishini so‘radi dadasini bozordan katta qizi nima.

◆ Bilib oling!

O‘zlashtirma gaplarda *demoq*, fe’li qo‘llanmaydi. O‘zlashtirma gapning kesimi *aytmoq*, *gapirmoq*, *buyurmoq*, *so‘ramoq* fe’llari bilan ifodalanadi.

O‘zlashtirma gaplarda ko‘chirma gaplardagi undalma, kirish so‘zlari, hisxayajonni ifodalovchi undov so‘zlar tushurilib qoldiriladi. Undalmalar to‘ldiruvchi bo‘lak sifatida yoziladi.

Ko‘chirma gap	O‘zlashtirma gap
«Xo‘sh, chumchuqvoy qanday yangilik bilan huzurimga kelding?» – dedi tulki. «Bu samolyot qayerga uchadi?» – deb so‘radi yo‘lovchi. «Hurmatli yo‘lovchilar, ob-havo yomonligi tufayli bugungi reyslar qoldiriladi», – deb radiodan e’lon qilindi.	Tulki chumchuqdan qanday yangiliklar bilan huzuriga kelganini so‘radi Yo‘lovchi samolyotning qayerga uchishini so‘radi. Radio orqali ob-havo yomonligi tufayli samolyotlarning reysi qoldirilganligini e’lon qilishdi.

◆ **5-mashq.** O‘zlashtirma gapni ko‘chirma gapga aylantirib yozing.

1. O‘qituvchimiz bilim olish uchun kishi o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishi kerakligini aytdilar. 2. A‘zam Tyan-shan tog‘ini ko‘rsatib, uning bahaybatligini aytdi. 3. Men tog‘ning manzarasi yaxshiligini, lekin ancha uzoqligini aytdim. 4. Sardor ba‘zi kishilarning o‘z kamchiliklarini bo‘ynilariga olmasliklarini aytdi. 5. Tarbiyachimiz ertalabki mashqlarning juda foydali ekanligini, u insonning asablarini mustahkamlashini aytdi. 6. Sinf rahbarimiz nima gapligini so‘radi.

◆ **6-mashq.** Ko‘chirma gaplar va o‘zlashtirma gaplarni ajratib yozing

1. Ona: «Samolyotdan tushganimizda, qo‘limni mahkam ushla», – dedi o‘g‘liga. 2. Yo‘lovchi yonidagi kishidan qayerga ketayotganligini so‘radi. 3. Navoiy bu o‘lkaga hushyor odamlardan yuborib ular orqali butun vaziyatdan ogoh bo‘lib turish mumkinligini bayon qildi. 4. O‘qituvchi: «Darsdan hech kim ruxsatsiz chiqmaydi», – dedi. 5. Aziza dugonalari bilan Arslonbobga borganini, sharsharani borib ko‘rganini, tog‘dan yovvoyi jambil terganini entikib-entikib gapirdi. 6. Alibek yo‘lovchiga: «Mening sizga yordamim kerak emasmi?» – dedi.

◆ **6-topshiriq.** Matnni o‘qing. Matn yuzasidan bahs-munozara o‘tkazing.

Vaqtни va tilni saqlash

Odam uchun eng qimmatli narsa vaqtdir. Fursatdan yaxshi foydalanilsa, oltinlar topiladi. Vaqtни bekor o'tkazish, oltinlarni qo'ldan boy berishdir. Aqlli odam sira ham vaqtни bo'sh o'tkazmaydi. Qadimgilar: «Ish vaqtida bekorchi so'zlarni so'zlab, fursatни o'tkazgan kishi nihoyat och qolib yig'laydi», deganlar. Aqlli yoshlar fursatlarni bekorga o'tkazmaydilar. G'ayrat bilan o'qiydilar, ishlaydilar, jalqovlanib o'tkazmaydilar. Aziz yoshlar, tilingizni adab, tarbiyaga qarshi bo'lgan yomon so'zlar aytishdan saqlang. Og'izdan chiqqan so'z otilgan o'qqa o'xshaydi. Yomon so'zni ham aytmangiz, odamlarning dillarini og'ritasiz. Keyin aytgan so'zingizdan afsus qilsangiz ham foydasi yo'q. Shuning uchun yomon, achchiq so'zlarni aytishdan saqlaning. Yaxshi, muloyim, shirin so'zli bo'lishga odatlaning.

«Donishmandlar odob-ahloq to'g'risida»



7-mashq. Berilgan ko'chirma gaplarda undalma va kirish so'zlarni tushirib qoldirib o'zlashtirma gaplar tuzing.

1. «Bolajonginam, senga nima bo'ldi», – deb so'radi enagasi. 2. «Shubhasiz, Akmaljon bizning maktab kutubxonamiz eng boy kutubxona hisoblanadi», – dedi kutubxonachi. 3. «Ahmadjon, kitobingizdan foydalansak, maylimi», – deb so'radi hamroxim. 4. «Nihoyat, 10-sinf o'quvchilari sayyohatga jo'nashdi», – dedi o'qituvchi.



Uyga vazifa. Dunyo va Osiyo taomlaridan bittasini tanlab, tayyorlanish jarayonini yozib keling.

3-dars



7-topshiriq. Suhbat matnini o'qing. O'zaro suhbatlashing.

Shahrizoda: Ruxshona, sen milliy taomlarimizdan qaysilarini tayyorlash usullarini bilasan?

Ruxshona: Menga onam palov pishirishni o'rgatganlar. Sen-chi? Qaysi taomlarni tayyorlashni bilasan?

Shahrizoda: Men ham palov tayyorlashni bilaman. Lekin menga Jizzax viloyatining milliy taomlaridan bo'lgan qurtoba taomi yoqadi.

Ruxshona: Qurtoba qanday tayyorlanadi?

Shahrizoda: Bu taomni momolarimiz o'ylab topishgan. Yaxshilab quritilgan

qurtlarni iliq suvga solib, eritasan, qaynatib, kuydirilgan saryog‘dan keraklicha solib dasturxonga tortasan. Bu taom, ayniqsa, qish faslida sovuq kunlarda ertalab maktabga ketishdan oldin tanovvul qilsang, sira kasal bo‘lmaysan. Insonning immunitetini oshiradi. Kalsiy moddasiga boy.

Ruxshona: Rahmat senga, taomlar ro‘yxatim yana bittaga ko‘paydi.

Shahrizoda: Arzimaydi, sen ham shunday taomlarni bilsang ayt.

Ruxshona: Albatta, topsam aytaman.



Adabiy o‘qish



8-topshiriq. Matn asosida savollar tuzing.

O‘zbekiston milliy pazandachiligi

Daraxtki bor unga qush qo‘nadi, uyki bor, demak unga albatta, mehmon keladi. Mehmondo‘stlik nainki insoniylik bog‘idir, balki shu bog‘ning eng shirin mevasidir. Hamma xalqlarda bo‘lgani kabi, o‘zbeklarda ham mehmonni anvoyi taomlar bilan ziyofat qilish odati bor. O‘zbekistonda ana shunday taom palovdir. Yashab turgan joyning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash maqsadida palov pishirishning ko‘pdan-ko‘p usullari mavjud bo‘lgan. «Farg‘ona palovi», «Samarqand palovi», «Buxoro palovi», «Xorazm palovi» «Toshkent palovi» kabilar shular jumlasidandir. Hozir 60 ta palov turi mavjudligi bizga ma‘lum. Dasturxonga, albatta, palov tortishdan tashqari, Toshkentda, masalan, qazi-qartali norin tayyorlash va xushbo‘y familchoy damlash odat tusiga kirgan. Farg‘ona vodiysining hamma tumanlarida va Samarqandda mehmonga dastavval issiq ko‘k choy beriladi. Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona va Namanganda mehmonga choy berilgach, kashnich, rayhon va qatiq solingan mastava, so‘ngra devzira guruchdan lola rang qovurma palov tortiladi. Bu shaharlarda mehmon dasturxoniga patir va jizzali nonlar, ho‘l mevalar, oq ko‘ngillikning ramzi sifatida sut, qatiq, qaymoq qo‘yiladi. Kelgan mehmonga darhol qatiq taklif etish yoki nonushtasiga, albatta, qatiq berish, ayniqsa, Namanganda yaxshi odat tusiga kirgan. Sababi, bu mezbonlar qatiq ichishning inson uchun ko‘pgina foyda keltirishini nazarda tutadilar: qatiq organizmni zararli bakteriyalardan tozalash



va hazm taomlik xususiyatlariga ega. Shu bilan birga uzoq joydan kelib suv va havo o'zgartirgan kishini lohas bo'lishdan ham saqlaydi. Samarqandda mehmonni shirin-sharbat ho'l mevalar, mashhur Samarqand noni hamda qaymoq bilan siylash, so'ngra esa murch sepilgan chuchvara va to'g'rama palov bilan ziyofat qilish odati bor. Buxoroda mayiz palov va yaxlit qilib pishirilgan barra kabob, chorvador tumanlarida esa yangi so'yilgan qo'zi go'shtining sho'rvasi va kabobi mehmon hurmatining ramziga aylanib ketgan. Surxondaryoliklar xushbo'y ko'k choy bilan birga archa o'tinida pishirilgan tandir kabob keltirib, hurmatingizni joyiga qo'yadilar. Xorazmliklar mehmonni tilyorar qovunlar, maxsus tayyorlangan palov bilan siylashadi. Qoraqalpoqning baliq kabobi bilan kulchatoyini yegan mehmon u yoqqa yana borishni orzu qiladi. Qo'qon, Farg'ona va Andijonda yaxshi bir odat bor. Mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar taom chiqarishadi. «Mehmon o'z rizqu-ro'zi bilan keladi» kabi naql bejizga aytilmagan. O'zbeklar uchun mehmonning kattasi yoki kichigi bo'lmaydi. O'zbeklar uchun mehmon doimo ulug' sanaladi.

Karim Mahmudovning «Qiziqarli pazandalik» kitobidan

Lug'at

mavjud – существующий,

имеющийся

famil choy – чёрный чай

dastavval – сначала, прежде всего

mezbon – хозяин

barra – мясо молодого барашка

tilyorar – очень сладкий



8-mashq. Berilgan ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring va gaplardagi o'zgarishlarga izoh bering.

1. «Muncha esli ekan bu Sultonxon ayang!» – deb takrorladi Xadichaxon. 2. «Ochil amaki ustalarning boshlig'i», – deb javob berdi yigitcha. 3. «Tur, o'rningdan koptokni tashlab yubor, bu yoqqa!» – boshini siltab buyuradi menga Salim. 4. «Kitob juda ham qimmat, – meni aladay boshlaydi Turg'un, – bir mazali narsa olaylik». 5. «Kitob yaxshi narsa, hali qarab tur, unda har bir ajoyib baytlar bor-ki...», – deyman. 6. «Bolalarim, bugun biznikida qolasizlar, kech bo'lib qoldi», – deydi amakim. 7. Bobolarimiz: «O'q yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi», – deganlar.



Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasi mamlakatlari milliy pazandachiligi haqida yana nimalarni bilasiz, qisqacha ma'lumot yozib keling.


2. Berilgan so'zlar yordamida o'zlashtirma gaplar hosil qiling.

1) Aytmoq. 2) Gapirmoq. 3) Buyurmoq. 4) So'ramoq

16-mavzu. O‘zbekiston havo yo‘llari (Nuqtali vergul, ikki va ko‘p nuqta belgilarining qo‘llanishi)

1-dars



 **1-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. Rasm asosida suhbatlashing.

..... ?

Men kelajakda uchuvchi bo‘lmoqchiman.

.....?


Buning uchun o‘zbek, ingliz, rus tillarini yaxshi bilish kerak.

.....?

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti.

.....?

Dunyoning yetakchi aviokompaniyalari o‘zlarining Yevropadan Osiyoga va orqaga uchish uchun aynan Toshkentni tanlashgan.

 **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va matndan foydalanib ko‘chirma gaplarni hosil qiling.



Islom Karimov nomidagi «Toshkent xalqaro aeroporti»

Islom Karimov nomidagi «Toshkent xalqaro aeroporti» davlat unitar korxonasi: mamlakatning havo darvozasi.

Aerovokzalning yo‘lovchilarni qabul qilish imkoniyati soatiga 1300 kishidan oshadi. «Toshkent» xalqaro aeroporti dunyoning deyarli barcha katta shaharlari bilan havo aloqalariga ega. U barcha turdagi havo kemalarni qabul qiladi.

«Toshkent» xalqaro aeroporti. Bu aeroportning tarixi O‘zbekistonning fuqaro aviatsiyasi tarixiga teng, bir necha o‘n yillikni qamrab olgan. 1924-yil 12-may – O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasining tug‘ilgan kuni: Toshkent-Bishkek-Olma-Ota yo‘nalishi bo‘yicha ilk yo‘lovchilar reysi amalga oshirilgan.

Bugun «Toshkent» xalqaro aeroporti – bu Markaziy Osiyodagi eng yirik aviatsiya korxonasi bo‘lib, uning tarkibiga yo‘lovchilarga va yuklarga yerda, hamda xalqaro miqyosdagi havo kemalariga xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlovchi ko‘plab xizmatlar kiradi.

O‘zbekiston poytaxtining aeroporti qulay geografik o‘ringa ega, chunki MDH davlatlaridan Janubi-Sharqiy Osiyoga, Yaqin Sharqqa, Yevropaga va Amerikaga eltuvchi havo yo‘llarining kesishgan nuqtasida joylashgan. Aeroport qulay ob-havo sharoitidagi hududda joylashgan.

Har qanday aerodromning asosiy yutug‘i – uning har xil turdagi havo kemalarini qabul qilish va ularga yerda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnik imkoniyatlaridir. «Toshkent» aeroportida uchish-qo‘nish maydonlarining, chiroq-signal uskunalari-ning, aerovokzal majmuasining qayta ta‘mirlanishi, zamonaviy maxsus avtotexnika bilan ta‘minlanishi yo‘lovchilarga va havo kemalariga yanada qulay va sifatli xizmat ko‘rsatilishi imkonini berdi.

Aerodrom ikkita – Janubiy va Shimoliy (ICAO II-toifasi) uchish-qo‘nish maydoniga, magistral rullash yo‘llariga, uzoq va o‘rtacha magistral samolyotlari uchun 110 ta turish joylari bo‘lgan umumiy maydoni 100 gektarli perronga ega.

Lug‘at

majmua – комплекс

xalqaro miqyosidagi –
в международном масштабе

uskuna – оборудование

imkoniyat – возможность

ta‘mir – ремонт

qayta – вновь, снова

maxsus – особенный

◆◆ Bilib oling!

Bilib oling! Ma‘lum bir maqsad, fikr og‘zaki nutqda ma‘lum bir ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda ko‘rsatishda qo‘shimcha, ammo zaruriy vositadir.

Tinish belgilari

1. Nuqtali vergul – (;)
2. Ikki nuqta – (:)
3. Ko‘p nuqta – (...)

Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. O‘z ichida vergul bo‘lgan yoyiq uyushiq bo‘laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug‘i, hayot quvonchi.

Hammasining asli quvonchi,

Sen, vatanim – tinchlik tayanchi. (*S. Nazar*)

2. O‘z ichida vergul bo‘lgan, mazmunan ma‘lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplarda: daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.


Ikki nuqta.

1. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umimlashtiruvchi so‘zdan so‘ng: yig‘ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Anvar aka va Karimjonlar so‘zga chiqishdi.
2. Quyidagi ma‘nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda:
 - 1) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish harakatning sababini ko‘rsatsa: u ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.

- 2) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish harakatning natijasini ko'rsatsa: shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.
 - 3) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: vazifangiz shu: birona odam bu xonaga kirmasligi kerak.
3. Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: u baland ovozda so'radi: – kim bor?

Ko'p nuqta.

1. Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi: fikrning tugamaganligi, so'zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmochi ekanligini ko'rsatish uchun: agar hozir gapingizni to'xtatmasangiz
2. Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchining o'ylashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi: bugun... bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?
3. Ba'zan kimningdir savoliga javob bermay indamay turganini ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi:
 - Mendan rozimassiz, bilaman kechirmaysiz...
 - ...
4. Biron so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun: vagonlarda keltirilgan yuklar 120 tonna edi.

 **1-mashq.** Berilgan gaplarni o'qing. Tinish belgilarining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. 1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:
 - Amir Temur ordeni;
 - «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni;
2. – Sen bizga xiyonat qilding, it uvli! ...
 - Iqrormen.
 - Tuzumni unutding!
 - Tonmayman! (*Abdulla Qodiriy*)
3. Yig'ilishda tajribali ishchilar: Rahim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so'zga chiqishdi. 4. U ichkariga shoshilib kirib ketdi: telefon anchadan beri jaringlayotgan ekan. 5. Shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi. 6. Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuzga urildi.

◆ **3-topshiriq.** Berilgan hikmatni o‘qing va mavzu yuzasidan bahs-munozara o‘tkazing.

Luqmoni Hakim o‘g‘liga nasihat qilib aytadi:

– O‘g‘lim yalqov bo‘lma, yoshligingni g‘animat bil, ishlab qarilik payting uchun zahira to‘pla. Chumoli yoz bo‘yi ishlab qish uchun zahira to‘playdi. Undan ibrat ol.

▶ **2-mashq.** Gaplarni o‘qing. Har bir gapga berilgan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib yozing.

1. Ona Sardor tezroq bo‘l maktabga boramiz dedi.

Ikki nuqta, qo‘shirnoq, vergul, vergul, vergul, qo‘shirnoq, chiziqcha, nuqta.

2. Men Doniyor Mahmudov 2004-yil 11-fevralda Qo‘qon shahrida tug‘ilganman.

Tire, vergul, chiziqcha, chiziqcha, nuqta.

3. Akbar otaning so‘zini ikki qilolmadi.

Ko‘p nuqta.

4. Ona jon o‘g‘lim qahr-g‘azabli bo‘lma dedi.

Ikki nuqta, qo‘shirnoq, vergul, qo‘shirnoq, vergul, chiziqcha, nuqta.

🏠 **Uyga vazifa.** O‘zbekiston havo yo‘llari mavzusida ma’lumot yozib keling.

2-dars





4-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing, tinish belgilariga e’tibor bering. Matn asosida suhbatlashing.

Birinchi yo‘lovchi: Assalomu alaykum, kechirasiz sizning joyingiz qayerda?

Ikkinchi yo‘lovchi: Vaalaykum assalom. Mening joyim chap qatorida oynaning yonida, sizniki-chi? Sizning joyingiz qayerda?

Birinchi yo‘lovchi: Marhamat joyingizga o‘tiring, joyim sizning yoningizda ekan. Qanday yaxshi siz bilan yonma-yon o‘tirar ekanman. Bundan men xursandman.

Ikkinchi yo‘lovchi: Rahmat, men ham siz bilan ketayotganimdan xursandman. Donishmandlar: «Odam bolasining orzu va murodga erishmog‘i faqat, xushmuomalilik soyasida hosil bo‘ladi», deyishgan. Siz juda xushmuomala inson ekansiz.

Birinchi yo‘lovchi: Luqmoni Hakim qo‘shnilarini izzat va hurmat qilmaydigan, ularning dillarini og‘ritadigan odamdan hamma nafratlanishini u odam o‘z obro‘sini yo‘qotishini aytadi.

Ikkinchi yo‘lovchi: Ha, Luqmoni Hakim to‘g‘ri aytganlar. Aeroport yanada qulay, xodimlari ham xushmuomala ekan.

Birinchi yo‘lovchi: E, nimasini aytasiz, yo‘lovchilar uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston havo yo‘llari kemalari to‘rtta qit‘aning 50 dan ziyod aeroportiga parvoz qilmoqda.

Ikkinchi yo‘lovchi: To‘g‘ri aytasiz, salomat bo‘ling, safaringiz bexatar bo‘lsin. Oq yo‘l, yaxshi yetib olaylik.

Birinchi yo‘lovchi: Sizga ham muvafaqqiyat tilayman, salomat bo‘ling.

Mustaqil ish. Gaplarni ko‘chiring. Mazmunini izohlang.

1. Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham, qishi bitmas.
2. Qishloq ko‘chalari jimjit.
3. Katta yo‘lga chiqib olish uchun taxminan bir soatcha yurish kerak edi.
4. O‘zbekiston – ona diyori bag‘ri to‘la hikmatdir.
5. Ilm ibodatdan afzal.
6. Ilm asosida qurilmagan ulug‘likning oxiri xorlikdir.

◆ **5-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmuni yuzasidan rasm asosida suhbatlashing.



«Toshkent» xalqaro aeroporti – mamlakatimizning havo darvozasidir. Xalqaro aeroport turli havo kemalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ulkan amaliy tajribaga ega. Dunyoning yetakchi aviakompaniyalari o‘zlarining Yevropadan Osiyoga va orqaga tranzit bilan uchuvchi yuk samolyotlarini qo‘ndirish uchun aynan Toshkentni bejiz tanlashmaydi. Aerovokzalning texnika bilan ta‘minlanganligi ham uzoq, ham yaqin horij yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatilishiga imkoniyat yaratadi. Yo‘lovchilarni ro‘yxatga olish bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizim joriy etilgan.

Hozirgi paytda «Toshkent» aeroportida elektron chipta tizimi joriy qilingan. Yo‘lovchilarni O‘zbekiston hududidagi shaharlarga jo‘natish yangi mahalliy havo yo‘llari (Toshkent-3) terminali orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda mahalliy havo yo‘llarining aerovokzali soatiga 400 ta yo‘lovchini o‘tkazish imkoniyatiga ega qulay bino hisoblanadi.

Zamonaviy uskunar bilan jihozlangan har jihatdan qulay bo‘lgan Toshkent-2 terminali orqali yo‘lovchilarni uzoq va yaqin horijga jo‘natish va ularni qabul qilish ishlari amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uchib ketuvchi yo‘lovchilar uchun yangi blok foydalanishga topshirilgan. O‘zbekiston mehmonlariga va aholisiga xizmat ko‘rsatish uchun aerovokzal binosida qulay mebel bilan jihozlangan katta kutish zallari; tunu-kun tartibida ishlovchi pasport, bojxona va chegara nazorati xizmatlari; ma‘lumotxonalar; bagajni tashish uchun yangi konvyer tizimlari;

xalqaro telefon aloqasi; chipta sotib olish va bronlash kassalari; «Duti Free» do‘konlari; barlar; tez ovqatlanish, valyuta ayirboshlash shoxobchalari va boshqalar mavjud.

Biznes va birinchi klass yo‘lovchilariga xizmat ko‘rsatish uchun «VIP» (alohida muhim shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun) va «SIP» (yuqori qulaylik) zallari bor. Yo‘lovchilarning qulayliklari uchun ularni samolyotgacha va orqaga yetkazib qo‘yuvchi alohida har jihatdan qulay avtobuslar taqdim qilingan. «Toshkent» xalqaro aeroporti rahbariyatining eng muhim vazifalariga parvozlarning xavfsizligini ta‘minlash masalalari kiradi.



3-mashq. Berilgan gaplarni tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib namunadagidek jadvalga yozing.

Namuna:

Qasosli dunyo («Avlodlar dovoni» romanidan) ...	« » ...	«Qasosli dunyo» ...
Bahor Butun atrof yam-yashil libosda	...	
Men men ertaga albatta dars qilib kelaman.,	
Donishmandlardan biri oz so‘zla ko‘p fikrla degan edi.	;,	



4-mashq. Gaplarni o‘qing. Tinish belgilarining qo‘llanishiga e‘tibor berib, gaplarni ko‘chiring.

1. Shoir: «Ana shu bog‘ga gard tushmasin, bulbullarning ovozi hamisha yangroq va baland bo‘lsin», – dedi. 2. O‘quvchi quyidagilarga amal qilishi lozim: a) dars qoldirmaslik; v) darsdan qoldirishda uzurli sabab bo‘lganda, o‘qituvchini oldindan ogohlantirish; d) mashg‘ulotlarga kech qolmaslik; s) vaqtdan unumli foydalanish. 3. Alisher: «menimcha, nay tayyor bo‘ldi», – dedi. 4. Bobom: «shon-sharafga olib boradigan yo‘l, mehnatda», – dedi. 5. Gap shu: biz bilan ketasiz.



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi matndan foydalanib, nuqtali vergul tinish belgisi qatnashgan gaplarga 2-3 ta gap yozib keling.



Adabiy o'qish

Abdulla Oripov (1941-2016)

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati Koson tumanining Neko'z qishog'ida tug'ilgan.

Abdulla Oripov o'rta maktabni oltin medalga bitirib O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetining jurnalistika bo'limiga o'qishga kirdi. O'qishni tamomlagach respublikamizdagi bir qator gazeta va jurnallarda muxbir bo'lib ishladi. Shoir «Onajon», «O'zbekiston», «Yillar armoni» kabi bir qancha she'riy to'plamlarni yaratdi.

Bu asarlar o'zbek milliy she'riyatining mumtoz namunalari bo'lib, yuksak badiiyligi, mantiqan kuchliligi, jo'shqinligi, yoqimlilik va lirik tuyg'ularga boyligi bilan ajralib turadi.

Ko'p yillik mehnatlari evaziga A.Oripov Xamza nomidagi Davlat mukofotiga sazavor bo'ldi. Unga «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni va Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi.

Abdulla Oripov «O'zbekiston qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan.



6-topshiriq. She'rlarni ifodali o'qing. Savol va topshiriqlarni bajaring.

Tilla baliqcha

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.



Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni!

Inson qalbi bilan hazillashmang siz,
Unda millat yashar, unda til yashar.
Unda ajdod faxri yashaydi so‘zsiz,
Unda istiqomat qiladi bashar.
Inson qalbi bilan hazillashmang siz.
Unda ona yashar, yashaydi Vatan.
Uni jo‘n narsa deb o‘ylamang hargiz,
Hayhot! Qo‘zg‘almasin bu qalb daf’atan! ...

Savol va topshiriqlar.

1. Abdulla Oripovning hayoti va ijodini qisqacha gapirib bering.
2. Tilla baliqcha nima uchun bir ko‘lmak hovuzni dunyo deb biladi.
3. Siz dunyoni qanday tushunasiz.
4. «Inson qalbi bilan hazillashmang siz» she’rini ifodali o‘qing.




Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. «Tilla baliqcha» she’rini yod oling.
2. Ko‘chirma gapga misol keltiring va qanday yozilishini tushuntiring.
3. O‘zlashtirma gapga misol keltiring va yozilishini tushuntiring.

17-mavzu. O‘zbekiston temir yo‘llari (Tire, qo‘sh tirnoq, qavsning ishlatilishi)

1-dars



 **1-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. Rasm asosida suhbatlashing.

.....?

O‘zbekistondagi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi.

.....?

Temir yo‘llarning vazifalari yuklarni, yo‘lovchilarni, sayohatchilarni tashish.

.....?

Men temir yo‘l orqali sayohatga chiqmaganman.

.....?

Biz Samarqand, Buxoroga poezdda bormoqchimiz.

2-topshiriq. Matnni o‘qing va savol va topshiriqlarga javob bering.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati – O‘zbekistondagi eng yirik jamiyatlardan biri hisoblanadi. 1994-yil 7-noyabrda O‘rta Osiyo temir yo‘llari bazasida O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan temir yo‘l korxonalari va bo‘limlari, loyiha-konstruktorlik va boshqa tashkilotlar muassasalari negizida «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Jamiyatning asosiy yo‘llarining umumiy uzunligi bugungi kunda 3645 kilometr ga yaqin.

Jamiyatda 54 mingdan ziyod xodimlar faoliyat ko‘rsatadi. Jamiyatning yillik yuk aylanmasi barcha turdagi transportlar yuk aylanmasining 90% ga yaqinini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning yagona temir yo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish bo‘yicha uzunligi 700 km ga yaqin Navoiy–Uchquduq, Nukus temir yo‘li, uzunligi 223 km li Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on, Toshkent–Marg‘ilon temir yo‘li qurib bitkazildi. Bu yo‘llar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Jahonning barcha rivojlangan mamlakatlari temir yo‘l transporti yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu tizimda haraktlanish tezligi 200 km/soatdan yuqori bo‘ladi.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati Temir yo‘l Hamkorlik Tashkiloti azosidir. Jamiyat Xalqaro Temir yo‘llar ittifoqi va Osiyo va Tinch okeani hududidagi BMT ning iqtisodiy komissiyasi bilan uzviy aloqaga ega.



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati qachon tashkil topgan?
2. Mustaqillik yillarida qanday temir yo‘li bekatlari qurildi?
3. «O‘zbekiston temir yo‘llari» haqida yana nimalarni bilasiz? Matnni to‘ldiring.

◆ Bilib oling!

Tinish belgilari

1. Tire (–) 2. Qo'shtirnoq – (« ») 3. Qavs – ()

Tire quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: *O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. O'qish – hayotni uqish.*
2. Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o'tirishgan ekan.*
3. Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasiga: *Men – Rustam Omonov, 1965-yil Andijonda tug'ilganman.*
4. Kirish gap bilan gap bo'laklari orasiga: *Tunov kuni ovchi – men uni o'rmonda uchratib qoldim – menga bir qiziq voqeani so'zlab berdi.*
5. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: – *Bugun kelasizmi? – so'radi qizi.*
6. Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda: – *Keldimi? – Keldi.*
7. Kutilmagan voqea– hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: *Kecha xolamlar-nikiga borgan edim – Anvarjon kelibdi.*
8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: *Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.*

Qo'shtirnoq.

1. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun: «Ertaga kelaman», – dedi.
2. Ko'chma ma'nodagi, shartli nom yoki taxallus ma'nosidagi ayrim so'z va so'z birikmalari ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin: «Tog' asali» sotadigan yigit... dovonning narigi tomoniga o'tib ketdi.


Qavs.

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi So'zlar yoki iboralar qavsga olinadi: Botirjon (sinfimizning o'quvchisi) oliy o'quv yurtiga kiribdi.
2. Kirish gaplar qavs bilan beriladi: ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi.
3. Misol yoki ko'chirmaning manbai: ... Eshik qars etib yopildi. (O.Y.)




1-mashq. Berilgan gaplarda tinish belgilari qayerda ishlatilganligiga e'tibor berib ko'chiring.

1. Bu Navoiyning «Xamsa» asarimi deb soʻradi Komila. 2. Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, doʻstlari orasidagi mavqeiga doimo qiziqib turish kerak. 3. Biz sayohatga chiqar ekanmiz! 4. Kutubxonada Navoiy, Bobur, Furqat – kabi buyuk shoirlarimizning asarlari bor. 5. Goʻzallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi?! 6. U darsda javob beradimi, bermaydimi buyogʻi bizga qorongʻi.

 **2-mashq.** Berilgan gaplarda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qoʻyib yozing.

1. Salom sizga// yuksak togʻlar// 2. Yaxshilar// uni eslang// 3. Bilimlining kuchi mingga yetar// bilimsizning kuchi birga yetar// 4. Sinov imtihonlariga qanday tayyorlanayapsiz// 5. Ha // bu gapingiz toʻgʻri// 6. Biz// yoshlar// ota-bobolarimiz qoldirgan bebaho merosni koʻz qorachigʻiday asrashimiz kerak// 7. Men sizga ayt-sam// odamning yomoni boʻlmaydi// 8. Mendan rozimassiz// bilaman// kechirmay-siz// 9. // yoʻl boʻlsin//

 **3-topshiriq.** Berilgan hikmatni oʻqing va mavzu yuzasidan bahs-munozara oʻtkazing.

Oʻz kamchiligini sezish yoʻllari

Koʻp odamlar oʻz aybi va kamchiliklarini koʻrmaydilar. Boshqalarning kamchiliklarini koʻradilaru, oʻzlarining kamchiliklarini bilmaydilar. Oʻz kamchiligini koʻrishni istagan kishilar uchun ikki xil yoʻl bordir.

Birinchi yoʻl – kamchilikni koʻra oluvchi komil bir odam bilan suhbatlashib turishdir. Bu yoʻl shogird bilan ustoz orasida boʻladi.

Ikkinchi yoʻl – samimiy xayrihox doʻst topib oʻzining qilib turgan ishlarini, yurish-turishini kuzatib, xush koʻrilmagan yoʻllardan qaytarishni undan iltimos qilishdir. Bir donishmand: «mening kamchiliklarimni oʻzimga aytgan kishilardan minnatdorman», – degan ekan.

 **4-topshiriq.** Berilgan soʻzlar yordamida kichik matn tuzing.

Oʻlkamiz, viloyatlar, turli, tezyurar, mashhur, temir yoʻl, vagon, uzoq, zamonaviy, yoʻllar, qulay, ekan, qatnamoq, taʼmirlamoq, texnik yordam.

 **Uyga vazifa.**

Qoidada berilgan tinish belgilaridan toʻrttasiga gap tuzib keling.

2-dars



5-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing, tinish belgilariga e‘tibor bering. Matn asosida suhbatlashing.

Vokzalda

Yo‘lovchi: Assalomu alaykum, kechirasiz, siz shu yerda ishlaysizmi?

Vokzal xodimi: Vaalaykum assalom, hechqisi yo‘q, ha men shu yerda ishlayman, xizmat.

Yo‘lovchi: Agar mumkin bo‘lsa, sizga bir necha savolim bor edi. Men Buxoroga bormoqchi edim. Qayerda bilet bron qilish mumkin?

Vokzal xodimi: Marhamat, uchinchi kassadan Buxoro shahriga bilet bron qilishingiz mumkin. Yana menga xizmatlar bormi?

Yo‘lovchi: Iltimos, menga aytsangiz yuk aravachasini qayerdan olsam bo‘ladi?

Vokzal xodimi: Vokzalning chap tomonidagi chiqish eshigi oldidan olishingiz mumkin.

Yo‘lovchi: Agar mumkin bo‘lsa, yana bir savolimga javob bersangiz.

Vokzal xodimi: Bajonidil, savolingizni bering.

Yo‘lovchi: Men nonushta qilmoqchi edim, vokzal oshxonasi qayerda joylashgan?

Vokzal xodimi: Oshxona vokzalning ikkinchi qavatida joylashgan. O‘sha yerda kutish xonasi ham bor. Bemalol dam olib, poezdni kutsangiz bo‘ladi.

Yo‘lovchi: Men sizdan juda minnatdorman, rahmat sizga!

Vokzal xodimi: Hijolat bo‘lmang, arzimaydi, salomat bo‘ling.




6-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmuni yuzasidan suhbatlashing.

Temir yo‘l stansiyasi


Temir yo‘l poezdlarini jo‘natish va qabul qilish uchun mo‘ljallangan korxonalar. Unda temir yo‘l tarkibi va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatiladi. Yuk va bagajlar qabul qilinadi, ortiladi, tushiriladi, vagonlardan poezdlar tuziladi. Temir yo‘l transporti tarkibiga yo‘llar, vokzallar, xizmat-texnika binolari, platformalar, saralash tepaligi, aloqa turlari va boshqalar kiradi.




O‘zbekistonda dastlabki temir yo‘l 1866-88-yillarda Zakaspiy temir yo‘lining Forob stansiyasidan Samarqandgacha yotqizilgan.

 **3-mashq.** Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yib yozing.

1. Iya bu nimasi uvol-ku oz muncha charm-mi jo‘na ko‘chaga baqiradi jahl-dan qizarib bobom 2. Bor suv olib kel xamir qoramiz deydi buvim yumshagan tovush bilan kulimsirab 3. Barakalla o‘g‘lim jinday suv sepib yubor chang bo‘lib kettdi yana buyuradi baqqol. 4. Keng qirni qarshidagi yarim doira ufqqa cho‘zilgan tog‘larni tomosha qilib uzoq yuramiz. 5. Men kulib deyman balki singlim dugona-siga kitobni bergandir. 6. Tezroq yur ehtiyot bo‘l ko‘zingga qara deydi har qadamda buvim.


 **4-mashq.** Berilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga joylashtirib gap tuzing va tinish belgilarini qo‘ying.

1. Savol, achchiq, kutma, shirin, berib, javob. 2. Ertalab, tarbiya, jismoniy, bilan, shug‘ullanasizmi, siz. 3. Ariqlar, yomg‘ir, shu qadar, suvga, yog‘diki, kuchli, ketdi, to‘lib. 4. U, sening, sen, shunday, o‘zing, berdingku, gapir, olsin, kimligingni, bilib. 5. Uvillaydi, u, boqsang, ham, bo‘rini, qancha, har, o‘rmonga, qarab. 6. Tingan, osmon, yomg‘ir, itinq, g‘ir-g‘ir, mayin, esadi, shabada.

 **Uyga vazifa.** Dunyo temir yo‘llari haqida ma‘lumot yozib keling.



Muhammad Yusuf (1954-2001)



Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktab ta'limini olgach Muhammad Yusuf Toshkentdagi rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi. Uning dastlabki she'rlaridan namunalar «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi sahifalarida chop etildi. Muhammad Yusufga 1998-yil «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi. U «Iltijo», «Erka kiyik», «Osmonimga olib ketaman» kabi bir qator she'riy to'plamlarni yaratdi.

Muhammad Yusuf 2001-yil 31-iyulda vafot etdi.



7-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Savol va topshiriqlarni bajaring.

O'zingdan qo'ymasin xalqim

Qushday uchib quchog'ingdan dunyo kezdim,
Kezib-kezib topganlarim sog'inch bo'ldi.
Qancha olis ketsam shuncha qadring sezdim,
Qayda yursam yodi mehring ovunch bo'ldi.
Aylanayin qora-qoshu ko'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a.

Birov uchun birovlar tush ko'rib bermas,
Minnat qilmay bir bog' o'tni o'rib bermas.
Bayramingda oylab bazm qilgan kaslar

Boshingga ish tushsa, turib bermas.
Nomus kuyi tushmasin hech bo'g'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a.

Erk vodiysi – zahmatlarga siylovdur bu,
Toy qoqilib ot bo'lguvchi yaylovdur bu.
Panj chekmasin nurli, nurli tonglar qayda,
Sinovdir, bu balki buyuk sinovdir bu.
Bosh ketsa ham qaytma endi so'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a.

Boldan shirin tatir qora bug'doying ham,
O'zingdan bo'lsa, gar shohu gadoying ham.
Bir tany jon, bir-biringdan rozi yursang,
Xudoyim ham sendan rozi xudoyim ham.
Gohi ipak, gohi yaktak bo'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a.

Er boshiga ish tushsa o't kechguvchidir,
Chidaymiz-da bu zahmatlar o'tkinchidir.
Hurliging haq – qolgan bari yotaversin,
Bu dunyoda eng yorug' baxt – el tinchidir.
Ayirmasin beminnat non tuzingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a.

Savol va topshiriqlar.

1. Muhammad Yusuf kim? Siz uning yana qanday she'rlarini bilasiz?
2. She'rning mazmunini aytib bering.
3. Xalq deganda nimani tushunasiz?
4. She'rda xalqqa qanday ta'rif berilgan?



Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. «O'zingdan qo'ymasin xalqim» she'rini yod oling.
2. Qanday tinish belgilari bor ayting.
3. Har bir tinish belgisiga izoh bering.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilayotgan asarlardan parchalar

Pirimqul Qodirov

«Yulduzli tunlar» romanidan parcha

ANDIJON. GUL VA QUYUN

Choparlar hali yo‘lda. Urush to‘poloni Andijonga yetib kelganicha yo‘q. Shaharning shimolidagi ko‘rkam chorbog‘ baland devor bilan o‘ralgan, darvozalar-ga soqchilar qo‘yilgan. Chorbog‘ ichida o‘n ikki yoshlik Bobur mirzo chavandoz-lik mashqlarini o‘tkazmoqda. U chorbog‘ chetidagi yalanglikdan bo‘z otni choptirib chiqdi-yu, birdan jilovni qo‘yib yubordi. Kamonga chapdastlik bilan o‘q o‘rnatdi va chopib borayotgan ot ustidan nishonga otdi. Yoy o‘qi nishon yog‘ochiga «taq» etib urilgani baralla eshitildi. Qora otlıq Mazidbek nishonga birinchi bo‘lib yaqinlashdi. U Boburning bek atkasi edi. Bobur otini qaytarib kelayotganda, Mazidbek unga:

– Mo‘ljalni balandroq olibsiz, ammo zarbingiz behad yaxshi, – dedi. Mazidbek yoy o‘qini nishondan sug‘urib oldi-da, qanchalik chuqur botganini o‘lchab ko‘rdi:

– Bilagingizda kuch ko‘p, amirzodam! Sherpanjasiz. Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir! Bobur mirzoning navkarlari, tengdosh-ko‘kaldosh mulozimlari ham nishon atrofiga yig‘ildilar. Ular Boburning hali yosh o‘spirin ekanini, qo‘lidagi kamoni bo‘yi-bastiga mos qilib kichraytirib ishlanga-nini bilar edilar. Shuni o‘ylab, Bobur maqtozni o‘ziga olgisi kelmadi.

– Sherpanja deb otamni aytsinlar. Men ko‘rganmen, zarblari bundan o‘n hissa ortiq. Musht ursalar, eng zo‘r yigitni ham yiqiturlar.

– Amirzodamning sherpanjaliklari podshoh otangizga tortganligingizdan nisho-nadir! Mazidbek gapni mohirlik bilan burganini sezib Bobur kulib qo‘ydi.

Bobur mulozimlari bilan mashq maydonidan chiqayotganida otini to‘xtatib, orqa-siga o‘girildi va jiyron qashqa ot mingan navkarni yoniga chaqirdi. Navkar yondash-ganda, qo‘lini cho‘zib, otining egarini silkitib ko‘rdi. Egar mahkam urilgan edi. Bo-bur navkarga ellik qadamcha nariga borishni, otdan tushib, jilovidan sekin yetaklab ketaverishni buyurdi. Mulozimlar orasida eng e‘tiborlisi Boburning opasi bilan bir onani emib o‘sgan o‘n yetti yoshlik No‘yon Ko‘kaldosh edi. Mazidbek yo‘qligida Boburni ehtiyot qilish No‘yonga topshirilgan edi. No‘yon Boburning nima qilmoqc-hi ekanini fahmlab, bezovtalandi:

– Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz, boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring.

– Xo‘p, mushkuli ertaga qolsin, hozir osonini ko‘raylik, – kulib dedi Bobur.Navkar aytilgan joyga borib otdan tushib, jiyron qashqasini sekin yetakladi. Bobur bo‘z otni choptirib navkarga yetganda oyoqlarini uzangidan bo‘shatib, qamchini ti-shiga oldi. Bo‘z ot jiyron qashqa bilan jips kelgan zahoti Bobur bo‘y cho‘zib, narigi otning egaridan ikki qo‘llab ushladi-da, bor kuchi bilan egardan egarga sakradi.Navkarning oti cho‘chib, hurkib ketdi. Boburning xipcha gavdasi bir lahza havoda muallaq qoldi, keyin pastga tushib ketdi. Oyoqlari yerga «tap» etib urildi. Ammo u qo‘llarini egardan bo‘shatmadi – bo‘shatsa yomon yiqilishini sezib, jon-jahdi bilan yopishdi. Bilaklari chindan ham kuchli ekan, shunday og‘irlikka bardosh berdi. Faqat navkar otini to‘xtatib olguncha Boburning oyoqlari yerni tirnab sudralib bordi-yu, bejirim ipak sallasi boshidan uchib ketdi. No‘yon Ko‘kaldosh yordamga yetib kelganda Bobur o‘zini o‘nglab oyoqda turar, biroq rangi juda oqarib ketgan edi. No‘yon otdan sakrab tushdi va Boburga sallasini olib bermoqchi bo‘ldi. Ammo Bobur tuproqqa tushgan sallaga qaragisi ham kelmadi. Qamchi hamon tishida edi, uni qo‘liga oldi, navkar yetaklab kelgan bo‘z otga indamay mindi. So‘ng otiga qamchi bosib, chorbog‘ daraxtlari orasidan ot choptirib ketdi. No‘yon uning ketidan vahima bilan tikilganicha qoldi. Hammayoq dov-daraxt, ariq. Otiqlar yuradigan katta yo‘l chorbog‘ning narigi chetidan o‘tadi. Bobur esa to‘g‘riga ketgan tor so‘qmoqdan, qalin daraxtlar orasidan yelday uchib boryapti! Ot ariqdan sakrab o‘tayotganda Boburning boshi ariq bo‘yida o‘sgan o‘rikning katta bir shoxiga uriladigan edi. Ammo u otning bo‘ynini quchoqlab, pastga shunday egildiki, o‘rik novdalari orqasini ishqalab o‘tdi. Pishgan o‘riklardan bir qanchasi uzilib, ariqdagi suvga «cho‘lp-cho‘lp» etib tushdi.

– Sen nega otni mahkam tutmading, avbosh! – deb No‘yon navkarni so‘kdi.

– Hammamiz amirzodaning qahriga qoldik! Bizdan xafa bo‘lib ketdilar! Bobur bog‘ to‘ridagi muhtasham ko‘shk oldiga borib, otini to‘xtatdi. Xizmatkorlaridan biri shoshib kelib otning jilovidan olar ekan, Boburning yolg‘iz va bosh yalang qaytgani-dan taajjublandi. Boburning buvisi Eson Davlat begim Boburning qay ahvolda qaytganini ko‘rib, nimalar bo‘lganini bilsa,mulozimlar ham, navkarlar ham jazo olishi aniq. Chunki podshoh hazratlari Boburni ko‘z qorachig‘iday asrashni Eson Davlat begimga topshirib, chorbog‘ va qasrni hamma xizmatkorlari bilan uning ixtiyoriga berib qo‘ygan. Mulozim va navkarlar qo‘rqa-pisa ko‘shkka yaqinlashayotganlarida marmar hovuzdan beridagi behi shoxiga qantarib qo‘yilgan bo‘z otga ko‘zlari tushdi. Bobur hovuz bo‘yidagi tillakori shiyponga kirganini sezishib, shu yerda sekin otdan tushdilar. No‘yon Ko‘kaldosh Boburning sallasini changdan tozalab, qo‘lida avaylab olib kelmoqda edi. Shu payt shiypon ichidan boshiga bo‘rk kiygan Bobur chiqdi. Oti hurkkan navkar o‘zini Boburning oyog‘i tagiga tashlab, uzr so‘rashga chog‘landi. No‘yon Ko‘kaldosh sallani nodir sovg‘aga o‘xshatib avaylab ko‘tarib kelayotgani

Boburga kulgili tuyuldi. U bolalarcha zavq bilan gavdasini orqaga tashlab, xandon urib kular edi. No‘yon Ko‘kaldosh ham qo‘lidagi sallaga qarab kulib yubordi. Bobur kulgidan to‘xtab, oti hurkkan navkarga yuzlandi:

– Sizda ayb yo‘q edi... Navkar minnatdor bo‘lib ta‘zim qildi. Bobur No‘yonga tayinladi:

– Katta onam bilmasinlar.

– Muddaomiz o‘zi shu, amirzodam, – kuldi No‘yon va boshqa mulozimlarga ko‘z qisib qo‘ydi. Shunday paytda ko‘kaldosh va tengdoshlar o‘zlarini taxt vorisiga xizmat qilib yurgan yosh mulozimlar emas, uning sirlariga sherik bo‘lgan yaqin do‘stlar deb bilishar va Boburga mehrlari oshar edi.

Ko‘shkdan chiqib kelgan savdar Bobur qarshisida qo‘l qovushtirib, ichkarida mudarris uni kutib o‘tirganini aytdi. Bobur bugun shariat ilmidan dars olishi kerakligini eslab, ko‘shkka yo‘naldi. Ko‘shkda Boburni faqat bitta xona o‘ziga tortar edi. Mudarrisning kutib o‘tirganiga qaramay, Bobur yaxshi ko‘rgan kitoblari qo‘yilgan shu xonaga burildi. U kitoblar orasidan «Xamsa»ni olar ekan, uzoq Hirotda yashayotgan Alisher Navoiyni xayol ko‘zi bilan ko‘rib turganday bo‘ldi. Hirotda ta‘lim olib kelgan andijonlik me‘mor mulla Fazliddin mana shu ko‘shk va marmar hovuzli tillakori shiyponni qurgan paytlarida yosh Boburga Navoiy haqida juda ko‘p hikoyalar aytib bergan edi. Me‘mor Xirotdan Alisher Navoiyning Behzod chizgan rasmidan yaxshi bir nusxa ko‘chirtirib kelgan edi.

Boburning Navoiyga ixlosmand ekanini sezgan me‘mor unga mana shu rasmni in‘om qilgan edi. Bobur «Farhod va Shirin» dostoni qatidan shu rasmni oldi-yu, shariat ilmiga oid daftarining ichiga soldi. So‘ng mudarris o‘tirgan xonaga chiqdi. Oppoq soqolli, katta oq salla o‘ragan qoshlari o‘siq kekxa mudarris darsxona to‘rida, banoras ko‘rpacha ustida o‘ltirib, qur‘ondan qiroat bilan suralar o‘qigach, fors tilida fiqh* ilmining qonunlarini tushuntirishga kirishdi. Bobur arab-forstillarini yaxshi o‘rgangan, qur‘on suralarining ko‘pini yod bilar, ma‘nosini ham tushunar edi. Ammo hozir uning ko‘z oldidan Suhrob va Farhodlarning qahramonona ishlari o‘tmoqda edi. Chorbog‘dagi mashqlar paytida tanasiga sig‘may avjlanib ketgan sho‘x, bebosh bir kuch hali ham qalbini junbishga keltirib turibdi. Unga yod bo‘lib qolgan sevimli baytlar goh turkiy, goh forsiy ohanglarda mudarris qiroatini yorib o‘tib, xayolida jaranglab eshitila boshladi:

«Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?»

Yod bo‘lib qolgan bu satrlar xayolidan o‘tayotganda, Bobur daftari orasiga solingan suratni mudarrisga ko‘rsatmaslikka urinib sekin oldi. Ko‘zlaridan ilhom va mehr yog‘ilayotgan Navoiy uzun qora chakmon kiygan, ingichka hassaga suyangan.

Uning butun qiyofasi yaxshilik istab kelgan har bir kishiga katta yaxshiliklar qila olishidan dalolat beradi. Bobur suratga qarab turib o‘zicha so‘radi: «Ulug‘ amir, nasib qilsa, huzuringizga borsam, yo‘limda Axramanu ajdaho uchrasa, Farhodingizday hammasini yengib o‘tsam. O‘shanda siz menga... she‘riyat tilsimini ochg‘uvchi kalit berurmisiz?»

Mudarris darslari behuda ketayotganini sezib, sekin Boburning yoniga keldi. Bobur suratni yashirishga ulgurolmadi.

– Odam surati? – shiddat bilan so‘radi mudarris. – Siz qur‘oni sharifdan saboq eshitish o‘rniga, shariat qat‘iyan man etgan suratkashlik bilan mashg‘ulmisiz.

– Mudarris janoblari, bu suratni menga Hirotdin keltirmishlar. Bu ulug‘ zot – Amir Alisher. Mudarris Navoiy haqida eshitgan, lekin asarlarini o‘qimagan edi.

– Qani bu suratni menga bering, mirzom! Mudarrisning vajohati suratni yirtib tashlashdan ham toymasligini ko‘rsatar edi. Shuning uchun Bobur suratni bermay turib oldi. Mudarris Boburdan xafa bo‘lib, Eson Davlat begimga shikoyat qilgani ketdi. Eson Davlat begim darsxonaga kirib kelganda Bobur darhol o‘rnidan turib, buvisiga salom berdi. Eson Davlat begim suratdagi Navoiy tasviriga qiziqib:

– Yuzlarida farishtalari bor zot ekanlar, – deb qo‘ydi. So‘ng mudarrisga dedi:– bu surat Hirotda shariat peshvolarining ruxsatlari bilan chizilgan-ku.

– Ma‘zur tuting, hazrat xonim, Hirotda shariat qonunlari buzilmishdir.

Eson Davlat begim mudarris bilan bahslashib o‘tirishni istamadi. Boburga yuzlanib:

– Suratni men olib ketay. Bobur suratni buvisidan bir nafasga so‘rab oldi-yu, avaylab kitob orasiga solib berdi.

– Ehtiyot qilingiz, sizga orzuyimni topshirdim,– dedi.

Eson Davlat begim nevarasining so‘zlarini yoqtirib dedi:

– Balki Alisherbekni Andijonga taklif qilursiz.

– Kelurmikanlar? – ko‘zlari yonib so‘radi Bobur.

– Samarqandga kelganlar-ku, Farg‘ona vodiysining ta‘rifi olamga mashhur. Iloj topsalar, albatta, kelurlar. Alisherbek nihoyatda pok, avliyo tabiat odam, deb eshitganmiz. O‘zlari kelsalar, mudarris janoblariga ham manzur bo‘lishlari shubhasiz!

Mudarrisning endi sal chehrasi ochildi. Qaddini tiklab:

– Shoyad shunday bo‘lsa! – deb qo‘ydi.

Eson Davlat begim ularni ustalik bilan yarashtirganidan mamnun bo‘lib darsxonadan chiqdi.

Qiyomat

(romanidan parcha)

Yangi bo‘ri xonadoni – Toshchaynar bilan Akbaraning qismatlari mana shu yerlarda kechadigan edi. Bu orada maxluqlar hayotida juda muhim bir voqea ham bo‘lib o‘tgan, Akbara uchta tuqqan edi. Bu unutilmas voqea Mo‘yinqumda o‘sha ko‘klam chog‘i changalzor orasida, keksa saksovul tagidagi o‘ngirda ro‘y bergan edi. Bu uya bo‘ri bolalarini sayrga olib chiqish uchun juda qulay edi. Bo‘richalar ancha tikka-yib qolishgan, quloqlarini dikkaytirib turishar, lekin bir-birlari bilan o‘ynagan, dumalashgan chog‘larida quloqlarining shalpayib tushgani bilan ishlari yo‘q edi. Ular endi oyoqda ancha mahkam turadigan bo‘lib qolgan, har birlari o‘zlariga yarasha fe‘li ho‘y orttirmoqda edi. Katta bo‘rilar ovga chiqadigan paytlari ulardan qolmay ergashardilar. Yaqinda bo‘rilar bir kecha-kunduz ovda bo‘lishdi. Ov kutilmagan falokat bilan tugashiga oz qoldi. O‘shanda Akbara tong qorong‘usida bo‘rivachchalarni ergashtirgancha Mo‘yinqumning ovloq bir chekkasiga yo‘l oldi. O‘sha yerlarda, bepoyon dashtlarda, ayniqsa, nim qorong‘i soylar, o‘ydim-chuqur jarliklarda hushni ajabtovur elitib, boshni aylantiradigan g‘alati o‘t-o‘lanlar ko‘p o‘sib yotardi. Akbara bu yerlarni bo‘rivachchaligidan beri bilar, bang o‘t gullaydigan kezlar bir kelib ketgan edi. U yo‘l-yo‘lakay cho‘lning mayda jonivorlarini changalidan o‘tkazib, quyuq o‘tlar orasida aylanib yurishni, ular ustida ag‘anab yotish, o‘tkir islarni ichiga tortish, so‘ng qanot chiqarganday bo‘lib uchish va nihoyat, xumorlanib uxlab qolishni yaxshi ko‘rar edi. Hozir esa ular Toshchaynar bilan yolg‘iz o‘zlari emas, orqalaridan oyoqlari beo‘xshov va uzun bo‘richalar ham ergashib kelar edi. Bunday safarlar paytida bo‘ri bolalari iloji boricha ko‘p narsalarni bilib, kichiklikdan yaxshilab o‘zlashtirib olishlari kerak edi. Urg‘ochi bo‘ri ergashtirib borayotgan mulk chekkasidagi xushbo‘y o‘tloqlarga ham shu bo‘rilar egalik qiladilar. Undan u yog‘i begona makonlar edi, u tomonlarda odamlarga duch kelib qolish hech gap emasdi. O‘sha ko‘z ilg‘amas yoqlardan goho kuz shamollarining uvillashiday parovoz tovushlari quloqqa chalinar, u yoqlar bo‘rilarga mutlaqo yot edi. Ular Akbara yetagida o‘z mulklarining eng chekka yoqasi tomon ketib borardilar. Akbaraning orqasidan Toshchaynar lo‘killab boryapti. Bo‘richalar esa jonlari ichiga sig‘may, dam sayin sho‘xlik qilishadi. O‘ynab oldinga o‘tib ketishadi. Lekin Akbara ularning beboshlik qilishlariga izn bermaydi. Hech bir maxluq uning oldiga tushmasligi kerak. Boshida saksovulzorlar va cho‘l shuvoqlari bosgan qumloq yerlardan borishdi. Kun tobora yuqoriga ko‘tarilib, havo odatdagiday ochiq va issiq bo‘lishidan darak berdi. Oqshomga tortib bo‘ri to‘dasi cho‘lning chekkasiga yetib keldi. Hali kun yorug‘ edi. O‘tlar bu yil baland bo‘lib o‘sgan, ular ichida yurgan bo‘rilarning yollarigina ko‘rinardi. Bang o‘tning kun bo‘yi oftobtig‘ida qi-

zib yotgan tuk bosgan shoxchalaridagi ko'zga unchalik tashlanavermaydigan gullari kuchli hid taratardi, ayniqsa, o't qalin o'sgan joylardan hid g'oyatda o'tkir va quyuq edi. Uzoq yo'l bosib kelgan bo'rilar kichikroq bir soy ichida dam olishdi. Tinmag'ur bo'ri bolalari charchoq nimaligini bilmay atrofda o'mbaloq oshishar, yer iskashar, hid olishar, har narsa ularga qiziq ko'rinardi. Bo'rilarning qorinlari to'q, binobarin, kechasi shu yerning o'zida tunab qolsalar ham bo'laverardi. Yo'l-yo'lakay bir necha semiz-semiz sug'ur bilan bitta quyon tutib yeyishgan, bir qancha qush uyalarini tintishgan, so'ng yo'lda uchragan jarlikdagi buloqdan to'yib-to'yib suv ichishgandi. Lekin o'rtada kutilmagan bir voqea yuz berdiki, shundan so'ng bo'rilar bu yerlarni jadallik bilan tark etishga, orqaga, sahro ichkarisidagi uyalariga qaytishga majbur bo'ldilar. Ular tun bo'yi yo'l bosdilar. Voqea bunday bo'ldi. Kun botib borardi, Akbara bilan Toshchaynar bang o'tning hididan mast, xumor holda o't-o'lanlar uzra cho'zilishgan edi. Shu payt yaqin atrofdan quloqlariga odam sasi eshitildi. Odamni boshqalardan burun jar yoqasidan o'ynab, quvalashib yurgan bo'ri bolalari ko'rdilar. Ular banogoh paydo bo'lgan ushbu g'alati xilqat odam ekanligini hatto, hayollariga ham keltirganlari yo'q. Yaproqday ishton, yalang oyog'iga kedi, boshiga yangiligida oq, hozir esa butunlay yag'irlashib ketgan panama kiygan maxluq yalang'och holda bang o'tlar orasida telba kabi chopib yurardi. U o't qalin o'sgan joylarni tanlab dam u yoqqa, dam bu yoqqa lo'killardi, bundan maza qilayotganga o'xshardi. Bunaqasini umrlarida birinchi marotaba ko'rib turgan bo'ri bolalari andak cho'chib, andak ajablanib pisib-netib qarab qolishdi. Anavi maxluq esa, xuddi jin tekkandek, nari borib, beri chopib kelishini qo'ymasdi. Bo'ri bolalari qo'rquvdan o'zlarini o'nglab, yuraklari qizidi. Lo'killab chopib yurgan, badanida tuki yo'q, ikki oyoqli g'aroyib maxluq bilan o'ynagilari keldi. Shu payt qip-yalang'och odamning o'zi ham bo'richalarni ko'rib qoldi. Hayron qoladigan yeri shundaki, bu yerda qashqir bolalari nima qilib yuribdi, deb o'ylamay, hushyor tortmay, bu esi yo'q qo'llarini oldinga cho'zib; bo'ri bolalarini erkalay boshladi.

– Voy, bular nima? – der edi u yuzlaridan oqib tushayotgan terlarni sidirib. – Bo'ri bolalari emasmi? Yo boshim aylanib, ko'zimga shundoq ko'rinyaptimi? Yo g'-ey, uchalasi ham katta-katta bo'lib qolgan bo'ri bolalari-ku! Voy, mening bo'rivoylarim! Yo'l bo'lsin? Qaydan keldingiz? Qayga borasiz? Bu yerlarda nima qilib yuribsiz? Meni-ku, yomonligim bu yerlarga haydab keldi, sizlar-chi! Bu cho'llarda, qarg'ish tekkan bu bang o'tning ichida nima qilyapsiz? Qani, mah-mah, beri kelinglar, qo'rqma, qo'rqma, mah-mah! Voy, tentak bo'rivoylarim-ey!

Esi past bo'ri bolalari odamning erkalatganiga chindan ishonib, quyruqlarini likilatib, bukilib-bukilib bag'irlarini yerga tekkizib quvlashmashoq o'ynash ishtiyoqida yaqinlashib bora boshladilar. Lekin shunda jar ichidan Akbara otilib chiqdi. U vazi-

yat qanchalar xatarli ekanligini ko‘z ochib-yumgunchalik vaqt ichida anglab yetdi. Akbara bosiq irillab, cho‘l quyoshining qizg‘ish shafaqlariga belangan yalang‘och odamga tashlandi. Shu sakraganda uning qornini yorib tashlashi yoki kekirdagini uzib olishi hech gap emasdi. Haligi kishi esa o‘qday otilib kelayotgan bo‘rini ko‘rgan zahoti qo‘rquvdan ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi, es-hushini yo‘qotib, boshini qo‘llari bilan pana qilganicha cho‘kkalab o‘tirib qoldi. Ana shu uni qutqardi. O‘qday uchib kelayotgan Akbaraning fikri yashin tezligida o‘zgardi. U yalang‘och va himoyasiz, bir zarbalik holi yo‘q odamning ustidan quyunday o‘tib ketdi. Shunda odamning chehrasini, qo‘rquvdan qotib qolgan ko‘zlarini ko‘rdi. Akbara odam tanasining hidlarini sezdi. U yana bir irg‘ib o‘zini odam ustidan orqaga otdi va bolalari yonida paydo bo‘ldi, ularni dumchalaridan og‘ritib tishlab, shiddat bilan jar yoqasiga surib haydarkan, Toshchaynarning ro‘parasidan chiqdi. Toshchaynar odamni ko‘rgan, uning bahaybat yollari qo‘rqinchli hurpaygan edi. Akbara uni ham nari surib, bir tishlab oldi va orqasiga qayirdi. So‘ngra hammalari jar ichiga tushib ketdilar va ko‘z ochib-yumguncha g‘oyib bo‘ldilar...

Abdulla Qahhor.

Ming bir jon

(*hikoya*)

Martning oxirgi kunlari. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g‘afatda yotgan o‘t-o‘lanni, qurt-qumursqani uyg‘otgan, avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq shu‘la sochayotganday tuyuladi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o‘ziga juda ham katta ko‘k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko‘chaga qarab o‘tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo‘lsa-yu, oyoq-qo‘li butun odam ko‘chaga chiqolmay, derazadan mo‘ralab o‘tirsa!..

Mirrahimov jussasi kichkina bo‘lgani bilan tovushi juda yo‘g‘on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog‘lig‘ini, kayfiyatini so‘radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi.

Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og‘ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko‘p kishi kirib ko‘rgan ekan. Mirrahimovning odamgar-chiligi tutib ketdi:

– Shu sho‘rlik ayolni bir kirib ko‘raylik! Uch kunligi bormi, yo‘qmi... Sob bo‘lgan deyishadi...

– Ha, ancha og‘ir,– dedi hamshira xo‘rsinib,– o‘n yil dard tortish osonmi!

Poygaxdagi karavotda kitob o‘qib yotgan Hoji aka degan xasta yo‘g‘on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko‘tarib, ko‘zidan oynagini oldi.

– O‘n yil? O‘n yildan beri kasal ekanmi?

– Ha, o‘n yil bo‘libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo‘lar-bo‘lmas shu dardga yo‘liqqan ekan. Tomog‘idan hech narsa o‘tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo‘yilgan... Ba‘zan o‘zi quyadi, ba‘zan eri.

Hoji akaning ko‘zlari o‘ynab ketdi.

– Eri? Eri bormi?

– Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga!

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin:

– O‘n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham birgami? – dedi.

– Shuni ayting,– dedi hamshira.– Doktorlarga yalinib-yolvorib palataga karavot qo‘ydirib oldi.

Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko‘ra bunchalik vafodor erni ko‘rishga ishtiyoqmand bo‘lib qoldi-yu, xalatining belbog‘ini mahkam bog‘lab, shippagini kiydi.

– Qani, yuringlar, tabarruk odamlar ekan, bir ko‘rib chiqaylik.

Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi.

Xayal o‘tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinda, uzun koridordan o‘ninchi palataga tomon yo‘l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o‘xshagan qop-qora, katta-katta ko‘zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo‘lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong‘iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo‘q, zaif emas, mayin tovush eshitildi:

– Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo‘ladi, ming rahmat! Akramjon, kursi qo‘yib bering...

Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko‘rdik... Ko‘z o‘ngimizda xasta emas, o‘lik, haqiqiy o‘lik, sap-sariq teriyu suyakdan iborat bo‘lgan murda ichiga botib ketgan ko‘zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o‘likning qo‘limi, oyog‘imi biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o‘lim pardasi qoplagan yuzida chaq nab turgan ko‘zlarini ko‘rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi.

Boya bizni kutib olgan yigit – Akramjon kursi qo‘yib berdi. Mirrahimov ikkovimiz o‘tirdik. Hoji aka yo‘g‘on gavadasi bilan Masturani to‘sib tikka turib qoldi. Yonimdagi kursini surib Hojining etagidan tortay desam, qorni silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qarasam... rangi bo‘z bo‘lib ketibdi! Uning qo‘rqanini payqab, hamshira darrov yo‘l qildi:

– Hoji aka, sizga dori berish esimdand chiqibdi-ku, yuring! – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. Hoji koridorga chiqib yiqilarmikan, deb o‘ylagan edim, yo‘q, xayriyat, gumburlagan tovush eshitilmadi...

Hamshira yo‘l qilib Hojini olib chiqishga chiqdi-yu, lekin baribir, Mastura payqadi. Juda-juda xunuk ish bo‘ldi. Mirrahimov ikkovimiz nima deyishimizni, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu hol kasalga qanday ta‘sir qildi ekan, deb sekin qaradim. Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:

– Akramjon, daftaringizga yozib qo‘ying: uch mardi maydon meni ko‘rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo‘lmay, o‘tirib qoldi.

Mastura piqirlab kulib yubordi; yana kuldi, yosh boladay o‘zini tutolmay qiqirlar edi. Bu hazil va ayniqsa kulgi avval xunuk, odamning etini jimirlatadigan darajada xunuk eshitildi, Masturaning yuzidan o‘lim pardasi ko‘tarilganday, hayot to‘la ko‘zlari o‘lik yuziga jon kirgizganday bo‘ldi. Mirrahimov Hoji akaning qilmishi to‘g‘risida uzr tariqasida bir nima demoqchi bo‘lib gap boshlagan edi, Mastura so‘zini og‘zidan oldi:

– Bunaqa narsa menga ta‘sir qilmaydi,– dedi, – Akramjon, bularga tobut voqeasini aytib bering... yo‘q, yo‘q, o‘zim aytib beraman! Bunga besh yildan oshdi. Ko‘z oldimdan ketmaydi... Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro‘parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog‘ini yamayotgan edi shekilli. Birdan ko‘cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam – tobut! Akramjonning ikki o‘rtog‘i hovlimizga tobut ko‘tarib kirdi! Yuragim jig‘ etib ketdi... Voy sho‘rim, nahot o‘lgan bo‘lsam... To es-hushimni o‘nglab, Akramjonga bir nima degunimcha, boyagi ikkovi tobutni devorga suyab qo‘yib, uyga kirib keldi; uyga kirdi-yu, meni ko‘rib ikkovi ham boyagi Hoji akingizday shaytonlab qolayozdi. Akramjon hayron... Men ana ketdi, mana ketdi bo‘lib yotgan edim-da, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi... Tobutni buzib pechkaga qalashdi. Menga shu ham ta‘sir qilgani yo‘q. Bunaqa narsalar o‘lim kutib yotgan kasalga yomon ta‘sir qilishi mumkin, men hech qachon o‘lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog‘ini surishtirsangiz, men odam bolasining o‘lim kutishiga, ya‘ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan

umid uzgani emas, balki «rozilik tilashgani hali erta» dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo‘q, timsoli yo‘q zo‘r umid bilan qaragani deb bilaman.

Akramjon Masturaning biz bilan yozilib o‘tirganiga qanchalik xursand bo‘lsa, toliqib qolishidan shunchalik xavotirda ekani ko‘rinib turar edi; shuning uchun Masturaga tez-tez dam berishni ko‘zlab, ko‘proq bizni gapirtirishga, o‘zi gapirishga harakat qilardi.

– Sizning nima dardingiz bor?– dedi Mirrahimovga yuzlanib.

Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

– Voy sho‘rim! – dedi Mastura, – jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig‘dimi?

Bo‘ldi kulgi! Ayniqsa, Mirrahimov zavq qilib kuldi. Kasallik, o‘lim to‘g‘risidagi gap tugab, xushchaqchaq suhbat boshlanishiga ilhaq bo‘lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi; askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o‘lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. Afsuski, Mirrahimovning yo‘g‘on tovu-shi suhbatimizning buzilishiga sabab bo‘ldi: vrach koridordan o‘tib borayotib, uning beso‘naqay kulgisini eshitgan bo‘lsa kerak, eshikni ochib qaradi va Masturaga zehn solib, uning yuzida horg‘inlik ko‘rdi shekilli, bizni chiqarib yubordi. Akramjon ketimizdan chiqdi, bizning bu iltifotimiz Masturaga qancha kuch-quvvat berishini aytib, ko‘nglida mavj urib, yosh pardasi bosgan ko‘zlarida ko‘rinib turgan cheksiz minnatdorchilik tuyg‘usini aytib bitirolmas, aftidan, Masturaning bir minutlik oromi uchun o‘ng ko‘zini o‘yib berishga ham tayyor edi.

Palatamizga qaytdik. Hoji aka karavotida yonboshlab, qand choy ichib, o‘zini yelpib yotar edi. Bo‘lib o‘tgan xijolatli ish to‘g‘risida u ham indamadi, biz ham indamadik. Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so‘z qotmadik; aftidan, borlig‘imiz Mastura bilan band, quyunday charx urayotgan taassurotlar, fikrlar, tuyg‘ularni ifoda qilgani so‘z topolmas edik.

Kech kirdi. Hoji aka o‘rtacharoq xurрак tortib uyquga ketdi. Mirrahimov dambadam u yoqdan-bu yoqqa ag‘darilar edi, nihoyat, mening uyg‘oq ekanligimni payqab, boshini ko‘tardi.

– Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirida ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so‘nadi. Mana shu ishonch Masturaga o‘limni yo‘latmaydi.

Mirrahimov uzoq jim qolganidan keyin yana birdan:

– Eri-chi, eri? – dedi, – bu yigitning ham raftoridan, yigitlik umri ming bittayu,

shundan bittaginasini Masturaga qurbon qilyapti.

Ertasiga Mastura haqida yana bir ko'ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to'planar ekan...

Kunlar o'tib hammamiz tarqaldik. Mirrahimov o'zining MTSiga, Hoji aka kurortga ketdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin shu tomonga yo'lim tushdi-yu, kasalxonani bosib o'tolmadim; kirib tanish hamshiradan so'rasam, Mastura bir soatdan keyin operatsiyaga yotar ekan. Doktorlar operatsiya stolidan turolmaydi, deb besh oydan beri uning ra'yini qaytarib kelishar ekan, oxiri bo'lmabdi – Mastura o'lsam tovonim yo'q, deb tilxat beribdi.

Kirib ko'ray desam, doktor ijozat bermadi. Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zoraki darmon bo'lsa deb kutdim.

Vaqt-soati yetganda Masturani hamshira bilan Akramjon ikki tomondan suyab olib chiqishdi. Lekin eshikdan chiqishi bilanoq Mastura ikkovini ikki tomonga itarib o'zi yurdi; bardam qadam tashlab, operatsiya zalining eshigini o'zi ochib kirib ketdi. Akramjon, butun diqqati xotinida bo'lgani uchun meni payqamadi. Mastura esa menga bir qaradi-yu, tanimadi shekilli, indamadi.

Operatsiyaga doktorlarning ko'ngli chopmagani, xastaning holi o'zimga ma'lum bo'lgani, Masturaning o'limning yuziga bunchalik tik qaragani qorong'ida qo'rqqan kishi ashula aytganidek emasmikin, degan gap ko'nglimdan o'tgani uchun operatsiyaning natijasini kutmadim, kechqurun kasalxonaga telefon qilmoqchi bo'lganimda, rostini aytsam, telefon trubkasini dadil ololmadim. Yo'q, xayriyat, Mastura operatsiyadan bardam turibdi. Shunaqa deyishdi.

Shundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim, lekin uni tez-tez eslar edim; bu toqati toq, joni temirdan insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. Shuning uchun oradan uch yil o'tgach, Akramjonni bir begona xotin bilan ko'rganimda alamimdan dod deb yubora yozdim.

Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmas kerak, chunki bu yerga respublikaning turli oblastlaridan kelgan odamlar o'z oblastining ashulasini, o'yinini ham olib kelgan deyishadi.

Paxta bayramini yor-joralar bilan Guliston rayonida o'tkazdik.

Akramjonni, boya aytganim xotin bilan shu yerda, Guliston rayoni markazining chiqaverishida ko'rdim. O'rta bo'yli, xushqomat, vujudidan yoshlik kuchi va g'ayrati yog'ilib turgan qop-qora juvon otda olma yeb, yo'l bo'yida turar, Akramjon

o‘z otining ayilini qayta bog‘lamoqda edi. Akramjon meni ko‘rib qoldi-yu, juvonga bir nima dedi. Juvon darrov otdan tushdi. Ikkovi yugurib keldi. Ikkovi ham men bilan juda eski qadrdonday so‘rashdi. Biroq men, harchand qilsam ham, palatadan chiqib operatsiya zaliga kirib ketayotgan Mastura ko‘z o‘ngimdan ketmay, bular bilan samimiy ko‘rishga olmadim: Akramjonni bir nav quchoqlagan bo‘ldim, juvonga esa qo‘limning uchini berdim.

Juvon: – Amaki, meni tanimadingizmi? – dedi va xurjundan ikkita olma olib, birini menga berdi.

– Qayerdadir ko‘rganday bo‘laman, lekin...

Juvon qo‘lidagi olmani ustma-ust bir necha martaba tishladi va chala chaynab yutdi.

– Endi ham tanimadingizmi?– dedi.

Tanidim! Faqat ko‘zidan tanidim! Kulimsirab, olamga tabassum sochib turgan bu juvon o‘sha Mastura edi. Men nima deyishimni bilmay:

– Bu yoqda nima qilib yuribsiz? – dedim. Mastura kuldi.

– Kuchimni, g‘ayratimni to‘la-to‘kis ishga solib yuribman, – dedi.

– Operatsiyaga kirib ketayotganingizda men yo‘lakda turgan edim, hayajonda bo‘lsangiz kerak, tanimadingiz...

– Yo‘q, amaki, – dedi Mastura bir oz xijolat bo‘lib, – kechirasiz, atayin so‘rashmagan edim... So‘rashsam, menga tasalli berar edingiz... O‘sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so‘z ishonchimga raxna, ko‘nglimga g‘ulg‘ula solishi mumkin edi.

Uzoq suhbatlashdik. Er-xotin otlarini yetaklab, meni talay yergacha kuzatib qo‘yishdi: so‘ng xayrlashib so‘l tomonga ot qo‘yib ketishdi.

Men sahroda lochinday uchib ketayotgan Mastura bilan Akramjonga uzoq qarab qoldim.

Ikkovi ufqqa yetganda, biri orqaga qaytdi, xayal o‘tmay yetib keldi.

Bu Mastura ekan, yo‘ldan bir necha qadam narida turib:

– Amaki, Hoji akamga salom ayting, – dedi va ufqda kutib turgan Akramjonga tomon ot qo‘yib ketdi.

Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan.

* * *

Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmay-
man,

Tomchi quyiladi kipriklarimdan.

Suv toshib oqadi ko'priklardan,

Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmay-
man.

Tabiat yuvmoqda dov-daraxtlarni,

Olam g'uborsizdek ko'zimga shu dam.

Bir yengil ruh bilan tashlayman qadam,

Tabiat yuvmoqda dov-daraxtlarni.

Atrofdan barq urar tiniqlik, tinchlik,

Havoda suzadi binafsha hidi.

Ishqilib, buzmasin poroxning dudi,

Atrofdan barq urar tiniqlik, tinchlik.

Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmay-
man,

Tomchi quyiladi kipriklarimdan.

Suv toshib oqadi ko'priklardan,

Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmay-
man.

* * *

Quyuc kipriklarga qo'ngandek uyqu,
Shahar ichra sekin tun cho'kdi vazmin.

Endi chiroqlardan to'kilgan yog'du
Ma'yus siypalaydi yo'lovchi izin.

Yana Zuhro chiqdi koshonasiga,
Ko'zida qotgan yosh, labida kulgu.

Toj qilib taqşam der birov boshiga,
Birovga bir chaqa o'tmas, qalbaki.

Tunni tong quvladi, yulduzni quyosh,
Shabnam ham ohista o'chdi bir yonib.

Gullar sergaklanib ko'tardilar bosh,
Musicha patini tarar quvonib,

Bu so'lim sabohda nelar kechdiykin,
O'ylayman, hayratda termilaman jim.

Nechta yulduz yonib, nechta o'chdiykin,
O'ylamagan ma'qul, ma'quldir balkim?!

O'zbekcha-ruscha lug'at

A

abadiy – вечный; вечно
adabiyotshunos – литературовед
adib – писатель
adir – холм, горный склон
ado etmoq – выполнять, исполнять; заканчивать
ahamiyat – важность, значение
ahvoli tang – тяжелое положение
aholi – население
ajdaho (*ajdar*) – дракон
ajoyib – удивительный, чудесный, замечательный
ajratmoq – отделить, выделить
aks – отражение, отображение; обратный, противоположный
aksariyat – подавляющее, большинство
aks etmoq – отражаться, отображаться.
albatta – обязательно, непременно
aldamoq – обманывать; вводить в заблуждение
alla – колыбельная (песня)
aloqa – связь, общение, отношение; иметь связь
alohida – отделный; особый, особенный,
alg'ov-dalg'ov – суматоха, беспорядок
amal – должность
amaldor – должностное лицо; чиновник
amalga oshmoq – осуществляться, претворять в жизнь
amaliyot – практика, деятельность; действие
ammo – но, а, однако; хотя; впрочем
aniq – точный; точно
aniqlamoq – уточнить, выяснить; определить

anglamoq – понимать, сознавать; смекать
ancha – много
an'ana – традиция
asar – произведение; труд
aslo – вовсе, совсем, совершенно
asos – основа, основание; база, фундамент
asosan – в основном, в основе; главным образом
asosiy – основной, главный; принципиальный
asoschi – основатель, основоположник
asr – век, столетие, эпоха
asrlik – вековой
atoqli – известный
atrof – сторона, окружность; окрестность
atrofida – вокруг; около, приблизительно
avval – раньше
avlod – поколение
axir – наконец, в конце концов
axloq – поведение; нравственность, этика, мораль
ayol – женщина
ayiq – медведь
aylanmoq – превращаться; развивать; вертеться, кружиться
ayniqsa – особенно; преимущественно
aytmoq – сказать, говорить
ayamoq – жалеть
aziz – дорогой, милый, любимый
aql – ум, разум, рассудок
ag'darmoq – переворачивать; опрокидывать
achchiq – горький, горько, горечь
ashaddiy – ярый, злейший, лютый
a'zo – член

В

badavlat – богатый, зажиточный, состоятельный
badarg'a – ссылка
badiiy – художественный
bayon qilmoq – излагать, повествовать
bajarmoq – исполнять, выполнять
balki – может быть; возможно
balli – молодец, браво
bamisoli – как; вроде как
band bo'lmoq – быть занятым
baravar – ровный, одинаковый, ровно, одинаково
barvaqt – рано, пораньше; ранний
barg yozmoq – распускать, раскрыть листья
bardosh – терпение, выдержка, выносливость, стойкость
barpo etmoq – строить, воздвигать
barcha – весь, вся, всё; все
barq urmoq – блистать, бурно развиваться
bastalamoq – перекладывать (слова) на музыку, сочинять мотив
baxtiyor – счастливый, счастливец, счастливо
baxt yaratmoq – создать счастье
ba'zan – иногда, иной раз
ba'zi – некоторый
bag'ishlamoq – посвящать, предназначать; дарить
bahaybat – огромный, громадный
bahramand – пользующийся (чем-л.); получающий удовольствие
bevafolik – неверность
bevaqt – безвременный, преждевременный; безвременно
bedana – перепел, перепёлка

bezak – украшение
bezamoq – украшать, наряжать
bezovta – беспокойный
bezraymoq – пляться
bekinmachoq – спрятаться; прятки
bekor – не имеющий дела; незанятый, свободный
bekorga – зря, попусту, напрасно
belgi – знак
belkurak – лопата
beor – не имеющий чувства собственного достоинства
betartib – беспорядочный
bizningcha – по-нашему
bilganicha – как знает, как умеет
bildirmoq – сообщать, извещать, доводить до сведения
bilim asoslari – основы знаний
bilimdon – знающий, сведущий, имеющий глубокие познания
bilimli – образованный, знающий, обладающий знаниями
binoan – согласно, в соответствии с, на основании
birga – вместе, совместно
birgalikda – совместно, сообща
birdamlik – единомыслие, солидарность, единство
birdan – вдруг, внезапно
Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Организация Объединённых Наций
bir nafas – в миг, мгновенно
birov – кто-то
bir oyoqlab – на одной ноге
bir oz – немного
biro narsa – что-то
biror – некий, какой-то, какой-нибудь
birpas – один миг, одно мгновение; на

минуту
bir chetga – в сторону
bir qancha – несколько
bir qism – одна часть
boyib ketmoq – разбогатеть, стать богатым
bola ochmoq – выводить (*высиживать*) птенцов
bor – есть, имеется
borib kelmoq – съездить, сходить
borlik – наличие, существование (*чего-л.*)
bormoq – идти, пойти; ехать
bosilib chiqmoq – быть изданным
bosilmoq – печататься, издаваться
boshlanmoq – начинаться
boshlang'ich – начальный
boshliq – глава, начальник, руководитель
boshpana – убежище, кров; жилище, дом
boshqarmoq – управлять, руководить
boshqacha – другой
boqmoq – смотреть, глядеть
bog'lamoq – связывать, привязывать
bukmoq – гнуть, сгибать
bunyod etmoq – создавать
burch – долг, обязанность
burchak – угол
butun – целый
butunlay – целиком, полностью
buyuklik – величие, огромность
buyurmoq – приказывать, предписывать, велеть
bug'doy – пшеница
bo'zchi – ткач
bo'y – рост
bo'lajak – будущее
bo'lim – отделение, отдел, филиал

bo'linmoq – делиться, разделиться
bo'sag'a – порог, подступ
bo'sh – пустой; непрочный

D

davlat – государство, держава
davlat tili – государственный язык
davolatmoq – лечить
davom – продолжение
davr – эпоха, эра, век
dalil – довод, аргумент, доказательство
dadillik – смелость, храбрость, мужество
dara – ущелье, горный проход
darvish – дервиш; отшельник
dard – болезнь, недуг
darrov – немедленно
dastlabki – сначала; первичный
daqiq – минута, момент, пора
dag'al – грубый
dahshat – страх, ужас; ужасный
devor – стена, забор
devoriy gazeta – стенная газета
devor ostida – под стенами
dehqonchilik – земледелие; занятие земледелием
din – религия
diniy – религиозный
diqqat – внимание
diqqat bilan – внимательно
dovrug' – слава, известность
dono – мудрый
dunyo – мир, вселенная
dunyoqarash – мировоззрение, взгляд
dur – жемчужина
do'kon – ларёк
do'stlashmoq – подружиться
do'q – окрик, угроза

Е

ega – хозяин
egallamoq – овладеть, захватить
ehtiyoj – потребность, необходимость, нужда
ehtiyoj – потребность, необходимость, нужда
ezgu – благой, добрый
ezmoq – давить, мять
ekin – посев, посевной
ekmoq – сеять, сажать
el – народ
emas – нельзя, невозможно
ergashmoq – увязаться, следовать, идти вслед
erimoq – таять
erishmoq – добиться, достигнуть
erk – воля, свобода
erkin – свободный, вольный
eronlik – иранец
esga olmoq – вспоминать
eski – старый, изношенный
eski usul – старый, устаревший метод, способ, приём
eslamoq – помнить, вспоминать
eslatmoq – напоминать, упоминать
esmoq – веять, дуть
etak – подол, пола; край, окраина
etagida – на краю, у подножия
eshitmoq – слушать, слышать
e'tibor – внимание
e'tibor bermoq – обращать внимание
e'tiborga olmoq – принимать во внимание, учитывать
e'tibor qilmoq – обратить внимание
e'tiqod – убеждение

Ф

fazilat – достоинство, положительное качество, превосходство, совершенство
falsafa – философия
fan – наука, знание
fan va turmush – наука и жизнь
faol – активный, активист
faoliyat – деятельность
faryod – крик, вопль
farmon – указ
farmoyish – распоряжение, повеление
farovon – изобильный
farq – разница, отличие, различие, расхождение
faxr – гордость, честь, почет
faxrlanmoq – гордиться
fikr – мысль, идея, дума
fojia – трагедия, драма, несчастье
foydalanmoq – использовать, воспользоваться
fosh qilmoq – разоблачать, вскрывать, раскрывать

Г

gavda – туловище, тело
gavjum – людный, многолюдный
gado – нищий
gazlama – мануфактура; ткань, материя
gaplashmoq – разговаривать, говорить, беседовать
goh – иногда, по временам
guvoh – свидетель, очевидец
guzar – ряд ремесленников; махаллинский центр
gumbirlamoq – греметь
gumbaz – купол, свод
gunoh – грех
gunohsiz – безгрешный, невинный,

безвинный

gumon – подозрение; сомнение

go‘zal – красивый, изящный, прелестный

Н

ha – да, хорошо, ладно

havas – желание, охота; интерес

havo – воздух, воздушный

havo yo‘llari – воздушные пути

hayot-mamot – жизнь и смерть

hayot tongi – рассвет жизни

hajviy – сатирический, юмористический

hazar – избегание; брезгливость

hazar qilmoq – избегать

hayvonot – животные, фауна

haydamoq – гнать, изгонять, выгонять

hayratga solmoq – удивить, поразить

hayron – удивленный, изумленный

hayron qolmoq – удивляться, изумляться, поражаться

hali – ещё, пока что

haligacha – до сих пор

halok bo‘lmoq – погибать

hamda – и, а также

hamisha – всегда, всё время, постоянно

hamkorlik – сотрудничество

hamla – нападение

hamma yoq – все стороны, кругом

hamon – все еще; как только

hamfikrlik – единомыслие

har – каждый, всякий

harakat – движение

harakat qilmoq – действовать, стараться

harbiy – военный

harbiy tajriba – военный опыт

har bir – каждый

har vaqt – всегда

har yerda – везде

har yoqqa – на все стороны

har zamon – всегда, всё время; изредка, временами

harorat – жар, теплота, тепло, температура

har turli – разный, различный

har qadamda – на каждом шагу

hatto – даже

hashamatli – великолепный, нарядный

hayajon – возбужденное состояние, волнение

hayajonlanmoq – возбуждаться, волноваться

haqiqat – истина, правда

haqiqiy – действительный, истинный, настоящий

haqli – правый

haqli ravishda – вправе

hech kim – никто

hech narsa – ничего

hechqisi yo‘q – ничего, не беда, пустяки

hijron – разлука

hikmatli – мудрый

hikmatli so‘z – мудрое слово, изречение

hikoya – рассказ

hikoya qilmoq – рассказать

hilpiramoq – развеяться; веять

himoya – защита

himoya qilmoq – защищать; защитить

hindi – индеец; индийский

hindshunoslik – относящийся к Индии

his – свойство; чувство

hisob – счет

hisoblamoq – считать, подсчитывать

hisoblanmoq – считаться, подсчитываться

hissa – доля

hissa qo‘shmoq – вносить долю, вклад
his qilmoq – чувствовать, ощущать
hovli yuzasi – площадь двора
hovuz – пруд
hodisa – событие; происшествие, случай
hozir – сейчас, теперь, ныне присутствующий, наличный
hozir bo‘lmoq – быть налицо, присутствовать
hozirgi – нынешний, настоящий
hozircha – по, пока что
hokimiyat – власть
homiy – покровитель, защитник
hosil – урожай
hosil qilmoq – получать; образовывать; приобретать
hoshiya – кайма, каемка
hujjat – документ
hujra – комнатка; каморка
hujum – наступление, налет
huzur – удовольствие
huzur qilmoq – получать удовольствие
hukm – решение
hukmdor – властитель, правитель
hukmron – владыка, властелин
hukmronlik – владычество, господство
hukumat – правительство
hurmat – уважение
hurmatli – уважаемый, почтенный
hurmat qilmoq – уважать
hurriyat – свобода
huquq – права

I

iborat – состоит (*из*)
ibrat – пример
idrok – разум, рассудок
ijod – творчество

ijodiy – творческий
ijod qilmoq – творить, создавать
